



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI


# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2023 №3(10)



O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA

**XALILOV A.U.,**Xalqaro hamkorlik sud ekspertlik faoliyatini  
rivojlantirishning omili ..... 2**MUSULMONOVA K.X.,**Lingistik ekspertizaning psixolingvistik metodologik  
asoslari ..... 8**NISHANOVA N.B.,**Internet tarmog'i maydonining yoshlar ongiga ta'siri va  
buning oqibatlari ..... 13**РОМАДАНОВА Т.А.,**K вопросу о классификации следов и повреждений  
на транспортных средствах и на одежде и обуви  
пострадавших в дорожно-транспортном происшествии 20**ДЖУРАЕВ А.А.,**Методы исследований рабочих тормозных систем  
легковых автомобилей ..... 27**UROZMATOV Sh.M., MUXITDINOV T.S.,**Intellektual mulk sohasida sud-iqtisodiy ekspertiza  
vazifalari ..... 33**ATANIYAZOV D.Sh.,**Kompyuter texnologiyasi yordamida o'zgartirilgan  
ovozning xususiyatlari ..... 39**MANSUROVA S.Z.,**

Zamonaviy sud ekspertiza metodlari ..... 45

**MUXAMEDJANOVA M.,**Kompleks sud ekspertizalari o'tkazishning  
metodik jihatlari ..... 52**SAMADOVA F.Z., KAMILOVA M.X.,**Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan  
buyumlar kriminalistik ekspertizasining zamonaviy  
imkoniyatlari ..... 57**HOTAMOV H.S.,**Senatning ijro hokimiyyati faoliyati ustidan parlament  
nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari ..... 62**FARMANOV Z.N.,**Referendumning huquqiy oqibatlari va demokratianing  
boshqa institutlari ..... 66**KURANOV U.M.,**Globallashuv sharoitida destruktiv va totalitar  
sektalar tahdidlarining namoyon bo'lishi ..... 70**MEYLIYEV U.F.,**Jamiyatda ma'nnaviy hayotni sog'lomlashtirish  
mexanizmlari ..... 77**O'LMASXO'JAYEV Z.,**Globallashuv jarayonlarining jamiyat  
xavfsizligiga ta'siri ..... 82**QOLQANOV N.T.,**

Siyosiy tizimlar tahlili AQSH va Fransiya misolida ..... 88

**KAYUMOVA F.,**“Sud ekspertiza sohasini rivojlantirishning zamonaviy  
usullari va ustuvor yo'nalishlari” mavzusida xalqaro  
ilmiy-amaliy konferensiya xususida ..... 92

## Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi

## Bosh muharrir:

Akram XALILOV

## Bosh muharrir o'rinosari:

Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:  
Nuriddin QOLQANOV

## Tahrir hay'ati:

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

## Mas'ul muharrir:

Husan NISHONOV

## Dizayner:

Faxriddin RAHIMOV

## Sahifalovchi:

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy,  
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommavii  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxtarga olingan.

Tahririyat manzili:  
100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'on'a yo'li ko'chasi, 46-uy  
Telefonlar:  
(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: www.sudex.uz  
e-mail: info@sudex.uz  
facebook.com/sudex.uz  
telegram.me/sudex.uz

Jurnal 30.11.2023-yilda bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.  
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

# XALQARO HAMKORLIK SUD EKSPERTLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILI

*XALILOV Akram Utamurodovich,*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi direktori*

Yangi Konstitutsiyamizning 28-moddasida agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlanib qo‘yilgan. Bu esa sud ekspertiza tashkilotlarining jinoyatchilikni oldini olish va uni fosh etishdagi mas’uliyati va rolini yanada oshiradi.

Shu o‘rinda, fuqarolarimizning Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilinishida, jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishda sud ekspertiza tadqiqotlari natijalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bois mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori, sud-huquq tizimining ajralmas qismi sanalgan sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib, ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha keyingi 5-yil ichida qabul qilingan Muhtaram Prezidentimizning 3 ta Qarori va 1 ta Farmonlariga asosan ushbu sohadagi normativ hujjatlar takomillashtirilib, sud eksperti kadrlarining kasbiy malakasini oshirish, sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash, sud ekspertizasi jarayoniga advokatlar hamda nodavlat sud ekspertlari ishtirokini ta’minalash orqali, odil sudlovni ta’minalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu o‘rinda, sud ekspertiza yo‘nalishida halqaro hamkorlikni rivojlantirish va turli xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lib, xalqaro standartlarni sohaga tadbiq etish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Ma’lumki, so‘nggi 50-yil ichida dunyoning turli mintaqalarida ko‘plab sud-ekspertiza tarmoqlari shakllandi, jumladan 1974-yilda **Amerika uchun ASCLD** (American Society of Crime Laboratory Directors), 1986-yilda **Avstraliya va yangi Zelandiya uchun SMANZFL** (Senior Managers of Australian and New Zealand Forensic Laboratories), 1995-yilda **Evropa uchun ENFSI** (European Network of Forensic Science Institutes) va 2004-yilda **Lotin Amerikasi, Ispaniya va Portugaliya uchun AICEF** (Academia Iberoamericana De Criminalistica Y Estudios Forenses).

Bularni qatoriga Osiyo sud-ekspertiza fanlari tarmog‘ini (Asian Forensic Sciences Network – AFSN) hamda Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasini (International Association of Forensic Sciences – IAFS) ham kiritish mumkin.

Keling bu xalqaro tashkilotlar haqida batafsil to‘xtalamiz.

Asian Forensic Sciences Network – AFSN

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagisi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-sون Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiysi bo‘yicha 2021-2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “yo‘l xaritasi”ning 39-bandida Sud-ekspertiza muassasalarining Osiyo sud-ekspertiza fanlari tarmog‘i (Asian Forensic Sciences Network – AFSN)ga a’zo bo‘lish nazarda tutilgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida Asian Forensic Sciences Network – AFSN faoliyati o‘rganildi.

Unga ko‘ra, Asian Forensic Sciences Network – AFSN 2008-yildan beri Osiyodagi sud-ekspertiza olimlari uchun sud-ekspertiza sohasida ilg‘or xorijiy tajriba bilan almashish, sud-ekspertiza fanini rivojlantirish, unda zamonaviy yondashuvlar va tadqiqotlarni hamda boshqa shu sohaga oid masalalarni muhokama qilishda xalqaro platforma sifatida xizmat qilib kelayotganligi aniqlandi.

Hozirda AFSNda 18 ta davlatning (*Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Filipin, Singapur, Tayland, Vietnam, Bangladesh, Mongoliya va boshqa*) 70 ta sud ekspertiza muassasalari a’zo sifatida qabul qilingan. AFSNda 9 ta texnik ishchi guruhlari hamda Sifat kafolati va standartlar qo‘mitasi mavjud.

Asian Forensic Sciences Network – AFSN 1999-yilda Gonkongda bo‘lib o‘tgan UNDCP (*sobiq UNODC*) tomonidan Janubi-Sharqiy Osiyodagi giyohvand moddalarni sinovdan o‘tkazish laboratoriyalari rahbarlari bilan bo‘lib o‘tgan Mintaqaviy maslahatlashuvlar natijasida “DrugNetAsia” yillik mintaqaviy axborot byulleteni nashretilgan. Ushbu ma’lumot byuletenti mintaqadagi giyohvand moddalarni tekshirish laboratoriyalari o‘rtasida ma’lumot almashish uchun platforma bo‘lib xizmat qilgan.

2007-yilda UNODC vakili doktor Barbara Remberg UNODCning prekursorlar va noqonuniy giyohvand moddalar bo‘yicha bo‘lib o‘tgan

mintaqaviy seminarida mintaqaviy sud-ekspertiza tarmog'ini shakllantirish g'oyasini ilgari surgan.

2008-yil oktabr oyida Osiyo mintaqasining 6 ta milliy sud ekspertizasi institutlari vakillari (*Brunei Ilmiy xizmatlar departamenti (Department of Scientific Services – Brunei Darussalam)*, *Malaysiya Kimyo fakulteti (Department of Chemistry – Malaysia)*, *Filipin Milliy tergov byurosi (National Bureau of Investigation – Philippines)*, *Tayland Sud ekspertizasi markaziy instituti (Central Institute of Forensic Science – Thailand)*, *Vietnam Sudekspertizasi instituti (Forensic Science Institute – Vietnam)* va *Singapur Sog'lioni saqlash fanlari boshqarmasi (Health Sciences Authority – Singapore)* Singapurda mintaqaviy sud ekspertizasi tarmog'ini tashkil etish masalasini muhokama qilish uchun uchrashishgan va ushbu xalqaro uchrashuv Osiyo sud-ekspertizasi tarmog'i Asian Forensic Sciences Network – AFSN faoliyatini boshlab bergen.

AFSN o'z faoliyatini 2012-yil 28-noyabrdan Tarmoqning yillik yig'ilishida tasdiqlangan Konstitutsiyasi (Ustavi)ga asosan olib boradi. Konstitutsiyada AFSNning maqsadi, a'zo bo'lish tartibi, boshqaruvi, kotibiyati, ishchi guruhlari, odob-axloq kodeksi, yillik yig'ilishlari va resurslari haqida normalar kiritilgan.

AFSN maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan:

- Osiyo sud-ekspertiza institutlari uchun sud ekspertizasi xizmatlari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun forum tashkil etish;
- Ekspert ishchi guruhlari, treninglar, hamkorlikdagi tadqiqotlar, malaka testlari va akkreditatsiyalar orqali Osiyoda sud ekspertizasi xizmatlari sifatini oshirish;
- Sud ekspertizasini targ'ib qilish va rivojlantirish uchun boshqa shunga o'xshash tarmoqlar bilan aloqalarni o'rnatish;
- Osiyodagi sud-ekspertiza masalalari bilan bog'liq strategiyalarni shakllantirish.

AFSNga a'zo bo'lish uchun Talabgor o'z mamlakatida nufuzli maqomga (*Ishonchli maqom politsiya, prokurorlar yoki sudiyalar tomonidan foydalilaniladigan hisobotlarni doimiy ravishda taqdim etishni anglatadi*) ega bo'lgan Osiyodagi hukumat yoki hukumatga qarashli sud ekspertizasi institutlarining direktorlaridan (yoki direktor tomonidan tayinlangan vakillardan) iborat bo'lishi kerak. Har bir mamlakatda ko'pi bilan bitta ovoz beruvchi a'zo bo'lishi kerak. Har bir ishtirokchi faqat bitta ovozga ega.

Talabgorning a'zolik masalalari Tarmoq Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi va zarur deb topilgan taqdirda, ariza beruvchi Tarmoq Kengashiga taqdimot qilish uchun taklif qilinadi. Mezonlarga

javob bermaydigan, ammo AFSN uchun foydali deb hisoblangan institutlar ovoz berish huquqiga ega bolmagan a'zolar sifatida ariza berishga taklif qilinishi ham mumkin.

Agarda AFSN a'zosi a'zolik mezonlariga javob bermasa, a'zolik yillik yig'ilishda Tarmoq Kengashining tavsiyasiga ko'ra tugatiladi.

A'zolar barcha AFSN tadbirlarini faol qo'llab-quvvatlashlari, ishtirok etishlari va Kotibiyatga ularning huquqlari yoki ma'muriy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berishlari kerak. Agar a'zo ketma-ket ikki yil davomida yillik yig'ilishlarda doimiy ravishda qatnashmasa, a'zolik masalasi Kengash tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

AFSN Kengashi kamida to'rtta va yetti nafardan ko'p bo'Imagan Kengash a'zolaridan iborat bo'lishi kerak, shu jumladan sobiq Prezident (agar u hali ham o'sha a'zo muassasada ishlayotgan bo'lsa), amaldagi Prezident va Tarmoq faoliyatini boshqarish hamda kelajak uchun strategik yo'naliishlarni belgilash bo'yicha vitse-prezident. Vitse-prezident yillik yig'ilishda a'zolar tomonidan saylanadi va amaldagi prezident vakolati oxirida prezidentlik lavozimini egallaydi.

Kengash a'zolari yillik yig'ilishda saylanadi. Tayinlangan a'zo kamida ikki yillik AFSN a'zoligiga ega bo'lishi kerak. Har bir muddat ikki yilni tashkil etadi. Agar Kengash a'zolari yetti nafardan kam bo'lsa, Kengash zaruratga qarab ikki yil muddatga qo'shimcha a'zolarni ham saylashi mumkin.

AFSNning barcha a'zolari 2009-yil 12-noyabrdan AFSN yillik yig'ilishi tasdiqlangan Xulq-atvor kodeksiga rioya qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi (keyingi o'rnlarda-Markaz deb yuritiladi) Asian Forensic Sciences Network – AFSNgan to'laqonli a'zo bo'lib kirishi uchun, barcha tegishli jarayonlarni amalga oshirib, AFSNning 2023-yil 11-15-sentabr kunlari Malayziyaning Kuala Lumpur shahrida o'tkazilgan keyingi umumiy yig'ilishi va «Light & shadow: technology vs evidence / Yorug'lik va qorong'ulik: texnologiya dalillarga qarshi» mavzusidagi AFSN a'zolari uchun tashkillashtirilgan simpoziumda ishtirok etdi.

Markaz delegatsiyasi AFSNning yalpi yig'ilishi dorasida O'zbekistonning Malayziyadagi favqulodda va muxtor elchisi Ravshan Usmonov bilan birgalikda AFSN boshqaruvi kengashi vitse-prezidenti, Malaziya Fan, texnologiya va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Ximiya departamenti rahbari Xalima binti Abdul Raxim xonim bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda ikki sud ekspertiza muassasalari o'rtaida hamda AFSN bilan sud ekspertiza sohasida keng qamrovli hamkorlik masalalari muhokama



etilib, O'zbekistonda sud ekspertiza faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan natijalar yuzasidan axborot uchrashuv ishtirokchilari e'tiboriga yetkazildi.

Shuningdek, AFSNning 15-yalpi yig'ilishi ishchi guruhlarining ish faoliyati va simpozium yakunlari bo'yicha hisobotlar tinglandi hamda Markaz delegatsiyasi tomonidan O'zbekistonda sud ekspertiza sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va Markaz faoliyati haqida ma'ruza qilinib, taqdimot o'tkazildi hamda AFSNga a'zo davlat vakillarining qiziqtirgan savollariga javob berildi.

Mazkur anjumanda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi AFSNning 65-a'zosi, O'zbekiston Respublikasi esa 18-davlat etib tasdiqlanganligi e'lon qilindi.

Shu bilan birga, Filippin, Janubiy Koreya, Xitoy, Indoneziya, Hindiston, Singapur, Tailand va boshqa AFSNga a'zo davlat vakillari bilan sud ekspertiza sohasida keng qamrovli hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Markazning AFSN ga a'zo bo'lishi hamda ushbu tashkilot ishida ishtirok etishi bilan quyidagi imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan:

AFSNga a'zo davlatlar bilan sud ekspertiza sohasida yangi innovatsion ma'lumotlarni o'zaro almashishga, sohadagi muammo va ularni yechimlari bo'yicha fikr almashishga, Markazda o'tkazilayotgan sud ekspertiza tadqiqotlari, uslublari va standartlarini yangi zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishga, AFSNning "Forensic Asia" jurnalida Markaz xodimlarining tadqiqot natijalari, maqolalari va tezislarini chop etishga, AFSN sha'feligida o'tkaziladigan sohaviy tadbirlarda ishtirok etishga hamda AFSN ga a'zo davlatlarning sud ekspertiza muassasalarida kelishuvga ko'ra malaka oshirish va stajirovka o'quv kurslarini tashkil etish, shunnigdek, AFSNning 9 ta texnik ishchi guruhlari va Sifat kafolati va standartlar qo'mitasi ishlarida ishtirok etib, sud ekspertiza sohasini yanada rivojlantirish imkon yaratildi.

### International Association of Forensic Sciences – IAFS

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-sون Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiysi bo'yicha 2021-2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "yo'l xaritasi"ning 44-bandida Sud ekspertlarining xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasiga (International Association of Forensic Sciences - IAFS) shafeligidagi o'tkaziladigan xalqaro tadbirlarda muntazam ishtirok etish belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydag'i "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5997-sون Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 70-bandida Sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xususan, Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasiga (International Association of Forensic Sciences - IAFS) a'zo bo'lish ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-sон Qarori bilan tasdiqlangan 2019-2020 yillarda sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 24-bandida Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasiga (IAFS) a'zo bo'lish masalasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida International Association of Forensic Sciences – IAFS faoliyati o'rganildi.

Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasi (International Association of Forensic Sciences – IAFS) 1957-yilda tashkil etilib va sud ekspertiza sohasidagi turli olim va amaliyotchilarni birlashtirgan.

Sud ekspertiza fanlarini rivojlantirish, sud ekspertlari va olimlar o'rtaida ilmiy va texnik ma'lumotlarni almashinuvini ta'minlash, sud ekspertizaning yangi yo'nalishlarini belgilab berish hamda o'quv seminarlarni tashkil etish IAFSning asosiy vazifasi sifatida belgilab olingan.

IAFS 1957-yilda tashkil etilgan bo'lib, sud ekspertizaning turli sohalari - sud tibbiyot, toksikologiya, daktiloskopiya, sud biologiyasi, giyohvand moddalarni o'rganish, ballistika, trasologiya, baxtsiz hodisalar va avtohalokatlarni rekonstruksiya qilish, sud-psixiatriya, tibbiy antropologiya, bioetika va fanlar bo'yicha olim va amaliyotchilarni birlashtirgan.

1957-yildan beri IAFS 19 ta xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazdi. IAFS ning boshqaruv organi Kengash bo'lib, uning tarkibiga Prezident va avvalgi Prezident kiradi.

Prezident IAFSning har uch yillik majlislarida Kengash tomonidan saylanadi.

IAFSning oldingi prezidentlari va mezbon shaharlari quyidagicha:

1957-yil F.C. Tomas (Bryussel, Belgiya), 1957-yil C.P. Larson, 1957-1960-yillar M. Helpern (Nyu-York, AQSh), 1960-1963-yillar F.E. Lagerlar (London, Buyuk Britaniya), 1963-1966-yillar X. Gormsen (Kopengagen, Daniya), 1966-1967-yillar X. Vard Smit, 1967-1969-yillar D.M. Lukas (Toronto, Kanada), 1969-1972-yillar T.K. Marshall (Edinburg, Buyuk Britaniya), 1972-1975-yillar H. Xartman (Syurix, Shveytsariya), 1975-1978-yillar W.G. Ekkert (Vichita, AQSh), 1978-1981-yillar J.Chr. Giertsen (Bryggen, Norvegiya), 1978-1984-yillar S.S. Kind (Oksford, Buyuk Britaniya), 1984-1987-yillar J.A.J. Ferris (Vankouver, Kanada), 1987-1990-yillar W.J. Tilstone (Adelaide, Avstraliya), 1990-1993-yillar V. Bonte (Dyusseldorf, Germaniya), 1993-1996-yillar T. Takatori (Tokio, Yaponiya), 1996-1999-yillar B.A. J. Fisher (Los-Anjeles, AQSh), 1999-2002-yillar E. Bakchino (Montpele, Fransiya), 2002-2005-yillar S.C. Leung (Gonkong, Xitoy), 2005-2008 Ronald L. Singer (Yangi Orlean, AQSh), 2008-2011-yillar D.N. Vieyra (Madeira, Portugaliya), 2011-2014-yillar X. Chung (Seul, Janubiy Koreya), 2014-2017-yillar M.S. Pollanen (Toronto, Kanada), 2017-2023-yillar Kloud Rux (Sidney, Avstraliya).



*2020-yilda IAFS konferentsiyasi Avstraliyaning Sidney shahrida o'tkazilishi kerak edi, ammo pandemiya tufayli konferentsiya 2023-yil 20-24 noyabrga ko'chirilgan.*

Qayd etilganidek, IAFS juda noodatiy tashkilot. Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida u o'zining asosiy vazifasini – tuzilmaning aniq yo'qligiga qaramay, har uch yilda bir marta sud ekspertlarining xalqaro uchrashuvlarini o'tkazishni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda.

Oldingi Prezidentlar Kengashi Prezidentni va yig'ilish joyini tanlaydi va Prezident o'z konferentsiyasi tugaganidan keyin avtomatik ravishda Kengashning umrbod a'zosi bo'ladi.

Har bir konferentsiya uchun faqat Prezident javobgardir. Bu o'z-o'zini moliyalashtirishi kerak, chunki IAFSning o'zida mablag' yo'q. Yangi prezident kutishi mumkin bo'lgan eng ko'p narsa bu avvalgi konferentsiyadan "boshlang'ich" xarajatlarni qoplash uchun "pul mablag'lari". Bu miqdor beshinchi va oltinchi uchrashuvlar o'rtaida o'tkazilgan 5,000 dollardan Adelaide uchrashuvidan keyin 75,000 dollardan oshdi. Budgetlar ham ko'paydi va hozirda grantlar, xayriyalar, ko'rgazma ishtirokchilari uchun to'lovlar, seminarlar va delegatlarni ro'yxatdan o'tkazish to'lovlar orqali to'planishi uchun 1,6 million AQSh dollariga yaqinlashmoqda. Prezident keyingi yig'ilishgacha Kengashga auditorlik tekshiruvidan o'tgan moliyaviy hisobotni taqdim etadi va olingan ortiqcha mablag'ni keyingi Prezidentga o'tkazadi.

IAFS tomonidan o'tkaziladigan yalpi-yig'ilish, konferensiyalarning afzalligi shundaki, konferentsiyalar biznesga emas, balki ilmiy va jamoatchilik, soha vakillari va tor doirdagi mutaxassislar bilan muloqotga qaratilgan. Shuningdek, o'zaro professional ma'lumotlar xalqaro miqyosda almashiladi va soha vakillari o'zaro qimmatli hamkorlik aloqalari o'rnatiladi.



International Association of Forensic Sciences - IAFSga a’zo bo‘lish uchun talabgor IAFS tomonidan xar uch yilda bir marotaba o‘tkaziladigan yig‘ilish-anjumanlarida doimiy ishtirok etib borishi, ya’ni yalpi-yig‘ilishida ro‘yxatdan utib, yig‘ilishda ko‘tarilgan masalalar (*misol uchun, IAFSning yangi Prezidentini saylash, keyingi anjuman mezonligini xal etish, sud ekspertiza faoliyatining yangi yo‘nalishlarini belgilash va boshqa dolzarb masalalar*) bo‘yicha ovoz berish jarayonlarida qatnashishi kerak.

IAFS uch banddan iborat o‘z Nizomiga ega.

Unga ko‘ra, 1. Sud ekspertizani rivojlantirish. 2. Ilmiy va texnik ma’lumotlarni almashishda sud ekspertlari va boshqa mutaxassislarga ko‘mak ko‘rsatish. 3. Har uch yilda IAFS yalpi yig‘ilishlarini tashkil etish belgilangan.

IAFSning navbatdagi anjumani 2023-yil 20-24-noyabrda Avstraliyaning Sidney shahrida bo‘lib o‘tdi. IAFSning anjumani bilan bir vaqtning o‘zida Avstraliya va Yangi Zelandiya sud ekspertiza jamiyatining 26-simpoziumi (26th Symposium of the Australian & New Zealand Forensic Science Society) o‘tkazildi. Mazkur IAFSning anjumanida X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi delegatsiyasi samarali ishtirok etib, IAFS ning to‘laqonli a’zoligiga qabul qilindi.

Anjuman dasturiga ko‘ra, sud ekspertiza sohasidagi pandemiyadan so‘ng turgan muammolar va ularni strategik yechimlari, huquqiy va ilmiy jihatdan sohani qo‘llab quvvatlash, yangi ekspertiza turlarning sud ekspertiza institutlari oldiga qo‘yilgan masalalarni yechishdagi roli, sud ekspertizaning zamonaviy ko‘rinish tendensiyalari va boshqa bir qator mavzular bo‘yicha AQSh, Avstraliya, Shvesiya, Kanada, Shveysariya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va boshqa davlat va xalqaro tashkilot vakillarining ma’ruza va taqdimotlari, shuningdek, sud ekspertiza fanlariga ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari professor o‘qituvchilarinnig seminar va mahorat darslari bo‘lib o‘tdi.

Xususan, IAFS ning 23-anjumani va Avstraliya va Yangi Zelandiya sud ekspertiza jamiyatining 26-simpoziumining birinchi tarmoq tadbirida tanishuv uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Mazkur tanishuv tadbirida dunyoning 70 davlatidan ishtirokchilar hamda sud ekspertiza sohasi uchun uskuna va dasturlar ishlab chiqaruvchi 40 ta kompaniyalari vakillari ishtirot etdi.

Shundan, 10 dan ortiq davlat vakillari va Markaz faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan texnologiyalar bo‘yicha 20 dan ortiq kompaniyalar vakillari bilan ikki tomonlama muloqotlar o‘tkazildi.

Jumladan, sud ekspertiza uchun uskunalar ishlab chiqaruvchi «Shimadzu», «Hamilton», «Digital Forensic Sciences Australia», Odam DNKsi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi ishlab chiqaruvchi «STRmix», robotlashtirilgan uskunalar ishlab chiqaruvchi «BSD», laboratoriylar uchun LIMS texnologiyalar ishlab chiqaruvchi «LabWare» va boshqa kompaniyalarning innovatsion ishlasmalari bilan yaqindan tanishildi.

Shuningdek, Filippin davlatidan tashrif buyurgan, Osiyo sud ekspertizasi tarmog‘i-AFSN kotibi Meilani Joy Ordone bilan uchrashuv o‘tkazildi. Mazkur uchrashuvda AFSN prezidenti Filippin Politsiya brigaderi General Konstancio Chinayog bilan ham videokonferensiya orqali muloqot qilindi. Ular tomonidan O‘zbekistonda, shu jumladan Markazda sud ekspertizani rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga yuksak baho berilib, AFSNning 2028-yilda bo‘ladigan yig‘ilishini O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazish bo‘yicha taklifi berildi.

*Osiyo sud ekspertizasi tarmog‘i (AFSN)ning 2024-yildagi yillik yig‘ilishi Tailandda, 2025-yilgi yillik yig‘ilishi Janubiy Koreyada va hokazo o‘tkazilishi belgilangan.*

Bundan tashqari, Fransiya, Bolgariya, Yaponiya, Ozarbayjon, Avstriya, Daniya va Malaziya davlatlari delegatsiyalari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, hamkorlik masallari muhokama etildi.

Simpozium doirasida tashkil qilingan «Varsash Sayntifik», «BSD robotiks», «Epe trasted tu protekt», «forensik tuls» «Shumadze» va boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi hamda zarur ma’lumotlar almashinildi.

Anjuman doirasida yigirma oltita ishchi guruhlar shakllantirilgan bo‘lib, bular raqamli sud ekspertizasi, DNK, hujjatlar kriminalistikasi, noqonuniy giyohvand moddalar, sifatni ta’minlash va standart, antropologiya va arxeologiya, biologik kriminalistlar, klinik sud tibbiy ekspertiza va tibbiy hamshiralik, jinoyat joyi, o‘qitish va qayta tayyorlash, yong‘in va portlash, tibbiy potoliyi, tibbiy taponomiya va entomolgiya,

gumanitar tibbiy fanlar, terrorga qarshi kurash va harbiy sud ekspertiza, odontologiya, psixiatriya, ekspertizaning huquqiy asoslari, farmolokologiya va toksikologiya, hayvon va o'simliklar jinoyatchiligi ekspertizasi, genetik genealogiyada sud ekspertiza, barmoq izi, sud tibbiy ekspertiza va boshqalardir. Delegatsiya a'zolari belgilangan yo'naliishlar bo'yicha ishchi guruhlarda ma'ruzalarda ishtirok etishdi.

Shu bilan birga IAFS ishtirokchilariga sertifikatlarni tantanali topshirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilish davomida IAFSning 2026-yildagi 24-simpoziumini o'tkazishga talabgor nomzod bo'lgan Birlashgan Arab amirliklari, Shotlandiya, Bolgariya, Meksika, Malayziya davlatlari orasidan eng yaxshi talabgor sifatida taqdimot qilgan Bolgariya Gabrovo sud ekspertiza tashkiloti boshlig'i professor Yanko Kolev IAFSga keyingi uch yillikka yangi prezident etib, IAFSning 2026-yildagi 24-simpoziumini o'tkazishga Bolgariya mezbon davlat etib e'lon qilindi.

Markazning IAFSga a'zo bo'lishi hamda ushbu tashkilot ishida ishtirok etishi bilan quyidagi imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan:

IAFS ning tomonidan o'tkaziladigan yalpiyig'ilishda ishtirok etish. IAFS konferensiyalarning afzalligi shundaki, konferensiylar biznesga emas, balki ilmiy va jamoatchilik, soha vakillari va tor doiradagi mutaxassislar bilan muloqotga qaratilgan. Shuningdek, o'zaro professional ma'lumotlar xalqaro miqyosda almashiladi va soha vakillari o'zaro qimmatli hamkorlik aloqalari o'rnatilishiga e'tibor qaratiladi.

Sud ekspertizasi sohasidagi yangi innovatsion ma'lumotlar va tajribani IAFSga a'zo bo'lgan sud ekspertiza muassasalari, ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalari va tadqiqot markazlari bilan almashish, ushbu sohadagi muammolar va ularning yechimlari haqida fikr almashish imkonini berdi.

Shuningdek, yangi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda sud ekspertiza standartlarini qayta ko'rib chiqish, ekspertiza usullarini takomillashtirish, IAFS shafeligidao'tkaziladigan tadbirdirlarda(seminar,o'quvkurs, stajirovka va boshqa) to'siqlarsiz ishtirok etish, ishlab chiquvchilardan ixtisoslashtirilgan ekspert uskunalarini bo'yicha yangilangan ma'lumotlarni va ular haqida bevosita ushbu uskunadan foydalangan sud ekspertiza muassasalardan fikr-mulohazalarni olish sharoitlari yaratildi.

Bundan tashqari, dunyo sud ekspertiza hamjamiyati oldida Markaz nafaqat Osiyo sud ekspertiza tarmoqlari (Asian Forensic Sciences Network – AFSN) mintaqaviy tashkilotining



to'laqonli a'zosi sifatida, balki Butunjahon sud ekspertlari assotsiatsiyasi (International Association of Forensic Sciences – IAFS) butunjahon tashkiloti a'zosi tariqasida ish faoliyatini olib borish. Bunda Markaz tomonidan bajarilgan sud ekspertiza xulosalarining ishonchliligi hamda boshqa mamlakat tegishli idoralari tomonidan tan olish imkoniyati yaratildi.

Shu jumladan, Markazning laboratoriyalari ISO/IEC 17025 xalqaro standarti talablari bo'yicha akkreditatsiyadan o'tish ishlarini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi, bu esa laboratoriylar tomonidan beriladigan tadqiqot natijalarini (xulosalarni) xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishini, fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga va odil sudlovni ta'minlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, Yevropa, Amerika va boshqa qit'a sud ekspertiza tashkilotlari hamda sud ekspertiza muassasalari bilan sud ekspertiza yo'naliishlari bo'yicha ham teng huquqli hamkorlik qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Xulosa o'rnila Sud ekspertiza faoliyatida xalqaro hamkorlikni ta'minlash, sud ekspertiza muassasalarining xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish va ularning ishida doimiy ishtirok etishi, mamlakatimizda sud ekspertiza sohasini yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarni soha faoliyatiga tadbiq etish, sud ekspert kadrlarning malakalarini xorij standartlar asosida oshirish borish, zamonaviy innovatsion texnologiya va yangi uslubiyotlarni o'zlashtirishda, tadqiqot natijalarinin ishonchligiga hamda ularni xalqaro miqyosda tan olinishida xizmat qiladi.

## ANNOTATSIYA

# LINGVISTIK EKSPERTIZANING PSIXOLINGVISTIK METODOLOGIK ASOSLARI

**MUSULMONOVA**  
**Kamola Xusniddin qizi,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent*  
*davlat o‘zbek tili va adabiyoti*  
*universiteti katta o‘qituvchisi,*  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa*  
*doktori (PhD)*

Sud lingvistik ekspertizasini samarali tashkil etish, ekspertlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yagona metodologiya ishlab chiqish zarur. Bu esa soha rivoji, istiqboliga xizmat qiladi. Lingvistik ekspertizaning metodologik asoslarini belgilash va unga qay o‘rinda qanday tayanish mumkinligini asoslash sohaning dolzarb masalalaridan biri. Maqolada lingvistik ekspertizaning psixolingvistik metodologik asoslari, sud psixolingvistik ekspertizasi va sud lingvistik ekspertizasi bog‘liqligi, tafovuti masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekspertiza, sud ekspertizasi, lingvistik ekspertiza, psixologiya, psixolingvistik ekspertiza, psixolingvistik metodologik asos, metodologiya, metodika, metod, qonuniy asos, Jinoyat kodeksi, haqorat.

## АННОТАЦИЯ

Необходимо эффективно организовать судебно-лингвистическую экспертизу, разработать единую методику координации деятельности экспертов. Это служит развитию и перспективам отрасли. Определение методологической основы лингвистической экспертизы и обоснование того, где и как на нее можно опираться, являются актуальными проблемами данной области. В статье описаны психолингвистические методологические основы лингвистической экспертизы, взаимосвязь и различия судебной психолингвистической экспертизы и судебно-лингвистической экспертизы.

**Ключевые слова:** экспертиза, судебная экспертиза, лингвистическая экспертиза, психология, психолингвистическая экспертиза, психолингвистическая методологическая основа, метод, методика, правовая основа, уголовный кодекс, оскорблениe.

## ANNOTATION

It is necessary to effectively organize forensic linguistic expertise, to develop a unified methodology for coordinating the activities of experts. This serves the development and

prospects of the industry. Determining the methodological basis of linguistic expertise and justifying where and how it can be relied on is one of the urgent issues of the field. The article describes the psycholinguistic methodological foundations of linguistic expertise, the relationship and differences between forensic psycholinguistic expertise and forensic linguistic expertise.

**Key words:** expertise, forensic expertise, linguistic expertise, psychology, psycholinguistic expertise, psycholinguistic methodological basis, methodology, methodology, method, legal basis, criminal code, insult.

O'zbek tilshunosligida til va yurisprudensiyaning bog'liqligi masalasi sud nutqi va terminologiyasi, shuningdek, qonun hujjatlari tili bilan bog'liq tadqiqotlar misolida ochib berilgan. O'zbek yozma matnlari til va etnik, psixologik xususiyatlariga ko'ra boshqa tildagi matnlardan tubdan farq qiladi. Keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda lingvistik ekspertiza sud ekspertizalarining ajralmas tarkibiy qismidan biri ekanligi o'z isbotini topdi. Lingvistik ekspertizada tilshunoslik amaliy vazifa bajaradi: tilshunoslikka oid bilimlar muhim ijtimoiy, yuridik, kriminalistik masalalarningadolatli yechim topishiga imkon beradi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvistik ekspertiza – mavjud konfliktli vaziyatda dalillarni olish va oydinlashtirish usullaridan biri. "Ma'rifat" gazetasining 2023-yil 7-dekabr sonida e'lon qilingan professor B.R.Mengliyev va K.Musulmonova muallifligidagi "Lingvistik ekspertiza: talab va ehtiyoj" nomli maqolada bugungi kunda o'zbek lingvistik ekspertologiyasi



oldida turgan dolzarb muammolar va ularga yechim topishning nazariy asoslari xususida so'z boradi. Maqolada lingvistik ekspertizaning maqsadiga to'xtalish barobarida quyidagi jihatlar ta'kidlanadi: "Lingvistik ekspertiza o'tkazish maqsadi:

- 1) sud xulosasini berishda xolislik va haqqoniyligini ilgari surish;
- 2) matnning lingvistik xususiyatlarini ekspertiza qilish orqali gumonlanuvchi, ayblanuvchi va aybdor haqidagi salbiy, shaxsiy-emotsional fikrlarni daliliy asoslash;
- 3) lingvistik ekspertiza orqali kriminalistik masalalarga yechim topish;
- 4) antiplagiat dasturlaridan farqli ravishda mazmunan o'xshashlik kategoriyasiga ko'ra mualliflik huquqini himoya qilish".

Ko'rindiki, soha bugungi davr uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda aynan o'zbek lingvistik ekspertologiyasiga doir qo'llanmalar, monografiyalar, uslubiyotlar yaratish, shuningdek, bu borada kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, nodavlat-sud lingvist-ekspertlari faoliyatini yo'lga qo'yish ehtiyoji bor. Ana shu talab va ehtiyojlardan biri sud lingvistik ekspertizasining metodologik asoslarini belgilash, jumladan, psixolingvistik metodologik asoslarini aniqlashtirishdan iborat.

Psixologiya ijtimoiy-gumanitar fanlarning ko'pgina sohalari bilan bevosita aloqador. Jumladan, psixologiya va lingvistik ekspertiza munosabati, bog'liqligi xususida jahon eksper-tologiyasida turli yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlar esa o'z navbatida, psixolingvistik ekspertiza o'tkazish zarur yoki zarur emas degan ikki xil qarash shakllanganligini ko'rsatadi. O'tgan asrda V.I.Batova va M.M.Kochenov sud psixolingvistik ekspertizasi terminini ilk bor qo'llaydi va ushbu turdag'i ekspertizalarni alohida shakllantirish zarur degan fikrni ilgari suradi. Keyinchalik esa o'z qarashlarini isbotlashga qaratilgan qator tadqiqotlari yuzaga keldi<sup>1</sup>. Kochenovga ko'ra: "Sud-psixologik ekspertiza – bu maxsus bilimlar tizimi bo'lib, uning asosida ekspertiza sud jarayoni uchun muhim bo'lgan zarur ma'lumotlarni olish usullaridan foydalanadi. Keyinchalik, ekspert-psixolog o'tkazilgan

<sup>1</sup> Коченов М.М. Судебно-психологическая экспертиза: теория и практика. – М.: Генезис, 2010. – С. 352;

tadqiqot bo'yicha o'z fikrini bildiradi va agar sud tomonidan qabul qilingan bo'lsa, u ishda dalil sifatida qabul qilinadi"<sup>2</sup>. A.A.Leontevning so'zlariga ko'ra, ko'p hollarda psixolingvistik ekspertiza bilan hal qilinadigan muammollar kompleks yondashuvni, ya'ni tilshunoslik, psixolingvistika va psixologiyadagi bilimlardan foydalanishni talab qiladi<sup>3</sup>. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, sud psixolingvistik ekspertizasini ishlab chiqish jarayonida sud-tibbiy tilshunoslik va psixolingvistika usullari o'rtasidagi chegaralar tarqoqdir<sup>4</sup>.

A.A.Leontev tadqiqotlarida psixolingvistik va lingvistik ekspertiza tafovutini tushuntirib beradi. Unga ko'ra, lingvistik ekspertiza predmeti turli xildagi matnlar, har qanday axborot ko'rinishidagi xabarlar bo'lishi mumkin. Psixolingvistik ekspertizada esa bevosita subyekt ta'siri hisobga olinadi<sup>5</sup>.

L.S. Vigotskiy o'z tadqiqotlarida nutq faoliyatini obyektiv motiv, maqsadlilik, shuningdek, fazaviy tuzilma bilan tavsiflaydi: yo'naltirish, rejalshtirish, nutq rejasini amalga oshirish, nazorat qilish<sup>6</sup>. O'z tadqiqotlari asosida A.A. Leontevning fikricha, nutq faoliyatni subyekt faoliyatining quroli bo'lgan holda, o'ziga xos xususiyat – maqsadga muvofiqlikni o'z ichiga oladi<sup>7</sup>. Olim nutq faoliyatining ikki birligini ajratadi: elementar nutq harakati va nutqiy operatsiya<sup>8</sup>. Bu ikki birlikni psixolingvistik sud ekspertizasi tadqiqotining predmeti deb atash maqsadga muvofiqdir. Ular nutq faoliyatini tavsiflovchi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: 1) nutq faoliyatining obyektivligi; 2) maqsadlilik; 3)

<sup>2</sup> Батова О.С. Проблемы классификации судебных споров, связанных с воспитанием детей // Журнал Российского права, 2005.

<sup>3</sup> Леонтьев А.А. О психолингвистической экспертизе // Методология современной психолингвистики: сб. ст. – М.: Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003. – С. 58-70.

<sup>4</sup> Иваненко Г.С. Лингвистическая экспертиза в процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации: монография. Челябинск: Полиграф-Мастер, 2006. – С.228.

<sup>6</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982. – С. 504.

<sup>7</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982. – С. 504.

<sup>8</sup> Леонтьев А.А., Рябова Т.В. Фазовая структура речевого акта и природа планов // Планы и модели будущего в речи (материалы к обсуждению). – Тбилиси: Мецниереба, 1970. – С. 27-32.

motivatsiya; 4) faoliyatni bosqichli tashkil etish<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, Leontev tadqiqotlarida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat lingvistik yondashuv va psixologik yoki psixolingvistik yondashuvning farqlanishi ko'rsatib beriladi. Psixolingvistik ekspertiza faqat lingvistik yoki psixologik bilimlar orqali amalga oshiriladigan jarayon emas. Balki ushbu turdag'i ekspertizalarni kompleks ekspertiza sifatida baholash o'rini. Aynan psixologik, lingvistik va biologik bilimlar talab qilinadigan konfliktli hollarda kompleks ekspertiza o'tkazish mumkin. Xususan, bolaga vasiylikni belgilash, ota-onalikdan mahrum qilish yoki boshqa qotillik, firibgarlik bilan bog'liq hollarda DNK ma'lumotlarini tekshirish va taqqoslash, ekspertiza jarayonida asosiy dalil sifatida o'rganish, shuningdek, nutq materiali ekspertizaga tortilgan shaxsnинг psixologik holati va uni ifodalovchi lingvistik belgilar mutanosibligini tekshirish va asoslash zarurati paydo bo'lishi mumkin. Bunda ekspertlar jamoasi tomonidan tekshiriladigan jihatlar belgilab olinadi va yakunda umumiyl xulosa shakllantiriladi. Demak, psixolingvistik ekspertiza zarurat tug'ilgan hollarda va turli mutaxassislar jamoasi bilan amalga oshirilar ekan, uni alohida ekspertiza turi sifatida ajratish zarurmi degan o'rini savol tug'iladi. Ana shu savollarga javoban Kochenov o'z tadqiqotida quyidagi jihatlarini ta'kidlab o'tadi:

"Sud-psixologikekspertizaning asosiy vazifasi adliya organlariga psixologik mazmundagi masalalarni hal etishda yordam berish bo'lib, uning vazifasi maxsus psixologik bilimlar va tadqiqot usullarini amaliy qo'llash asosida aniq va xolisona baholash imkonini beruvchi yangi faktlarni olishdan iborat"<sup>10</sup>. A.V.Pominov fikricha, psixolingvistik ekspertiza lingvistik ekspertiza emas, balki sud psixolingvistikasi davomida ekspert matnni nutq faoliyatining hodisasi sifatida aqliy proeksiya sifatida tekshiradi:

- nutq shaxsnинг muayyan psixik faoliyati mahsuli sifatida;
- nutq faoliyati psixik jarayon sifatida<sup>11</sup>.

<sup>9</sup> Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. 3-е изд. – М.: СПб.: Смысл; Лань, 2003. – С. 287.

<sup>10</sup> Коченов М.М. Судебно-психологическая экспертиза: теория и практика. М.: Генезис, 2010. – 352 с. Батова О.С. Проблемы классификации судебных споров, связанных воспитанием детей // Журнал Российского права, 2005.

<sup>11</sup> Поминов А. В. Комплексная психолингвистическая

Ushbu keltirilgan mulohazalarda psixolingvistik ekspertiza alohida sud ekspertizasi sifatida ajratilishi lozimligiga urg'u beriladi. Biroq biz yuqorida ta'kidlagandek, sud psixolingvistik ekspertizasi alohida ekspertiza turi sifatida ajratilishi o'rini emas. Boisi, sud psixologik ekspertizasi bevosita jinoyat aktining psixologik aspektlarini tekshiradi. Sud lingvistik ekspertizasi esa lingvistik bilimlar talab qilinadigan konfliktli o'rnlarda muammoni obyektiv o'rganadi va xulosa beradi. Agarda ham lingvistik, ham psixologik jihatdan tekshirish zarurati paydo bo'lganda kompleks ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiq. Psixolingvistika esa lingvistik ekspertizaning bir qator turlarini amalga oshirishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Xususan, haqorat holatlarda adresant va adresatning psixologik holati va shunga muvofiq nutqning xoslanishini tekshirishda psixolingvistik yondashuvga ehtiyoj seziladi. Masalan, "ahmoq" leksemasi mavjud lug'atlarda haqorat semasiga ega so'z sifatida berilganligi bilan, uning kontekstda qo'llanilishi, muloqot ishtirokchilari tomonidan qanday mazmunda uzatilgan va qabul qilingan singari holatlarni baholash konfliktlarga sabab bo'ladi. Ayni shu vaziyatlarda psixolingvistik aspektga diqqat qaratish lozim bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, psixolingvistik ekspertizalar kompleks sud ekspertizasi sifatida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarga esa psixolingvistika metodologik asos vazifasini bajaradi. Ekspert obyekt ko'lami va muammoning qo'yilishiga qarab psixolingvistik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi mumkin. Biroq, bizningcha, psixolingvistik ekspertizalarni alohida ekspertiza turi sifatida ajratishga ehtiyoj yo'q. Shu bois lingvistik ekspertizaning metodologik asoslarini belgilashda psixolingvistik metodologik asoslarini ko'rsatish, ishlab chiqish va asoslash maqsadga muvofiq bo'ladi.

экспертиза книги В.М.Тименчик «Семья у нас и у других» // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – Т. 20. – С. 3296–3300. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/54923.htm>

**ADABIYOTLAR**

1. Коченов М.М. Судебно-психологическая экспертиза: теория и практика. М.: Генезис, 2010. – 352 с.
2. Батова О.С. Проблемы классификации судебных споров, связанных воспитанием детей // Журнал Российской права, 2005.
3. Леонтьев А.А. О психолингвистической экспертизе // Методология современной психолингвистики: сб. ст. – М.: Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003. – С. 58-70.
4. Иваненко Г.С. Лингвистическая экспертиза в процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации: монография. Челябинск: Полиграф-Мастер, 2006. – С. 228.
5. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. 3-е изд. – М.: СПб.: Смысл; Лань, 2003. – С.287.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982. – С. 504.
7. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. – М.: Красанд, 2010. – С. 332.
8. Леонтьев А.А., Рябова Т.В. Фазовая структура речевого акта и природа планов // Планы и модели будущего в речи (материалы к обсуждению). – Тбилиси.: Мецниереба, 1970. – С. 27-32.
9. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. 3-е изд. – М.: СПб.: Смысл; Лань, 2003. – С. 287.
10. Поминов А.В. Комплексная психолингвистическая экспертиза книги В.М.Тименчик «Семья у нас и у других» // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – Т. 20. – С. 3296–3300. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/54923.htm>

## INTERNET TARMOG'I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI VA BUNING OQIBATLARI

**NISHANOVA**  
**Nigora Batirovna,**  
**X. Sulaymonova nomidagi**  
**Respublika sud ekspertizasi markazi**  
**Sud-lingvistik va psixologik**  
**ekspertizasi bo'limi boshlig'i**

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog'i orqali vujudga keladigan yoshlar orasidagi xavflarning asosiy omillari sifatidagi muammolar haqida so'z boradi. Internet tarmog'ining ushu muammolarni keltirib chiqarishda o'rni va ularga e'tiborning ahamiyati, uning shaxsiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etishdagi asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. Yangi O'zbekiston ravnaqining poydevori bo'lib xizmat qiladigan yoshlar xavfsizligi masalalarining yechimini shakllantirish, amalga oshirish va yuksaltirishning yo'llari va bir qator chora-tadbirlari taklif etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Internet, Yangi O'zbekiston, yoshlar, taraqqiyot strategiyasi, tamoyil va omillar, ta'lif, trigger, xavf, psixologik holat, ijtimoiy tarmoqlar.

### АННОТАЦИЯ

В статье говорится о проблемах, которые являются основными факторами опасностей среди молодежи, возникающих через интернет в нашей стране на сегодняшний день. Рассмотрены основные принципы в решении личных, социальных, политических и экономических проблем роль интернета в их порождении и важность внимания к ним. Предлагаются пути и ряд мер по формулировке, реализации и совершенствованию решения вопросов безопасности молодежи, которые служат фундаментом развития нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** интернет, Новый Узбекистан, молодежь, стратегия развития, принципы и факторы, образование, триггер, опасность, психологическое состояние, социальные сети.

### ANNOTATION

The article talks about the problems and factors that are the main factors of the dangers among young people in our country today through the Internet. The role of the Internet in causing these problems and the importance of attention to them, its main principles in solving personal, social, political and economic problems are considered. Ways and a number of measures are proposed to form, implement and improve the solution of youth security issues, which serve as the foundation of the development of the new Uzbekistan.

**Key words:** Internet, New Uzbekistan, youth, development strategy, principle and factors, education, trigger, risk, psychological state, social networks.

## KIRISH

Istalgan vaqtda istalgan savolga javob olish imkoniyatini beruvchi Internet, ayniqsa, yoshlarning diqqatni jamlash va tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumot har doim kompyuterda ekanligini tushunish odamlarni hech narsani eslab qolishdan qaytaradi.

**Bernard Verber**

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlarni tiklashda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishini e'lon qildi. O'tgan yillar davomida respublikamizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi, xalqimiz ongi va hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi.

XXI asr aloqa asri deb atalishi bejiz emas, chunki internet hozirda yetakchi aloqa vositasiga aylandi. U hamma uchun mavjud. Internet yordamida odamlar ko'plab shaxsiy muammolarini hal qilishni o'rgandilar. Bugungi kunda u kasbiy va ijtimoiy faoliyatda ajralmas hisoblanadi. Internet kundalik hayotni o'zgartiradi, odamlar o'rtaсидagi muloqotning tabiatiga ta'sir qiladi, vaqt va makon chegaralarini kengaytiradi.

Internet texnologiyalari yordamida ochiq muloqot tamoyillari asosida yangi jamoalar yaratiladi, dam olish, muloqot qilish uchun yangi imkoniyatlар tufayli haqiqiy odamdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan virtual "men"ning yangi tasvirlari shakllanadi. Bu holat yosh bolalarning internetdan kattalar kabi faol foydalanuvchiga aylanishiga ham olib keladi. Ammo, qiziqarli imkoniyatlardan tashqari, internet tarmog'i turli xil manbalardan keladigan va har doim ham ishonchli bo'limgan katta hajmdagi ma'lumotlarning bir zumda katta tezlikda tarqatilishi va u haqida tezkor fikr-

mulohaza yuritish zarurati bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, shuni ham tan olishimiz kerak, bu kabi muammolar bugungi kunda raqamli muhitda shaxsiy ishonchsizlik bilan bog'liq muammolar, virtual makonda axborot jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi bilan bog'liq.

## MASALANING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Amerikalik olim, tilshunos professor, Xomskiy iyerarxiyasi deb nomlangan rasmiy tillar tasnifi muallifi shunday degan edi: "Odamlar bilan muloqot qilish, ularni ko'z o'ngingizda ko'rish boshqa narsa, javoban bir qator belgilarni qabul qilib, klaviaturani taqillatish boshqa narsa. Bunday aloqasiz va mavhum munosabatlarning jonli bevosita muloqotga zarar yetkazishi odamlarning xarakteriga yoqimsiz ta'sir ko'rsatishidan qo'rqaman. Ularda odamiylik yo'qoladi".

"Ijtimoiy tarmoqlarda insoniyat ko'pchilik uchun yagona va bitta "markazlashtirilmagan" asab tizimini qo'lga kiritdi. Ijtimoiy tarmoqlar – bu foydalanuvchi tomonidan emas, balki kod egalari tomonidan tartibga solinadigan markaziy asab tizimidir" deya e'tirof etadi Nikolay Nikonov. Evgeniy Vodolazkin esa, "Yoshlikda aniq va tezkor javoblar talab qilinadi. Agar siz ularni kitobdan emas, internet tarmog'ining biron-bir joyidan topsangiz ma'lum vaqt o'tishi bilan, tarmoq va kitob juda boshqacha tarzda to'yinganligi ayon bo'ladi: farq urug' va non o'rtaсидagi farq bilan bir xil" deb hisoblaydi[3].

В экспертной практике проведения исследований встречаются различные неисправности тормозной системы легковых автомобилей. Среди наиболее часто встречающихся, возникших до ДТП, можно отметить наличие заглушенности части контура неисправных за-

счет износа тормозных накладок, колесных тормозных механизмов, разгерметизации рабочих тормозных цилиндров, разрушение тормозных шлангов.

В качестве примера приведу случай из моей экспертной практики, связанный с установлением технического состояния рабочей тормозной системы автомобиля. Так, 15 декабря 2010 года в Самаркандское межобластное отделение РЦСЭ им. Х.Сулаймановой при Минюсте Республики Узбекистан из РОВД Ақдарынского района Самаркандской области поступило постановление следователя Б.Р.Маликова для производства судебной автотехнической экспертизы, в котором на разрешение экспертизы были поставлены вопросы о необходимости установления работоспособности рабочей тормозной системы автомобиля марки “ВАЗ-21033” гос. номер 14 X 7534 и при наличии неисправностей, установления причин и времени их возникновения. В результате исследования рабочей тормозной системы представленного на исследование автомобиля марки “ВАЗ-21033” гос. номер 14 X 7534 (фото 1) было установлено, что исследуемый автомобиль оснащен рабочей тормозной системой с гидравлическим приводом и раздельными контурами для торможения передних и задних колес. Все видимые узлы, детали тормозной системы автомобиля на месте, правильно смонтированы и надежно закреплены. На момент осмотра следов подтекания тормозной жидкости не имеется. Тормозная жидкость в подпитывающем бачке главного тормозного цилиндра имеется, ее уровень располагается на расстоянии около 40 мм от

верхней кромки заливного отверстия (фото 2). Тормозная педаль автомобиля ВАЗ-21033 гос. номер 14 X 7534 располагается на расстоянии около 170 мм от полика кабины и ее свободный ход составляет около 20 мм (рекомендуется 5-8 мм), при дальнейшем нажатии на нее она останавливается на расстоянии около 50 мм от полика. В связи с отсутствием на момент осмотра АКБ (аккумуляторной батареи) и неработоспособности рулевого управления автомобиля ВАЗ-21033 гос. номер 14 X 7534 проверка работоспособности рабочей тормозной системы автомобиля производилась путем поочередного вывешивания передних и задних колес на домкрате, и однократного нажатия на тормозную педаль при каждом из вывешенных на домкрате колес. При этом установлено, что при нажатии на тормозную педаль они затормаживаются – блокируются (кроме задних колес) и не поворачиваются от приложения значительного усилия рук, усиленных рычагом – монтировкой длиной около 50 см, а при отпусканье тормозной педали они вновь проворачиваются. В дальнейшем для установления причины незатормаживаемости задних колес автомобиля ВАЗ-21033 гос. номер 14 X 7534 производилось его снятие с места крепления и осмотр трубопроводов, подводящих тормозную жидкость к тормозному механизму колеса. При осмотре главного тормозного цилиндра автомобиля обнаружено следующее: в главном тормозном цилиндре, ведущем трубопроводе, подводящем тормозную жидкость к задним тормозным механизмам, имеется заглушка, т.е. он забит изношенными кусками тряпочного материала






Фото 3.



Фото 4.

(фото 3). При осмотре рабочих поверхностей тормозных дисков, тормозных механизмов и накладок передних колес видно, что они чистые, сухие и незамасленные (фото 4). Анализ результатов проведенных исследований рабочей тормозной системы автомобиля ВАЗ-21033 гос. номер 14\_X\_7534, привел к выводу о том, что на момент экспертного осмотра и проверки работоспособности она находилась в неисправном состоянии. Неисправность рабочей тормозной системы данного автомобиля заключалось в заглушении ведущего трубопровода, подводящего тормозную жидкость к тормозным механизмам задних колес от главного тормозного цилиндра автомобиля. Эта неисправность рабочей тормозной системы имелаась и до ДТП, она образовалась из-за несвоевременного и некачественного технического обслуживания автомобиля ВАЗ-21033

гос. номер 14\_X\_7534. Результаты данного исследования в дальнейшем могут позволить следователю установить наличие причинной связи между отсутствием торможения задних колес автомобиля и возникновением происшествия.

Таким образом, проведение экспертных исследований рабочих тормозных систем автомобилей является очень важным и достаточно трудоемким процессом, который при его качественном проведении с использованием всех имеющихся методов исследований позволяет определить техническое состояние тормозной системы автомобиля перед происшествием, что в свою очередь позволит органам следствия и суду дать объективную и всестороннюю оценку выявленным обстоятельствам и в конечном итоге выяснить истинные причины, приведшие к возникновению происшествия.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Аринин И.Н. Диагностирование технического состояния автомобиля. / И.Н. Аринин. - М.: Транспорт, 1978. - 176 с.
2. Вишняков Н.Н. Исследование и расчет современных пневматических тормозных приводов автомобилей. / Н.Н. Вишняков: учебное пособие. - М.: МАДИ, 1979. - 67 с.
3. Гернер В.С. Исследование режимов контроля эффективности действия тормозных механизмов автомобиля: Дис. канд. техн. наук / Е.В.Герц. - Харьков, 1970. - 174 с.
4. Кокорев Г.Д. Прогнозирование изменения технического состояния тормозной системы образца мобильного транспорта в процессе эксплуатации / Г.Д.Кокорев, И.А.Успенский, Е.А.Панкова, И.Н.Николотов, С.Н.Гусаров / Переработка и управление качеством сельскохозяйственной продукции: доклады Международной научно-практической конференции 21-22 марта 2013г. - Минск: Изд-во БГАТУ, 2013. - С. 197-199.
5. Шлегель О.А. и др. Диагностирование износа деталей автомобиля при эксплуатации / Машиностроитель. 2002. №1. - С. 23-29.

## ANNOTATSIYA

# INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA SUD- IQTISODIY EKSPERTIZA VAZIFALARI

***UROZMATOV***

***Shavkat Mannonovich,***

***X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining  
Sud iqtisodiy ekspertizasi bo‘limi  
mudiri***

***MUXITDINOV***

***Timur Sadretdinovich,***

***X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining  
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti  
bosh ilmiy xodimi***

Ushbumaqoladaintellektualmulkushunchasi, uning obyektlari va sud-iqtisodiy ekspertiza nuqtayi nazaridan hal etiladigan masalalar doirasi yuzasidan nazariy fikrlar keltirilgan. Har bir tadbirkor va muallif intellektual mulk huquqi bilan tanish bo‘lishi, intellektual faoliyat natijasida yaratilgan nomoddiy ne’matlarni qonuniy himoya qilishni bilishi lozim, chunki hech kim o‘z ixtirosi yoki nomoddiy aktividan boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanib, daromad olish ehtimolidan himoyalanmagan. Bunday holatlarda intellektual mulk obyekti egasiga jiddiy zarar yetkaziladi, lekin bunday holatlarga qonuniy yo‘l bilan o‘z vaqtida javob qaytarish moliyaviy foyda keltirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** intellektual mulk, yetkazilgan zarar, intellektual mulk obyektlari, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, da’vo arizasi, litsenziya, tovar belgisi, mualliflik.

## АННОТАЦИЯ

В статье приведены теоретические представления о понятии интеллектуальной собственности, ее объектах и круге вопросов, подлежащих решению с точки зрения судебно-экономической экспертизы. Каждый предприниматель и автор должен быть знаком с правами интеллектуальной собственности, знать правовую защиту нематериальных благ, созданных в результате интеллектуальной деятельности, поскольку никто не застрахован от незаконного использования его изобретения или нематериального актива другими лицами и от возможности получения ими дохода. В таких случаях серьезно страдает владелец объекта интеллектуальной собственности, однако своевременное реагирование на такие случаи в законном порядке поможет принести финансовую выгоду.

**Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, ущерб, объекты интеллектуальной собственности, Гражданский кодекс Республики Узбекистан, иск, лицензия, товарный знак, авторство.

## ANNOTATION

This article presents theoretical ideas about the concept of intellectual property, its objects and the range of issues to be resolved from the point of view of forensic economic examination. Every entrepreneur and author should be familiar with intellectual property rights and know the legal protection of intangible benefits created as a result of intellectual activity, since no one is immune from the illegal use of his invention or intangible asset by others and from the possibility of them receiving income. In such cases, the owner of the intellectual property suffers greatly, but timely response to such cases in a legal manner will help bring financial benefits.

**Key words:** intellectual property, damage, intellectual property, Civil Code of the Republic of Uzbekistan, claim, license, trademark, authorship.

Intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanishdan olingan foya –intellektual mulk obyekti egasiga yetkazilgan zarar. Yetkazilgan zarar va uni qoplash masalalari fuqarolik huquqiga taalluqli masalalardir. Umumiy qoidaga binoan, yetkazilgan zarar to‘la miqdorda qoplanishi kerak. Yetkazilgan zarar intellektual mulk obyekti huquq egasiga tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida, agar bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda tegishli sndlarning qarorlari asosida qoplanadi. Qonunchilikka muvofiq intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni buzish natijasida intellektual mulk obyekti huquq egasiga yetkazilgan zararni qoplash ushbu qonunbuzilishlarni sodir etgan shaxslar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqni buzish natijasida yetkazilgan zarar “haqiqiy zarar” va “boy berilgan foya” kabi turkumlarga bo‘linadi. Haqiqiy zarar deganda, huquq egasi tomonidan o‘zining buzilgan huquqlarini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlar tushuniladi. Boy berilgan foya esa – huquq egasi tomonidan odatdagagi fuqarolik muomalasi sharoitlarida, agarda uning huquqlari buzilmaganda olishi mumkin bo‘lgan, lekin olinmagan daromadlaridir.

«Intellekt» lotincha so‘z bo‘lib, aql degan ma’noni anglatadi. Intellektual faoliyat o‘zining xarakteri bo‘yicha insonning eng oliy ijodiy faoliyati hisoblanadi. Insonning ijodiy faoliyati uning kundalik odatdagagi ongli faoliyatidan tubdan farq qiladi. Insonning odatdagagi kundalik ongli faoliyati ko‘nikmalar asosida, takror-takror ravishda (uy qurish, ovqat pishirish, o‘tin yorish va h.k.) amalga oshiriladigan va yakuniy natijasi avvaldan ma’lum bo‘lgan faoliyatdir. Bunday kundalik faoliyat reproduktiv (takroriy mahsulli) faoliyat hisoblanadi, chunki bunda formal mantiq va boshqa qoidalari, ko‘nikmalar asosida tayyor g‘oyalar, mahsulotlar qayta-qayta, takroriy amalga oshiriladi. Bunda avvaldan ma’lum natijalar vujudga keladi, yangi natijaga olib kelmaydi. Agarda har bir hayotiy muammoni

yechishda ijodiy yondashuv bo‘lmaganda edi, insoniyat yaratilgan davrida qotib qolgan, hamon g‘orlarda yashagan bo‘lar edi. Tevarak atrofimizni qurshagan barcha predmetlar ijodiy faoliyat, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasi hisoblanadi. Aslini olganda hozirgi zamon kishisi, uning ma’naviyati, kasb-kor ko‘nikmasi, mahorati, madaniy va bilim saviyasi intellektual faoliyat orqali shakllangan. Boshqacha aytganda, tahlil, fikrlash, mulohaza qilishga asoslangan ijodiy faoliyat natijasida fan, texnika, adabiyot va san’at sohasida yangi, original (ohariy), unikal (beqiyos) mahsulotlar yaratiladi.

Intellektual mulk – inson aqliy va ijodiy faoliyatni yaratilgan va ma’lum bir qiymatga ega obyektlardir. Boshqacha qilib aytganda, intellektul mulk – nomoddiy mahsulot hisoblanib, kelgusida undan foyda olish maqsadida qonunda nazarda tutilgan tartibda qayd etiladigan obyektlar. Bizning misolimizda, “A” ishlab chiqaruvchi korxona zarar ko‘rgan. Dori vositasining nomini “X” brendi bilan tegishli tartibda Intellektual mulk agentligida ro‘yxatdan o‘tkazgan, xuddi shu tarkibga ega bo‘lgan dori vositasini xuddi shu nom bilan boshqa, “B” ishlab chiqaruvchi korxona 10 000 dona ishlab chiqargan va sotuv operatsiyasini amalga oshirgan. Misol uchun, agar “A” korxona 10 000 dona “X” dori vositasini sotganida, korxonaga sakkiz million so‘m tushgan bo‘lardi. Ko‘rinib turibdiki, korxona potensial foydani yo‘qotdi.

Haqiqiy hayotda, yo‘qolgan foydani olish bir necha oy davom etadigan jarayon bo‘lib, u kamdan-kam hollarda muvaffaqiyat bilan tugaydi. Agar aybdor to‘lashga tayyor bo‘lsa va to‘lanadigan summaga rozi bo‘lsa, hech qanday muammo bo‘lmaydi. Agar aybdor unga hech qanday aloqasi yo‘qligini yoki to‘lov juda katta ekanligini aytса, bu boshqa masala. Keyin sudga murojaat qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasida intellektual mulk obyektlari keltirilgan. Intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san’at asarlari;
- ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari;

– elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;

– ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

– seleksiya yutuqlari;

– oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

– firma nomlari;

– tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari);

– tovarlar chiqarilgan joy nomi;

3) intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida maxsus obyektlari hisoblanadi. Ashyolar, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqa fuqarolik huquqlaridan farqli ravishda intellektual mulk obyektlari quyidagi xususiyatlarga ega:

a) ko‘p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ashyoviy holatda emas, g‘oyaviy ko‘rinishda – bilimlar, g‘oyalari va axborotlar holatida mavjud bo‘ladi. Albatta, muayyan g‘oyalari, bilimlar tizimi moddiy eltuvchida, masalan, kitoblar, elektron disklar, maketlar, qurilmalarda ifodalanishi mumkin, biroq biribir, g‘oyalari, bilimlar birlamchi, ularning moddiy tashuvchisi ikkinchi darajali bo‘ladi va shu sababli huquqiy munosabatlar mohiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsata olmaydi;

b) bilimlar, g‘oyalari ko‘rinishidagi intellektual mulk obyektlariga nisbatan odatdagи moddiy ashyolarga bo‘lgandek egalik qilish va hukmronlik qilish mumkin emas;

d) ko‘p hollarda ushbu obyektlardan bir vaqtning o‘zida cheksiz, nomuayyan darajadagi shaxslar foydalanishlari mumkin;

e) deyarli barcha intellektual mulk obyektlariga nisbatan Fuqarolik kodeksining 164-moddasida nazarda tutilgan mulk huquqining mudatsizligi to‘g‘risidagi qoidasi taalluqli emas (oshkor etilmagan axborotlarga nisbatan huquqlar bundan mustasno);

f) qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan muayyan muddat o‘tishi bilan intellektual mulk obyektlari subyektlarining muayyan intellektual

mulk obyektiga nisbatan mulkiy (mutlaq) huquqlari bekor bo‘ladi;

g) intellektual mulk obyektiga nisbatan huquq egasining huquqlarini vindikatsiyaviy (lot. vindicatio – talab qilib olish, vindikatsiya – mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish) da’vo qo‘zg‘atish orqali himoya qilish samarali emas;

h) intellektual mulk obyektiga nisbatan huquq egasining vakolatlari mazmuni mulk huquqi bilan emas, balki mutloq huquq bilan belgilanadi;

i) intellektual mulk huquqining amal qilishi hudud bo‘yicha chegaralangan;

j) ijodiy faoliyat natijasi bo‘lgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy huquqlar tizimi amal qiladi va boshqa huquq sohiblari va obyektdan foydalanuvchilar ularga rioxaya qilishlari shart.

Fuqarolik muomalasida millionlab turli subyektlar ishtirok etadilar va bir vaqtning o‘zida milliardlab turli tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilinadi. Shu sababli ham subyektlarni, ham ularning tovarlari va xizmatlarini identifikatsiyalashtirish (farqlash, ajratish) zarurati mavjud, bu esa boshqalar uchun mo‘ljal vazifasini o‘taydi, aks holda subyektlar o‘rtasida

normal munosabatlarni o‘rnatib bo‘lmaydi. Ushbu farqlash belgilari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, ular ishlab chiqargan tovarlar, bajargan ishlar va ko‘rsatgan xizmatlarni individuallashtirish vositalari bo‘lib hisoblanadi.

Huquq egasi o‘zining intellektual mulk obyektiga bo‘lgan mutlaq huquqi buzilishi natijasida yetkazilgan zararni to‘liq qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Bunda huquqbazar intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlarni buzishi natijasida foyda olgan bo‘lsa, huquq egasi undan zarar miqdorini olingan daromaddan kam bo‘lмаган miqdorda qoplashini talab qilishi mumkin.

Intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqni buzganlik natijasida yetkazilgan zarar miqdori huquq egasi va huquqbazar o‘rtasidagi kelishuvga binoan aniqlanadi.

Bunda huquq egasi va huquqbazar o‘rtasida o‘zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda yetkazilgan zarar miqdori sud tartibida belgilanadi.

Zararlar quyidagi formula bo‘yicha belgilanadi:

$$U = RU + MB,$$

bu yerda:



U – zararlar;

RU – huquq egasining buzilgan huquqni tiklash bo‘yicha haqiqiy yoki zaruriy xarajatlari (sud xarajatlari, turli turdag'i ekspertizalarni o‘tkazishni qo‘shgan holda);

MB – huquqbuzarning daromadlari yoki huquq egasi ololmagan daromadlar bilan aniqlanadigan boy berilgan foya.

Huquqbuzarning daromadlari bilan tavsiflanuvchi boy berilgan foya quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$MB1 = Cont * Rent,$

bu yerda:

MB1 – boy berilgan foya;

Cont – baholash obyektiga bo‘lgan huquqlarni buzgan holda fuqarolik muomalasiga kiritilgan kontrafakt mahsulotning, ko‘rsatilgan xizmatning va bajarilgan ishlarning qiymat ifodasidagi miqdori;

Rent – bir turdag'i mahsulotning (ko‘rsatilgan xizmatning) sotuvlari rentabelliligi.

Intellektual mulk obyektlari o‘z-o‘zicha huquqiy muhofaza qilinmaydi, balki amalda ushbu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo‘lgan shaxslarning huquqlari (mualliflarning shaxsiy huquqlari, mutlaq huquqlar egalarining huquqlari, litsenziya bo‘yicha foydalanuvchilar huquqlari, avvaldan foydalanuvchilarining huquqlari va sh.k.) huquqiy muhofaza qilinadi.

O‘zbekistonda intellektual mulk sohasida sud iqtisodiy ekspertizasi – yangi ekspertiza turi hisoblanib, 2023–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2021-yildagi PF-6256-son Farmoniga asosan amaliyotga joriy etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ishchi dastur shakllantirilgan va tasdiqlangan. Hozirgi kunda bu yo‘nalishda maxsus adabiyotlar, amaldagi qonunchilik va xorijiy tajriba o‘rganilmoqda.

*Intellektual mulk ekspertizasi qachon zarur hisoblanadi?*

**Intellektual mulk ekspertizasi** – intellektual mulk obyektlari (kitoblar, ixtiolar, ilovalar, musiqalar, videoroliklar va h.k.) himoyasi muzokaralari bo‘yicha sud ishining bir qismi.

Ekspertiza obyekt tasnifini aniqlaydi hamda intellektual huquq buzilishi holati va faktlarini belgilaydi. Aynan intellektual mulk ekspertizasi yordamida muhofaza qilinuvchi obyektni noqonuniy ishlatisch natijasida mualliflik huquq

egasiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash mumkin.

Qachon ekspertiza muhim hisoblanadi? Intellektual mulk ekspertizasi katta mablag‘ talab etuvchi xizmat turi, chunki uni ixtisoslashgan mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘tkaziladi. Shuning uchun intellektual mulk huquq egasiga huquq buzish oqibatida katta moliyaviy zarar yetkazilgan bo‘lsa va buni isbotlash istagi bo‘lgan holatlarda aktual hisoblanadi.

Ba’zan ekspertiza o‘tkazish sababi moliyaviy zarar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lmagan holatlар bo‘lishi mumkin: misol uchun, ishbilarmonlik obro‘sini himoya qilish.

Sud har doim ham da’voni qondirmaydi. Ba’zi hollarda muvaffaqiyatga erishish juda qiyin yoki hatto imkonsizdir:

- intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalangan holda sotilgan mahsulot bo‘yicha tasdiqlovchi hujjatlari dalillar yo‘qligi;

- qonunning yoki sharhnomaning buzilishini isbotlashning mumkin emasligi, shu jumladan foya yetishmasligiga olib kelgan sabab-oqibat munosabatlari;

- ayblanuvchi foydasiga rad etib bo‘lmaydigan dalillar;

- intellektual mulk obyekti dan foydalanishning yetarli asoslanmaganligi yoki asossiz da’vosi. Da’vo muddati intellektual mulk obyekti egasi huquqi buzilishi va zarar faktini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan paytdan boshlanadi.

*Intellektual mulk obyektlarini ekspertizadan o‘tkazish uchun huquqiy baza*

Mutaxassislar ekspertizani bir necha bosqichda o‘tkazishadi, ulardan biri – tadqiqot o‘tkazish yoki “intellektual mulk huquq ekspertizasi” uchun huquqiy bazani tekshirish. Intellektual mulk obyekti davlat himoyasi ostidaligini va unga ma’lum shaxs yoki tashkilot huquqi mavjudligini ekspertlar tekshiradi.

Bahsli obyektga mutlaq huquq aniq bir shaxs yoki tashkilotga tegishlilagini ekspert tasdiqlaganidan so‘ng, huquqbuzarlikni tasdiqlovchi faktlar yig‘imi boshlanadi. Intellektual mulkdan noqonuniy foydalanish faktini komissiya aniqlaydi va yetkazilgan zarar miqdorini belgilaydi.

*Intellektual mulk ekspertizasi hal etadigan masalalar*

- Intellektual faoliyat natijasi hisoblanuvchi obyektning foydali tavsifi qanday?
- Mualliflik g'oyasining qanday qismi o'zlashtirilgan yoki nusxalangan, qanday hajmda?
- Kashfiyotdan noqonuniy foydalanish natijasida muallifga qanday zarar va qancha hajmda yetkazilgan?

Bu turdag'i ekspertizalar asosan intellektual mulk sohasidagi mutaxassislarini jalb etgan holda kompleks amalga oshiriladi.

*Intellektual mulk sohasida sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur hujjatlar:*

- Intellektual mulk obyektini muhofazalovchi hujjat (patent, qayd guvohnomasi);
- Litsenzion va mualliflik shartnomalari;
- Intellektual mulk obyekti huquqi egasi – tashkilot moliyaviy hisoboti (balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot);
- Tadqiqot qilinayotgan intellektual mulk obyektiga (savdo belgisi, asar, ixtiro va h.k.) tegishli mahsulotlarni (ish, xizmatlar) sotishning joriy hajmi va prognoz ko'rsatkichlari haqida ma'lumot;

- Tadqiqot qilinayotgan intellektual mulk obyekti bo'yicha qalbaki mahsulot sotish haqida ma'lumot;
- Intellektual mulk obyektini yaratishga va marketingga yo'naltirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot;
- Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lganda boshqa hujjatlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, intellektual mulk sohasida iqtisodiy sud ekspertiza – yangi yo'nalish bo'lib, amaliyotga tatbiq qilishdan oldin ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, O'zbekiston qonunchiligi va iqtisodiy ekspertizalar amaliyotidan kelib chiqib, mukammal uslublarni tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Asosiy tadqiqotimiz maqsadi huquqiy ongni oshirish bilan bog'liq bo'lib, ularda intellektual mulk nima, qanday hollarda undan noqonuniy foydalanganlik uchun yetkazilgan zararni hisoblash tartibi, qanday hujjatlar talab etilishi haqida umumiylazariy fikrlar ustida ish olib borilmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 23.06.2023-yil №19-son Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi 20.07.2006-yil O'RQ-42-son Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi 2002-yil 29-avgust, 397-II-son Qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995. (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son);
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 10.06.2021. ISBN: 978-9943-5620-6-6.

## ANNOTATSIYA

# KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O'ZGARTIRILGAN OVOZNING XUSUSIYATLARI

*ATANIYAZOV*

*Doniyor Shonazarovich,*

*Sud-fonografiya va sud kompyuter  
texnikaviy ekspertizalar  
ilmiy-tadqiqot bo'limi bosh  
ilmiy xodimi*

Ushbu maqolada so'zlovchi ovozining ba'zi xususiyatlarini (parametrlarini) o'zgartirish uchun kompyuter texnikasidan foydalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi va bu holat sud-fonoskopik ekspertiza jarayonida so'zlovchi shaxsiyatining ayrim xususiyatlarini diagnostika qilishni sezilarli darajada murakkablashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Inson ovozining kompyuter-texnik vositalar yordamida o'zgorganligini o'rganish bo'yicha ikki guruhga bo'linadigan usullari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** sud fonoskopik tadqiqot, so'zlovchining xususiyatlari, ovozni niqoblash, ovoz balandligini o'zgartirish.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности использования компьютерных технологий для изменения некоторых особенностей (параметров) голоса говорящего. Показано, что такая ситуация может существенно затруднить диагностику некоторых особенностей личности говорящего в процессе судебно-фоноскопической экспертизы. Представлены две группы методов исследования изменений голоса человека с помощью компьютерно-технических средств.

**Ключевые слова:** судебно-фоноскопическое исследование, характеристики заявителя, маскировка звука, изменение громкости.

## ANNOTATION

This article examines the features of using computer technology to change some features (parameters) of the speaker's voice and shows that this situation can significantly complicate the diagnosis of some features of the speaker's personality in the process of forensic phonoscopic examination. Two groups of methods for studying changes in the human voice with the help of computer-technical tools are presented.

**Key words:** forensic phonoscopic research, characteristics of the applicant, sound masking, change the volume.

Shaxsning tashqi qiyofa xususiyatlarining sud-fonoskopik tekshiruvi sud-fonoskopik ekspertiza turlaridan biri bo'lib, nutq fonogrammasi yordamida turli shaxsiy ko'rinish xususiyatlarini diagnostika qilish masalalarini hal etishga qaratilgan.

So'zlovchining tashqi ko'rinish xususiyatlariga quyidagi kabi xususiyatlarni kiritamiz:

- So'zlovchining jinsi, yoshi, anatomik va fiziologik xususiyatlari;
- tilni bilish darajasi (o'rganilayotgan so'zlovchi fonogrammasi bo'yicha);
- hududiy mansublik;
- so'zlovchining hissiy holati;
- uning psixofiziologik holati (normadan og'ish, patologiya);
- bilim darajasi va nutq madaniyati;
- ijtimoiy-madaniy holat.

Afsuski, axborot texnologiyalari taraqqiyotining voz kechib bo'lmas darajadagi imkoniyat va qulayliklariga qaramay, uning salbiy ta'sirlarini ham inkor etib bo'lmaydi.

Masalan, so'zlovchining nutqini ataylab buzib, undan to'g'ri ma'lumot olish, ovoz egasini identifikatsiya qilish va shu kabi masalalar yuzasidan o'tkaziladigan tadqiqotlarni qiyinlashtirish, aniqlash imkoniyatni kamaytirish yoxud yo'qqa chiqarish maqsadida qilingan o'zgartirishlar aynan zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlari vositasida amalga oshiriladi.

Ovozli yozuvdagagi nutqning ayrim xususiyatlariga tashxis qo'yish muammolarini ham doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi juda ko'p kompyuter-texnik vositalar mavjud.

Ushbu dasturiy-texnik vositalarning aksariyati, birinchi navbatda, so'zlovchining jinsi va yoshini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi, shu sababli ushbu maqolada aynan ushbu turdagi vositalar asosidagi muammolarga e'tibor qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, aksariyat hollarda, qachonki fonogrammadagi so'zlovchining jinsi haqida gap

borganda, "Shaxsning jinsiga bog'liq, individual xususiyatlari orqali identifikatsiya qilish to'plami" degan ma'noni anglatuvchi "seksolekt" tushunchasi qo'llaniladi.

So'zlovchi ovozini jins bo'yicha o'zgartirish funksiyasiga ega bo'lgan juda ko'plab dasturiy vositalar mavjud, masalan, "Voxal Voice Changer", "AV Voice Changer Diamond", "Audacity", "Поддельный голос" (Qalbaki ovoz), "Adobe audition", "Wave pad sound editor" kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan dasturiy vositalar birinchi navbatda faqat shaxsiy kompyuterlar operatsion tizimi muhitida ishlatish uchun yaratilgan, ammo zamonaviy mobil telefonlar va smartfonlar uchun ovozni o'zgartiruvchi ilovalar ham mavjud va istalgan foydalanuvchi ularni internet tarmog'i orqali osongina yuklab olishi hamda xohlagan nutq yozuvini o'zgartirish uchun foydalanishi mumkin. Ushbu dasturlar so'zlovchining jinsini, yoshini osongina o'zgartirishga imkon beradi va shu bilan jinoyatchilar o'z shaxsini yashirishiga yordam berishi mumkin.

So'zlovchining jinsi yoki yoshini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan aksariyat kompyuter-texnikaviy vositalar asosan bir xil algoritm bo'yicha ishlaydi: ular birinchi navbatda, insonning akustik qobiliyatlarining funksional-dinamik majmuasini tashkil etuvchi ovozning ohang chastotasini oldindan o'rnatilgan dasturlar asosida avtomatik ravishda o'zgartiradilar.

Bunday ovozni o'zgartiruvchi dasturlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Nutq signalini real vaqt rejimida o'zgartiruvchi, ya'ni ovozni yozib olish jarayonida yozish kanaliga kirishdan qayta ishlovchi vositalar.

2. Post-processing metodi orqali ovozni o'zgartiruvchi vositalar, bunda, oldindan yozib olingan nutq signalini o'zgartirish jarayoni amalga oshiriladi.



Birinchi guruhgaga kiruvchi vositalar, so'zlovchining ovozini bevosita talaffuz qilish vaqtida nutq signalini to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni real vaqt rejimida qayta ishlagan holda yozish yoki tarmoq orqali uzatish amalga oshiriladi, masalan, maxsus ilovalar yordamida telefonda gaplashayotgan paytda yoki Viber, Skype kabi ovozli yoki video-qo'ng'iroq uchun mo'ljallangan ilovalar orqali o'zgartiradigan dasturiy vositalar, shuningdek, tinglovchiga ma'lum bir xabarni yuborishda o'zini oshkor qilmaslik uchun tayyorlangan ovozlarni yozish jarayonida ham ishlatalidigan qo'shimcha uskunalar to'plami kiradi. Ushbu usuldan so'zlovchining shaxsini yashirish maqsadida foydalaniladi.

Real vaqt davomida ovozni o'zgartirish dasturidagi jarayon gitara effektlari protses-sorlarida ishlatalidigan algoritmning analogi hisoblanadi.

Ushbu algoritmning ishslash sxemasi quyidagicha:

Dastlab nutq signali analog-raqamli konvertor (ARK) yordamida raqamli kodga aylanadi. Keyin protsessor ushbu kodni algoritmgaga muvofiq qayta hisoblab chiqadi. Protssessor chiqishida raqamli kod raqamli-analog konvertor (RAK) orqali elektr signaliga qayta aylantiriladi.

Bunday dasturiy ta'minotdan foydalanganda ko'pincha allaqachon o'zgartirilgan nutq signalini uzatishda kechikishlar sodir bo'ladi. Ovozni yozishdan oldin yoki telefonda gaplashishdan oldin foydalanuvchi dasturda ovozini qanday o'zgartirishni, asosiy ohang chastotasini qancha kamaytirish yoki oshirishni tanlaydi va shundan keyingina mos ravishda yozishni yoki gaplashishni boshlaydi.

Bunday fonogrammalarini o'rganishda qiyinchilik shundaki, fonogrammaga kiritilgan nosituatsion o'zgarishlar belgilari shakllanmaydi, aksincha, uzlusiz fonogramma yaratiladi, shu sababli ushbu nutq yozuvi bilan tadqiqot o'tkazish nostandard jarayon hisoblanadi va identifikatsiya masalasini yanada murakkablashtiradi.

Ikkinci guruhgaga nutq signalini qayta ishslashni amalga oshiradigan dasturlar kiradi, ya'ni har qanday qurilma yordamida avvaldan yozib olingen fonogrammaga o'zgarishlar kiritiladi. Bunda asosiy maqsad so'zlovchining seksolekti va yoshini o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning ovozi yozilgan fonogramma

qismlarga bo'lib chiqiladi hamda har bir qismga turli usullar va dasturiy ta'minot yordamida alohida ishlov beriladi va yakuni o'zgargan ovoz yuzaga keladi.

Shunday qilib, kiritilgan o'zgartirishlar natijasida bir kishining ovozi yozilgan fonogrammadan turli xil ovozli bir nechta fonogrammalar olish mumkin. Bunday hollarda mutaxassis nutq signalining akustik xususiyatlarining o'zgarishi belgilarni izlash bilan bir qatorda, fonogrammani tahrirlash belgilarinining mavjudligiga ham e'tibor berishi kerak.



So'zlovchining jinsini va uning yoshini o'zgartiradigan yuqoridagi dasturlarning ikkala guruhi ham bir xil algoritmgaga asoslanadi, unga ko'ra nutqning qisqa qismlarini cho'zish yoki siqish orqali ohang o'zgartiriladi.

Nutqning tabiiy sur'atini saqlab qolish uchun ohang pasayganda (bo'laklarni cho'zishda) ba'zi bo'laklar o'chiriladi, ohang kuchayganda (bo'laklarni siqishda) ba'zi bo'laklar takrorlanadi.

Ovoz tezligini saqlab qolgan holda chastotasining balandligini o'zgartirish jarayoni "pitch-shifting" deb ataladi va ingliz tilidan tarjima qilinganda "asosiy tonni o'zgartirish" degan ma'noni anglatadi.

Bunda "pitch-shifting" vaqtidagi ovozning chastotasi balandligini o'zgartirgandan keyingi yoki o'zgartirish jarayonidagi chastotalarining o'rnini tiklash maqsadida, ya'ni ovozning "sun'iy" eshitilishining oldini olish uchun va ovoz tabiiy chiqishiga erishish maqsadida formatni to'g'irlash algoritmi qo'llaniladi. Shu tarzda ovoz chastotasining ohangi o'zgartiriladi, lekin formantli chastota o'zgartirishsiz qolishiga erishiladi.

Tovushning oldini olish uchun uni "tabiiy" deb qabul qilish uchun, tovush balandligini o'zgartirishdan keyin yoki o'zgartirilganda

formant chastotalarining o'rnnini tiklaydigan formatni tuzatish algoritmi qo'llaniladi.

Ovozning "sun'iy" jarangi hosil bo'lmasligi uchun hamda "tabiiy" eshitilishini ta'minlash uchun formatni to'g'rilash algoritmi qo'llaniladi va bu to'g'irlashda tovush balandligini o'zgartirgandan keyin yoki o'zgartirilganda formant chastotalarining o'rnnini tiklaydi. Shunday qilib, asosiy chastotani o'zgartiriladi.

Professor R.K. Potapovaning tadqiqotlari natijalariga ko'ra [314-320], agar yozib erkak kishining ovozining spektridan 100 Gts dan 500 Gts gacha bo'lган chastota diapazonlari olib tashlansa, ayol kishining ovozli yozuvi (fonogrammadasi) shakliga aylanishi ma'lum bo'ldi.

Kompyuter-texnik vositalar yordamida o'zgartirilgan ovozni o'rganish sud-fonoskopik ekspertizaning murakkab va munozarali vazifasidir. Fonogrammaga yozilgan o'zgartirilgan ovozni instrumental o'rganishda hali ham bir qancha qiyinchiliklar mavjud bo'lganligi sababli, mutaxassislar amalda fonogrammaga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash uchun lingvistik usullardan foydalanadilar. Ma'lumki, nutq mahsulotining mazmuni va semantik qismi shaxsning bir qator xususiyatlarini tavsiflaydi va kompyuter-texnik vositalar yordamida ovoz qasddan o'zgartirilganda, nutqning mazmuni emas, faqat akustik xususiyatlari o'zgaradi.

Sud-fonoskopik ekspertizasini o'tkazish jarayoni nafaqaqt lingvistik tahlil, balki instrumental tadqiqotlarning turli usullar majmuasini o'z ichiga oladi. Natjada, tahlil qilishning instrumental usullaridan foydalanadigan mutaxassis ovozning ba'zi lingvistik xususiyatlari o'zgarmasligiga qaramay, kompyuter-texnik vositalar orqali so'zlovchingning jinsi va yoshini buzish uchun ishlataliganda ovozning o'zgarishi faktini aniqlay olishi kerak.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida o'zgargan ovozni aniqlash usullari mavjud emas, shuning uchun biz sud-fonoskopik ekspertizasining mavjud usullaridan qaysi birini kompyuter-texnik vositalar yordamida o'zgartirilgan ovozni o'rganishda qo'llash mumkinligini tahlil qilamiz.

Tovushning ba'zi xususiyatlarini o'zgartirish uchun kompyuter texnikasidan foydalanish faktiga tashxis qo'yishda fonogrammada noaniq o'zgarishlar bilan bog'liq akustik niqoblanish

mavjudligini ko'rsatadigan belgilarga e'tibor berish kerak.

Shunga qaramay, ovozning ataylab o'zgartirilishi taxmini bilan fonogrammani ekspertizadan o'tkazishning butun jarayoni fonogrammaga kiritilgan o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadigan belgilarni izlash bilan cheklanmaydi. Shuningdek, aniqlangan alomatlarning tabiatini va sabablarini aniqlash kerak bo'ladi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, zamonaviy dasturiy vositalar fonogrammaga kiritilgan o'zgarishlar izlarini yo'q qilish imkoniyatiga ega. Masalan, SoundForgedasturidatovushto'lqinining kerakli shaklini yaratish, tempni sozlash va asl saundtrekning spektral xususiyatlarini, tembrini va ovoz sifatini o'zgartirish, tahrirlash, o'tishlar izlarini olib tashlash mumkin, bu esa sud-fonoskopik ekspertizasi jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Birinchi va ikkinchi usullar bilan o'zgartirilgan fonogrammadagi ovoz audio-fayllarning xizmat ma'lumotlarini tahlil qilish orqali tekshirilishi mumkin, bunda audiofaylning ikkilik tuzilishi, uning metama'lumotlari va boshqa xizmat ko'rsatish xususiyatlari o'rganiladi. Bunda, tahlil "DUMP", "Exiftool", "WinHEX" kabi dasturlar yoki "Tiny Hexer" kabi o'n otillik tahrirlovchilar yordamida amalga oshiriladi.

Masalan, "DUMP" faylning tuzilishi haqida bat afsil hisobot beradi, unda fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxasi ekanligi haqida ma'lumot mavjud, shuningdek, fonogramma qaysi qurilmada va nima bilan yaratilganligini aniqlashingiz mumkin.

Instrumental tahlil jarayonida statistik va dinamik, melodik va spektral nutq xususiyatlarini o'rganish amalga oshiriladi.

Ovozni instrumental o'rganishning asosiy qoidalari ma'lum tovushlarni shakllantrishning umumiylar mehanizmlariga qaramasdan, ovozning spektral tarkibi har bir kishi uchun individual ekanligiga asoslanadi.

Instrumental tahlil jarayonida so'zlovchi nutqida namoyon bo'ladigan alohida tovushlar va tovush komplekslarining spektral-formant mikrostrukturasini amalga oshirish darajasida talaffuzning ongli ravishda amaliy nazoratsiz individual xususiyatlariga alohida e'tibor berilishi kerak.

Professor E.I. Galyashin, instrumental tahlil jarayonida o'rganilgan inson ovozining eng muhim akustik identifikasiya xususiyatlaridan biri bu formantlarning xususiyatlari: "formantlar chastotasining mutlaq va nisbiy qiymatlari, ularning amplitudasi va kengligi, tezligi, ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi" [3].

Ma'lumki, aynan unli tovushlar bir-biridan formant tuzilishi bilan farqlanadi, ular nutqning shakllanish davridagi ovoz yo'lining geometriyasiga bog'liq va buni inson ularni qulq bilan shunday ajratadi. Ma'lumki, "har bir tilning urg'ulangan tovushlarining dastlabki uchta formatli chastotasi (shartli ravishda belgilangan F1F2F3) qiymatlari diapazoni har bir ma'ruzachi uchun alohida va ushbu chastotalar diapazonidan ancha kengroq" [4, p. 81-104].


Bu ushbu chastotalar bo'shlig'ida ma'ruzachilarini farqlash uchun asos yaratadi. Dinamikning individualligi spektrning umumiy shakli, ya'ni spektral diapazonlardagi signal darajalarining nisbati bilan belgilanadi. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, formantlar ko'rsatilgan band munosabatlarini amalga oshirish usuli sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, formant chastotalarining aniq raqamli qiymatlari har bir kishi uchun individualdir, lekin shu bilan birga, formulalar orasidagi nisbiy masofa barcha odamlar uchun taxminan bir xil nisbatga ega, aks holda ular tomonidan aytilgan tovushlarni tanib olish imkonini mavjud bo'lmas edi.

Formant nisbatlari (F2/F1, F3/F1, F3/F2) faqat formantlarning qiymatidan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini hisobga olish kerak.

Fundamental ohang chastotasini o'zgartirish orqali kompyuter-texnik vositalar yordamida o'zgartirilgan ovozni o'rganish jarayonida nutq signalini tahrirlash va o'zgartirish jarayonida formantlar mutanosib ravishda o'zgarganligi aniqlangan, shuning uchun ularning nisbati o'zgarishsiz qoladi. Shu sababdan, asosiy ohang chastotasi o'zgarishiga qaramay, formantlarning nisbati kabi muhim identifikasiya xususiyati o'zgarmaydi deb taxmin qilish mumkin. Asosiy chastotani o'zgartirish algoritmidan foydalangan holda kompyuter-texnik vositalar yordamida so'zlovchining tashqi ko'rinishining ba'zi xususiyatlarini niqoblash ovozining barcha individual xususiyatlarini o'zgartirishga imkon bermaydi, bu esa lingvistik xususiyatlarni to'liq saqlab qolish bilan bir qatorda ovozning barcha xususiyatlarini o'zgartirishga imkon bermaydi va bu holatda ma'ruzachini identifikasiya qilish imkonini saqlanib qolishi mumkin.

Shunday qilib, hozirgi vaqtida kompyuter-texnik vositalar yordamida o'zgartirilgan ovozni o'rganishning maxsus usullari mavjud emasligiga qaramay, yuqorida ko'rsatilgan vositalardan foydalanan o'zgartirilgan xususiyatlar faktiga tashxis qo'yish va ma'ruzachini muvaffaqiyatli identifikasiya qilish mumkin.



**ADABIYOTLAR**

1. Потапова Р.К. Сексолект как комплексное гендерное понятие (об усложненном характере задачи определенияексолекта в судебной фонетике) // Материалы межд. конф. “Информатизация правоохранительных систем”. М.: Акад. МВД РФ, 2001. С. 314-320.
2. Bastien P. Pitch shifting and voice transformation techniques (TC Helicon, 2001). P.3. [Электронный ресурс] // Цифровая обработка сигналов [сайт]. [2007]. URL: <http://dsp-book.narod.ru/Pitch shifting.pdf> (дата обращения 01.10.2016).
3. Галышина Е.И. Судебная фоноскопическая экспертиза. М., 2001.
4. Сорокин В.Н., Цыплихин А.И., Верификация диктора по спектрально времененным параметрам речевого сигнала // Информационные процессы, электронный научный журнал. Т. 10. №2. 2010. С. 81-104. [Электронный ресурс] URL: <http://www.iip.ru/2010/10-2-2010.htm> (дата обращения 02.10.2016г.).

## ANNOTATSIYA

## ZAMONAVIY SUD EKSPERTIZA METODLARI

**MANSUROVA**

*Shohista Zohidjonovna,*

*X.Sulaymonova nomidagi*

*Respublika sud ekspertiza markazi*

*Tovarshunoslik ekspertizasi*

*bo'limi yetakchi eksperti*

Maqolada ekspertiza tadqiqotlarining zamonaviy uslubiyoti, uslubiy ekspert bilimlari darajasini farqlash kabi jihatlar batafsil ko'rib chiqilgan hamda sud ekspertizalarining turlichaligi bilan bog'liq uslubiy muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. Ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotining darajalari ajratib ko'rsatilgan. Sud ekspertlik amaliyoti va soha mutaxassislarining (shu jumladan, xorijiy mutaxassislar) nazariy qarashlarining tahlillari asosida, umumilmiy yondashuvlar bilan o'xshashliklarni aniqlash tartibi va ketma-ketligi tavsiya qilingan hamda sud-ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotining sud ekspertizasining metodlari, vositalari, tuzilishi va mantiqiy tashkil etilishi to'g'risidagi ilmiy ta'limot sifatidagi mualliflik tushunchasi berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekspertiza uslubiyoti, metod, metodologiyaning darajalari, bilish metodlari, maxsus bilimlar, kriminalistika fani, umumilmiy uslublar, maxsus uslublar, kriminalistikaning xususiy uslublari, xususiy instrumental metodlar, yordamchi-texnik metodlar.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются такие аспекты, как современная методология экспертных исследований, дифференциация уровней методологического экспертного знания, указаны пути преодоления методологических проблем, связанных с чрезвычайным многообразием судебных экспертиз. Дифференцированы уровни методологии экспертного исследования. На основе судебно-экспертной практики и теоретических взглядов ученых (в том числе зарубежных) предложены порядок и последовательность выявления аналогии с общенаучными подходами, а также, дано авторское понимание методологии судебно-экспертного исследования как научного учения о методах, средствах, структуре и логической организации экспертизы.

**Ключевые слова:** методика экспертизы, метод, степени методологии, методы познания, специальные знания, наука криминалистика, общенаучные методы, специальные методы, частные методы криминалистики,

частные инструментальные методы, вспомогательно-технические методы.

## ANNOTATION

The article discusses such aspects as the modern methodology of expert research, differentiation of levels of methodological expertise and indicates ways to overcome methodological problems associated with the extreme diversity of forensic examinations. The levels of the methodology of expert research are differentiated. On the basis of forensic expert practice and theoretical views of students (including foreign ones), the order and sequence of analogies with general scientific approaches are proposed, as well as the author's understanding of the methodology of forensic expert research as a scientific teaching on methods, means, structure and logical organization of expertise is given.

**Key words:** examination methodology, method, degrees of methodology, methods of cognition, special knowledge, science of criminology, general scientific methods, special methods, chat methods of criminology, private instrumental methods, auxiliary technical methods.

Sud ekspertizasining umumiy metodologiyasi sud ekspertizasi umumiy nazariyasining ajralmas qismi sifatida so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiboridan biroz chetda qolmoqda. Umuman olganda, sud-ekspert tadqiqotlari metodologiyasi jinoiy, ma'muriy yoki fuqarolik ishi holatlari to'g'risida yangi bilimlarni yaratish jarayoni degan fikrlar mavjud<sup>1</sup>.

Metodlarni tahlil qilish sud ekspertizalari xilma-xilligi sababli juda murakkab masala, undan tashqari, har bir sud ekspertizasi muayyan bir fanning alohida tarkibiy qismi bo'lib, ularning farqlanishi sud ekspertizalarining tegishli sinflarini ham o'zaro ajratadi. Shu sababli, sud-ekspertiza tadqiqotlarining mazmuni ham sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, tadqiqotlarning metodlari va vositalarida ham farqlar (shuningdek, o'xshashliklar) mavjud. O'zaro farqlar mavjudligiga qaramay, sud-ekspertiza tadqiqotlarining umumiy metodologiyasi haqida fikr yuritish mumkin.

Bu masalada D.O.Sipkinning ekspertning xulosasi o'zining barcha elementlarida, albatta, o'rganish va baholash uchun ochiq bo'lgan uslubiy asosga asoslangan, degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Ushbu asos (baza) tadqiqotlar natijalarining to'liq tekshirilishi va takrorlanishini, shuningdek, ekspertning yakuniy javoblari(xulosalar)ning bir xilligini kafolatlashi kerak. Shuningdek, majburiy shartlarga ekspertiza tadqiqotining xolisligi va "shaffofligi" ham kiradi. Bularning barchasi tadqiqotlarning, tadqiqot obyektlarini tavsiflash va tahlil qilish tuzilishi bilan birlgiligidagi bat afsil va qat'iy birlashtirilgan tuzilishi va mantig'isiz mavjud bo'lmaydi.

Ta'kidlash joizki, metodlarning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarining mavjudligi ekspert xulosasini "yakuniy bosqichdagi haqiqat"ga, o'zgarmas kategoriyaga aylantirmaydi. Ekspertiza tadqiqotlari sohasidagi masalalar bo'yicha har qanday darajadagi ekspertning xulosasi, agar u yuqoridagi parametr larga to'liq mos kelmasa (100 foiz muvofiqlikni ta'minlash juda qiyin), tekshirish va isbotlash talab etiladigan vakolatli,

ammo subyektiv fikr sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu sababli, ekspert xulosasining to'liqligi va xolisligi deyarli har doim shubha ostiga olinadi.

Ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasining uslubiy bilimlar darajasini muvofiqlashtirish odatiy hol hisoblangan, fanlarning umumiy metodologiyasi nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiqlikdir. Falsafiy metodologiya har doim birinchi o'rinda turadi, undan keyin esa tadqiqotlar metodlari va texnikasi uchun asos bo'lgan, aniq-ilmiy metodologiyalarda amalga oshiriladigan umumilmiy tamoyillar va tadqiqot shakllari keladi<sup>3</sup>.

Falsafiy metodologiyaning eng yuqori darajadagi mazmuni bilishning umumiy tamoyillari va fanning kategorik tuzilishini tashkil etadi. Bu holda, falsafiy daraja barcha uslubiy bilimlarning mazmunli asosidir.

Tadqiqotning umumilmiy tamoyillari va shakllari keyingi darajani tashkil etadi, bu yerda uslubiy funksiyalarni bajaradigan, muqarrar ravishda bir vaqtning o'zida fundamental fanlarning barchasiga yoki ularning muhim qismiga ta'sir ko'rsatadigan umumilmiy tushunchalar mavjuddir.

Undan keyin esa, yuqorida aytilganidek, keng doiradagi uslubiy muammolarni hal qilish uchun rasmiy ishlanmalar va nazariyalar maydonga chiqadi. Keyingi darajada yoki bosqichda esa aniq-ilmiy metodologiya alohida fan doirasida q'llaniladigan metodlar, usullar va tadqiqot jarayonlari to'plamini shakllantiradi.

Metodologiyaning so'nggi darjasida mavjud (olingo) empirik materiallarni taqqoslash imkoniyatini va ishonchliligini, bu materiallarni qayta ishslash va bilimlarning umumiy to'plamida hisobga olinishini ta'minlaydigan jarayonlar majmuyidan iborat bo'lgan tadqiqot metodologiyasi va texnikasi turadi. Bu holda gap ilmiy faoliyatni tartibga solish funksiyasini hisobga olgan holda aniq belgilangan me'yoriy xususiyatga ega bo'lgan uslubiy bilimlarning yuqori darajasi haqida bormoqda.

Yuqorida keltirilgan tasnifda sud-ekspertiza tadqiqotlarining metodologiyasi aniq-ilmiy metodologiya darjasida va qatorida joylashgan.

<sup>1</sup> Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. – М., 1997. – С.67.

Sud ekspertizasi umumiylar nazarinasining bir qismi hisoblanib va yanada "yuqori" darajadagi metodologiya sifatida uning metodologiyasining bir qismini o'z ichiga olgan holda, sud ekspertizasining metodologiyasi har qanday turdag'i sud ekspertizasining umumiylar asoslarini belgilaydi.

Shu bilan birga, sud-ekspertiza tadqiqotlarining metodologiyasi sud ekspertizasi umumiylar nazarinasining, umumilmiy tamoyillarining va tadqiqot shakllarining "yuqori" metodologiyalarini, shuningdek, qoidalari aniq (predmetli) talqin qilinadigan falsafiy metodologiyalarini bevosita tarzda (mexanik ravishda) o'z darajasiga kiritmaydi. Bu holat boshqa turdosh fanlarning sud-ekspert tadqiqotlari metodologiyasiga kiritilgan qoidalari nisbatan ham tegishli bo'ladi.

Umuman olganda, sud-ekspertiza tadqiqotlarining metodologiyasi deganda uning metodlari, vositalari, tuzilishi va mantiqiy tashkil etilishi haqidagi ilmiy ta'limot tushuniladi. Sud ekspertizalarini o'tkazishning predmetli uslubiyotlari metodologik bilimlarning boshqa – tadqiqotlarning uslubiyoti va texnikasi – darajada joylashadi.

Ekspertiza uslubiyoti – ekspertiza vazifalarini hal qilish uchun metodlar va vositalarni belgilangan (tartibga solingan, muvofiqlashtirilgan) tartibda hamda sharoitlarda tanlash va qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar tizimidir<sup>4</sup>. Bunday holda, ekspertiza uslubiyotining qoidalari kamroq umumiylar, biroq yanada aniqroq xususiyatga ega. Sud-ekspertiza tadqiqotlarining metodologiyasi ekspertiza metodlari yig'indisini mexanik ravishda birlashtirmaydi va ularning o'rmini bosmaydi, balki har qanday ekspertizaning o'ziga xos belgilari umumiylarini keltirib chiqaradi.

Sud ekspertizasiga oid adabiyotlarda sud-ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasining bilish jarayoni sifatidagi eng muhim qismi sifatida, tadqiqot metodlari to'g'risidagi ta'limot asoslangan holda ajratib ko'rsatilgan<sup>5</sup>, chunki aynan tadqiqot metodlari (vositalar ham) ekspertlik vazifalarini hal qilish vositalari (instrument) hisoblanadi.

<sup>2</sup> Энциклопедия судебной экспертизы. – М., 1999. – С.222.

<sup>3</sup> Плесовских Ю.Г. Судебно-экспертное исследование: методология, методика, метод// Известия ИГЭА. 2005. №3-4. – С.78.

“Metod” va “metodologiya” tushunchalarini o‘zaro taqqoslashning xolis va aniq asoslarini topish qiyin, chunki odatda “metod”ni (uslub) [yun. *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot] – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulli sifatida tushuniladi<sup>6</sup>.

Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metod o‘z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo‘lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo‘linadi: *yalpi umumiyl bilish metodlari* – hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo‘llaniladigan *umumiyl va universal metodlar* – metodologiya; umumiyl bilish metodlari – bir qancha yoki barcha fanlarda qo‘llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi(empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o‘tish chegarasi) da qo‘llaniladigan bilish metodlari; *xususiy yoki maxsus metodlar* – ayrim fan doirasida qo‘llaniladigan bilish metodlari.

Shu bilan birga, sud-ekspertiza tadqiqotlari metodologiyasi ekspertizatadqiqotlari obyektlarini o‘rganishda (bilish) qo‘llaniladigan ilmiy bilish usullari, tadqiqot jarayonlarida qo‘llaniladigan usullar, ekspertiza tadqiqotlarining obyektlarini o‘rganish (bilish) usullarining mazmuni hamda ekspertiza tadqiqotlari obyektlarini o‘rganishdagi usullarning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi bilimlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

<sup>6</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M harfi. / Tahrir hay’ati: E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev (rahbar), N.To‘xliyev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiyev. A.Madvaliyev tahr.ost. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. // [https://nziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati](https://nziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati).

Sud ekspertizalari tegishli fanlarning ajralmas qismi ekanligidan kelib chiqib, sud ekspertizasi tadqiqotlarining metodlari ilmiytadqiqot metodlariga qaraganda kamroq xilma-xil bo‘lishini tasavvur qilish qiyin.

Sud ekspertizasida har bir tadqiqot metodi o‘ziga xos hamda ular tadqiqotning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadi. Eng avvalo, bu tarkibga sud ekspertizalari kiradigan tegishli fanlarning metodlariga tegishli. Umumilmiy usullar ham ushbu metodlarni amalgaga oshirishning quyidagi tarkibiy elementlarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin: metodlarni qo‘llash subyekti – maxsus bilimlarga hamda maxsus protsessual maqomga ega bo‘lgan sud eksperti; ta’sir ko‘rsatish obyektlari – sud ekspertizalarining maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan obyektlari.

Metodlarni qo‘llash shartlari qonun bilan mustahkamlanadi va sud ekspertizasini o‘tkazish tartibiga bo‘ysunadi.

Sud ekspertizasi tadqiqotlarining metodologiyasi bilish jarayoni sifatida qaralgani sababli, sud ekspertizasining muayyan turlarini o‘tkazishning ekspertiza uslubiyoti va metodlari – sud ekspertizasi maqsadlariga erishish va vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan yaxlit tizimni tashkil etishi bilan bog‘liq. Har qanday tizim singari, ushbu metodologiya ham takomillashtirishi kerak. Xusan, V.I.Sharovning “empirik darajadagi metodlarni sud ekspertizasida faol ravishda moslashtirish va aniqlashtirish kerak, chunki muayyan bilim sohasida qandaydir bir metodni, shu jumladan umumilmiy metodni qo‘llashda, predmet sohasining o‘ziga xos xususiyatlari paydo bo‘lmasligi mumkin emas, bu esa ushbu metodni muqarrar ravishda muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib, metodlar tizimini ma’lum bir bilimga, shuningdek, amaliy vazifaga moslashtirish kerak” degan fikrlariga qo‘shilish lozim<sup>7</sup>.

Muayyan metodlardan foydalanish ularni ma’lum bir fan yoki amaliy faoliyat sohasining o‘ziga xos metodlariga kiritishga imkon bermaydi<sup>8</sup>. Amalda, bir fanning boshqa fanda qo‘llaniladigan metodi o‘zgartiriladi va ushbu metoddha mavjud

<sup>7</sup> Шаров В.И. Система методов судебной экспертизы// Вестник ННГУ. 2014. № 3-2. – С. 269.

<sup>8</sup> Пещак Я. Общетеоретические проблемы криминалистики. – М., 1977. – С.1.

bo'lмаган о'зига хос xусусиатларга eга bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, sud ekspertizasining asosiy tashkil etuvchi fanlaridan biri bo'lgan kriminalistika fanida ushbu masalalarga katta e'tibor berilgan. Adabiyotlarda jinoyatlarni ochish va tergov qilish amaliyotiga umumilmiy metodlarni aniqlashtirgan holda qo'llashga oid misollar yetarli. Bunday ilmiy asarlarning ahamiyati umumilmiy eksperimental metod – tergov eksperimenti – asosida ishlab chiqilishi mumkinligida hisoblanadi.

Sud ekspertlik faoliyatining o'ziga xosligi, shuningdek, uning vazifalarining xilma-xilligi va murakkabligi, ekspert eksperimentini detallashtirish imkoniyatini qiyinlashtiradi, chunki sud ekspertizalarining har bir turi uchun eksperimental harakatlar o'zaro sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, bu kabi metodlarni, ayniqsa o'qish maqsadlarida aniqlashtirish va muvofiqlashtirish zarur. V.I.Sharovning ta'kidlashicha, "Sud-ekspertlik faoliyatining tabiiy-ilmiy metodlari" o'quv kursida sud-ekspertlik faoliyatining umumiyl elementlariga nisbatan metodlarni aniqlashtiradigan uyg'unlashtiruvchi (integratsiyaviy) ishlar mavjud emas<sup>9</sup>. Misol tariqasida, sud-ekspertlik faoliyatida keng qo'llaniladigan, shu bilan birga amaliy faoliyat metodi hamda metrologiya fanining bir bo'limi bo'lgan o'Ichash metodini keltirish mumkin, ushbu metod ekspertizadan farqli o'laroq, tadqiqotlar o'Ichov natijalarini matematik baholash bilan cheklanadi<sup>10</sup>.

Umuman olganda, ilmiy nazariyalarni loyihalash metodlari kamdan-kam hollarda sud ekspertizasi nazariyasida tahlil qilinadi. Masalan, ekspertiza nazariyasining shakllanish yo'llarini tahlil qilib, bir qator mualliflar aksiomatik metodni ushbu maqsadlar uchun qo'llab bo'lmaydi deb hisoblashadi, chunki sud ekspertizasining umumiyl nazariyasi – o'zining qurilishi boshlang'ich bazasi ko'rinishidagi aksiomalar to'plamiga ega emas va shunga mos ravishda qat'iy formallashtirilishi mumkin bo'lmaydi. Shu munosabat bilan bir qator mualliflar voqelikni mumkin bo'lgan darajadagi aniqlik bilan aks ettiruvchi gnoseologik (falsafiy),

<sup>9</sup> Шаров В.И. Система методов судебной экспертизы// Вестник ННГУ. 2014. №3-2. – С.271.

<sup>10</sup> Виноградова Н.И., Матвиенко Е.А. Естественнонаучные методы судебно-экспертных исследований. Курс лекций. – М.: Щит-М, 2013. – С.62.

mazmunli nazariya modeliga moyildirlar<sup>11</sup>.

Yuqoridaq qarashlar juda qat'iy va o'zgarishlarni nazarda tutmaydi, bu esa uni muhokama qilishni talab etadi. Xususan, ekspertiza nazariyasining asosida yotuvchi identifikatsiya nazariyasi ham qat'iy, ammo formalashtirilgan nazariyalarning xususiyatlariga mos keladi. Agar ekspertizada ma'lum bir umumiy nazariyaning tan olinishini faraz qilsak, unda muqarrar ravishda o'zining tadqiqot obyektlarini o'rganish metodlari to'plamini o'ziga qamrab olgan ko'plab turdagi ekspertizalarning xususiy nazariyalari to'plamini ham tan olish kerak bo'ladi.

Bunday nazariyalarga havolalar adabiyotda formal nazariyalar sifatida uchrab turadi. Ularning formallashtirilgan metodlari, odatda, tabiiy fanlardan olingan hamda bunday metodlarni qo'llash eksperiment elementlarini istisno qilmaydi, ammo ular formal tartiblarni tashkil qiladi. Umuman olganda, zamonaviy kriminalistika fanida formallashtirilgan metodlar to'plamidan foydalanishga parallel ravishda o'sib boruvchi formallashtirishga intilish mavjud. Bunday istak-intilishni amalga oshirish uchun sud ekspertizasining xususiy-ilmiy metodlarini tizimlashtirish foydalidir.

Bu kabi tizimni yaratishga urinishlarda ikkita yondashuv mavjud, ulardan birinchisi kriminalistika fanida ilmiy-texnik mezonlar bo'yicha taklif qilingan. Jumladan:<sup>12</sup>

Umumilmiy uslublar: kuzatish, tasvirlash, o'Ichash, taqqoslash, eksperiment, modellashtirish, prognoz qilish, matematik uslublar hamda evristik uslublar: tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va boshqa.

Maxsus uslublar – boshqa fanlardan olinigan uslublar: fizikaviy, kimyoviy, biologik, antropologik, statistik, sotsiologik va boshqa uslublar.

Kriminalistikaning xususiy uslublari: sud fotografiyasi, trasologiya, ballistika, xatshunoslik va kriminalistik texnikaning boshqa sohalarida qo'llaniladigan uslublar.

<sup>11</sup> Алиев И.А., Аверьянова Т.В. Концептуальные основы общей теории судебной экспертизы. Баку: Гянджлик, 1992. – С.26-28с.

<sup>12</sup> Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mualliflar: F.Abdumajidov va boshq. – T.: "Adolat", 2003. – B.23.; Kriminalistika: Uchebnik. / Zakurlayev A., Bazarova D. i dr. – T.: TDYU, 2016. – S.15-18.

Bugungi kunda sud ekspertiza nazariyasida ushbu tizim quyidagicha tuzilishga ega:

Sud-ekspertizalarini o'tkazishda bajariladigan vazifalarning kengligi va xilma-xilligi, tadqiqotlar jarayonida metodlar majmuyidan foydalanishni taqozo qiladi. Bu metodlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**1. Bilishning umumiy dialektik-materialistik metodlari:** aynanlik, o'xshashlik, qaramaqarshilik va uchinchini inkor etish, mantiqiy qonunlardan, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, gipoteza va xulosa chiqarish kabi usullar;

Kriminalistikaning umumilmiy metodlari: kuzatish yoki ko'zdan kechirish; o'lhash; ta'riflash; qayd etish; taqqoslash; eksperiment (tajriba), **modellashtirish, prognoz qilish, matematik uslublar va h.k.**

**2. Umumiy (umumilmiy) metodlar:** kuzatish (ko'zdan kechirish), o'lhash, tafsivlash (ta'riflab yozish), eksperiment, modellashtirish, taqqoslash, rekonstruksiya (qayta tiklash), an'anaviy mantiqiy metodlar. Masalan, *Sud-tovarshunoslik ekspertizalarini o'tkazishda o'lchov, ro'yxatga olish, hisoblash, organoleptik, taqqoslash, tafsivlash va boshqa metodlardan foydalaniladi*. Mazkur metodlarning qo'llanilishi odatda kompleks xususiyat kasb etadi, chunki biri ikkinchisining imkoniyatlarini to'ldiradi va obyekt to'g'risida maxsus ma'lumotni beradi.

**3. Xususiy instrumental va yordamchitexnik metodlar:** *fizikaviy metodlar* (ya'ni, mikroskopiya, lyuminessent tahlil, elektron-optik o'zgartirgich va televizion texnika yordamidagi tadqiqotlar, spektral tahlil, nam nusxalash, adsorbsion-lyuminessent metod va boshqalar); *fizikaviy-kimyoviy metodlar* (sud-tadqiqot fotografiyasi – fotografik reproduksiya, makrofotosuratga olish, mikrofotosuratga olish, ultrabinafsha fotografiya, infraqizil fotografiya, raqamli fotografiya; yupqa qatlamlili xromatografiya; diffuzion-nusxalash metodi; yuqori chastotali elektr tokida suratga olish va boshq.); *kimyoviy metodlar* (miqdoriy va sifatiy kimyoviy reaksiyalardan foydalanishga asoslangan metodlar).

**4. Maxsus metodlar:** har bir aniq turdag'i sud ekspertizasi tadqiqotlarida qo'llaniladigan metodlar. Masalan, *Sud-ballistika ekspertizasida: taqqoslash mikroskopiyasi, rentgen nurlari*

bilan tekshirish, profilografik metod, diffuzion-kontaktli metod, xromatografik metod, spektral tahlil (emission-spektral tahlil, absorbsion tahlil – to'lqin uzunligi o'zgaruvchan monoxromatik nurlanish hosil qiluvchi modda molekulalarini tekshiruvchi kombinatsion sochilgan spektrlar bo'yicha tahlil; lyuminessent tahlil; rentgen tahlili), skanerlovchi elektron mikroskopiya. Yoki *sud-xatshunoslik ekspertizasida:* tizimli-strukturali tahlil; raqamli farqlovchi diagnostika; grafik metodlar; instrumental metodlari; miqdoriy metodlar; kibernetik metodlar; sifatiyta'riflash metodlari; kompleks metodlar va boshq. Shuningdek, *Hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlarida:* rastrli mikroskopiya metodi; aks etuvchi mikroskopiya metodi" yoki "replikalar metodi"; qaytuvchi ultrabinafsha va infraqizil nurlardagi tadqiqotlar; lyuminessent tahlil; spektral tahlil metodlari; emission-spektral tahlil; rentgenli tahlil; rentgen-strukturali tahlil; radioaktivatsion tahlil; ultrabinafsha, ko'rinvuvchi va infraqizil spektroskopiya; nam nusxalash metodi; adsorbsion-lyuminessent tahlil (ALT); makro va mikrosuratga olish, kontrastni kuchaytirish, spektrning ko'rinvuvchi sohasida fotosuratga olish, lyuminessensiya hodisasini fotosuratga olish; yuqori chastotali toklar maydonidagi tadqiqotlar; diffuzion-nusxalash metodi (DNM); xromatografik metodlar, kimyoviy metodlar va h.k.

Ushbu yo'naliishlar, keskin farqlar bo'l-maganda, adabiyotda ashyoviy dalillarni o'rganishning umumiyligi ekspertiza metodlari deb ataladi. Bunday umumiy metodlar axborot mezonlari bo'yicha tizimlashtirilgan va tahlil metodlarining besh guruhiga taqsimlangan:

1) moddalar, materiallar va mahsulotlarning morfologiysi; 2) moddalar va materiallarning tarkibi; 3) moddalar, materiallar va mahsulotlarning tuzilishi; 4) moddalar, materiallar va mahsulotlarning fizikaviy, kimyoviy va boshqa xususiyatlari; 5) matematik<sup>13</sup>.

Bu holda, tasniflash asoslari umumiyligini baholashdan axborotning predmeti va xususiyatiga o'tish orqali o'zgartirilgan, bu esa umumiy tasniflash tamoyillaridan tashqariga chiqadi. Shu bilan birga, ekspert faoliyatini uchun foydalilik nuqtayi nazaridan kiritilgan asoslar

<sup>13</sup> Rossinskaya E.P. Судебная экспертиза в гражданском, арбитражном, административном и уголовном процессе. – М., 2009. – С.149.

voqelikka juda mos, chunki ular o'rganilayotgan obyektning tegishli xususiyatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan metodlarni guruhlashga imkon beradi.

Tegishli harakatlarning mohiyatini ochib berish uchun taklif qilingan metodlarning har bir guruhini ekspertizada foydalanish uchun jalg qilingan bilim sohalaridan olingan mavjud va tushunarli tushunchalar orqali izohlash kerak. Shuningdek, ayrim metodlarni o'zaro aralashtirish

ham muqarrar ko'rindi, chunki bir xil metodlarni qo'llash natijasida turli xil ma'lumotlar olish mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi hal qilinayotgan vazifalar ko'laming kattaligi va turlichaligidan dalolat beradi hamda ekspertiza metodlarning keng majmuyini formal emas, balki mazmun jihatidan tizimlashtirish dolzarb bo'lib qolaveradi.

## ADABIYOTLAR

1. Плесовских Ю.Г. Судебно-экспертное исследование: методология, методика, метод // Известия ИГЕА. 2005. №3-4. – С. 77-79.
2. Сыпкин Д.О. Несколько предварительных замечаний о единстве экспертизной науки и о проблемах современного источниковедения// Фотография. Изображение. Документ. 2012. №3 (3). – С.3-7.
3. Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. – М., 1997. - 444 с.
4. Энциклопедия судебной экспертизы. – М., 1999. – 552 с.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. M harfi. / Tahrir hay'ati: E.Begmatov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, T.Mirzayev (rahbar), N.To'xliyev, E.Umarov, D.Xudoyberanova, A.Hojiyev. A.Madvaliyev tahr.ost. – Т.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. // [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati).
6. Шаров В.И. Система методов судебной экспертизы // Вестник ННГУ. 2014. №3-2. – С.269-272.
7. Пещак Я. Общетеоретические проблемы криминалистики. – М., 1977. – 229 с.
8. Виноградова Н.И., Матвиенко Е.А. Естественнонаучные методы судебно-экспертных исследований. Курс лекций. – М.: Щит-М, 2013. - 416 с.
9. Алиев И.А., Аверянова Т.В. Концептуальные основы общей теории судебной экспертизы. Баку: Гянджлик, 1992. - 186 с.
10. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mualliflar: F.Abdumajidov va boshq. – Т.: “Adolat”, 2003 - 362 б.
11. Криминалистика: Учебник. / Закурлаев А., Базарова Д. и др. – Т.: ТГЮУ, 2016. – 528 с.
12. Россинская Е.Р. Судебная экспертиза в гражданском, арбитражном, административном и уголовном процессе. – М., 2009. - 656 с.

**ANNOTATSIYA**

# KOMPLEKS SUD EKSPERTIZALARI O'TKAZISHNING METODIK JIHALTLARI

**MUXAMEDJANOVA  
Madina,**  
**RSEM "Sud-ballistika va trasologik  
ekspertizasi" laboratoriysi  
sud-eksperti**

Maqolada O'zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi instituti rivojlanishining bosqichlari tahlil qilingan, zamonaviy sharoitlarda kompleks sud ekspertizasining yangi turlarining shakllanishi va rivojlanishi, kriminalistika va sud ekspertizasi sohasida ham, boshqa ilmiy sohalarda ham maxsus bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvni (integratsiyasi) bilan bevosita bog'liqligi asoslangan. Kompleks ekspertizani rivojlantirishning hozirgi bosqichida, O'zbekiston Respublikasining sud-eksperzia muassasalarida (shu jumladan, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida) kompleks ekspertizalarni o'tkazishni tashkil etish bo'yicha umumiyligi, yagona idoralararo uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** sud ekspertiza instituti, kompleks sud ekspertizasi, uslubiy ta'minot, umumiyligi, xususiy kompleks ekspertiza uslubiyoti, sud ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotini standartlashtirish.

**ANNOTATION**

The article analyzes the stages of development of the institute of forensic examination in the Republic of Uzbekistan, substantiates its direct connection with the formation and development in modern conditions of new types of complex forensic examination, mutual integration of special knowledge both in the field of criminology and forensic examination, and in other scientific fields. At the present stage of the development of complex expertise, the development of common, unified interdepartmental methodological recommendations for the organization of complex examinations in forensic expert institutions of the Republic of Uzbekistan (including non-governmental forensic expert organizations) is proposed.

**Key words:** institute of forensic examination, complex forensic examination, methodological support, general methodology, private methodology of complex examination, standardization of methods of forensic research.

O'zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi instituti rivojlanishining hozirgi bosqichi quyidagi an'analar bilan tavsiflanadi: ilmiy va maxsus bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvi (integratsiyasi) va farqlanishi, ekspert-kriminalistik texnologiyalarning faol rivojlantirilishi, ekspertiza tadqiqotlarining turli usullari va vositalarini takomillashtirilishi, innovatsion texnik-kriminalistik vositalar va ekspertiza uslublarini ishlab chiqish va sud-ekspertlik faoliyatiga joriy etish, shuningdek, sud ekspertiza instituti rivojlanishining mazmun-mohiyati va tuzilishini belgilab beruvchi boshqa qonuniyatlar.

Umuman olganda, sud ekspertizasi rivojlanishining ushbu istiqbollari ekspertizalar hamda an'anaviy va yangi, noan'anaviy tadqiqot obyektlarining ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga, shuningdek, sud ekspertizasining yangi turlari va oilalarini shakllantirish uchun ilmiy bilimlarning boshqa tarmoqlari va sohalari bilan aloqalarni tashkil etishga imkon beradi.

Sud ekspertshunosligi sud ekspertizasi institutining nazariy va amaliy asoslarining konseptual birligini ta'minlaydigan bilim sohasi sifatida, sud ekspertizasining yangi turlari, turkumlari va oilalarini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Masalan, N.S. Neretina sud ekspertizasining turlari (turkumi, oilasi) rivojlanishining quyidagi qonuniyatlarini ajratib ko'rsatgan: sud ekspertizasining turlari (turkumi, oilasi) shakllanishi va rivojlanishi bilan sud-tergov amaliyotining ehtiyojlarini o'rtasidagi bog'liqlikning qonuniyatlarini; ilmiy bilimlarning rivojlanishi, fanlarning o'zaro uyg'unlashuvi (integratsiyasi) va farqlanishi (differensiatsiyasi) jarayonlari natijasida sud ekspertizasining turlari (turkumi, oilasi) paydo bo'lishining qonuniyatlarini; sud-ekspertlik faoliyatining rivojlanishi natijasida sud ekspertizasining turlari (turkumi, oilasi) rivojlanishining qonuniyatlarini [2, 361].

Shu munosabat bilan sud ekspertiza institutini rivojlanirishning asosiy yo'nalişlaridan biri sud ekspertizasining yangi turlarini (turkumi, oilasi) shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Bu kabi ekspertiza turlaridan biri kompleks sud ekspertizasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksiga muvofiq, "Ekspertiza bir xil (komissiyaviy ekspertiza) yoki turli xil (kompleks ekspertiza) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha ekspert tomonidan o'tkazilishi mumkin" [1].

Falsafiy (gnoseologik) nuqtayi nazardan, kompleks ekspertiza, sud ekspertizasining alohida turi sifatida, ekspertizaning yangi turlari, turkumlari va oilalarini shakllantirish uchun fundamental asosdir. Masalan: kompleks sud-iqtisodiy ekspertizalar; kompleks sud-qurilish-texnik ekspertizalar, kompleks sud-ekologik ekspertizalar; kompleks sud-avtotexnik ekspertizalar; kompleks sud-biologik ekspertizalar; kompleks sud-psixologik-psixiatriya ekspertizalari va boshq.

Zamonaviy sharoitlarda sud ekspertizasining yangi turlarining shakllanishi va rivojlanishi, kriminalistika va sud ekspertizasi sohasida ham, boshqa ilmiy sohalarda ham maxsus bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvi (integratsiyasi) bilan bevosita bog'liqidir. Ushbu jarayonlarning natijasi esa kompleks ekspertizaning uslubiy asoslarini, jumladan, bu turdagи ekspertiza o'tkazishning uslubiy shaklini takomillashtirish va o'zgartirishdir. Bugungi kunda kompleks sud ekspertizalarining uslubiy ta'moti muammolari eng bahstalab masalalardan biri hisoblanadi.

Kompleks ekspertizalarni o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha erishilgan muhim natijalarga qaramay, aksariyat hollarda ayrim ekspert mutaxassisliklari (kompleks sud-tibbiy-kriminalistik ekspertiza, kompleks sud-psixologik-psixiatrik ekspertiza, kompleks sud avtotexnikaviy-trasologik ekspertiza, kompleks sud-moliya-iqtisodiy ekspertiza va boshq.) bo'yicha, hozirgi vaqtida turli mualliflar tomonidan kompleks ekspertizalarni o'tkazishda umumiy uslubiy yondashuvdan foydalanish bo'yicha takliflar bildirilmoqda [3].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi qoida barcha turdagи sud ekspertizalari uchun amal qiladi. Masalan, A.A.Bessonov: "hozirgi vaqtida sud-ekspertlik faoliyatining eng dolzarb

muammolaridan biri – sud ekspertizasining barcha turlari uchun, shu jumladan ushbu masala bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan ekspertiza uslubiyoti standartlarini ishlab chiqish zarurati bo'lib qolmoqda" [4, 62].

Binobarin, kompleks sud ekspertizasining asosiy vazifasi – turli xil ekspert mutaxassisliklariga oid maxsus bilimlarni uyg'unlikda qo'llab turli sinf, oilayoki turdagie ekspertizalarning turdosh vazifalarini hal qilish bo'lganligi sababli, kompleks ekspertizalarini o'tkazishda idoralararo darajada bir xil (yagona) umumiyl uslubiyotni ishlab chiqish sud-ekspertlik faoliyatining dolzARB yo'nalihi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, kompleks eksperimentalarining uslubiy ta'minoti hozirgi kunda boshqa protsessual turdag'i (masalan, birlamchi, qayta yoki qo'shimcha) sud ekspertizalariga nisbatan birmuncha pastroq deb xulosa qilish mumkin. Shu sababli, so'nggi paytlarda kompleks sud ekspertizasini rivojlantirishning asosiy yo'nalihi hozirda mavjud bo'lgan kompleks ekspertiza tadqiqotlari uslublarini takomillashtirish va boyitish, shuningdek, yangi xususiy kompleks uslubiyotlarni yaratishdir.

Ushbu muammoni bartaraf qilishda muhim to'siq – bu kompleks sud ekspertizalarini o'tkazishning umumiyl turga (oila, sinf) oid uslubiyotining yo'qligi hisoblanadi.

Tarixga murojaat qilinsa, ilgari ekspertlik amaliyotida, kompleks sud ekspertizalarini o'tkazish bo'yicha idoralararo "Sud-ekspertiza muassasalarida kompleks ekspertizalarini o'tkazishni tashkil etish to'g'risidagi Yo'riqnomasi" mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Ushbu Yo'riqnomada kompleks ekspertizalarini o'tkazishning asosiy qoidalari va umumiyl tartibi mustahkamlangan edi. Biroq ushbu Yo'riqnomada bu turdag'i ekspertizani o'tkazishning bosqichma-bosqich uslublari mavjud emas edi [5, s.163-164].

Shu munosabat bilan, kompleks ekspertizani rivojlantirishning hozirgi bosqichida, O'zbekiston Respublikasining sud-ekspertiza muassasalarida (shu jumladan, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida) kompleks ekspertizalarini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida" umumiyl, yagona idoralararo uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish taklif qilinadi. Ushbu uslubiy tavsiyalarda, fikrimizcha, kompleks ekspertizani

o'tkazish uslubiyoti bat afsil bayon qilinishi, bu turdag'i ekspertizalarini o'tkazishning alohida bosqichlarini ko'rib chiqish va ochib berish lozim.

Yuqorida aytilganlar kompleks sud ekspertizalarini o'tkazish uchun umumiyl (tur, sinf va oilaga oid) uslubiyotni yaratish zarurligini belgilaydi. Ushbu turdag'i uslubiyotni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish sud ekspertizasining yangi turlari (turkumi, oilasi) ni shakllantirish va rivojlantirish, yangi xususiy kompleks sud ekspertizasi uslublarini yaratish samaradorligining ajralmas shartidir, shuningdek, umuman sud ekspertizasi tadqiqot usullarini standartlashtirishning ajralmas asosidir.

Sud-ekspertlik faoliyatini standartlashtirish, xususan, sud ekspertizasini o'tkazishning uslubiy ta'minotida yagona yondashuvni belgilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni loyihasida "Sud-ekspertlik faoliyatini muvofiqlashtirish" nomli yangi modda kiritilgan. Ushbu moddag'a ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud-ekspertiza faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ hisoblanadi va quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

sud ekspertizasini o'tkazish sohasida tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etishga ko'maklashadi; sud-ekspertlik sohasidagi muassasa va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi; sud-ekspertlik sohasidagi ilmiy uslubiyotlarni takomillashtirish, shuningdek, yangi ekspertiza turlarini joriy etish bo'yicha takliflarni sud-ekspertlik faoliyatining idoralararo ilmiy-uslubiy kengashiga kiritadi; sud-ekspertlik faoliyatini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlarini ishlab chiqadi; sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi tegishli ishlarni amalga oshiradi; sud-ekspertiza tashkilotlari hamda sud ekspertlari, shuningdek, sud-ekspertlik tadqiqotlari uslubiyotlarining davlat reyestrlarini yuritadi va undan foydalanish qoidalari tasdiqlaydi; nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish uchun maxsus jihozlangan binolar va har bir ekspertiza turida foydalanishga doir jihozlarga hamda mutaxassislarining ma'lumoti darajasiga qo'yiladigan minimal talablarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; nodavlat sud ekspertlarini attestatsiyadan o'tkazish qoidalari

ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud ekspertlarining malaka komissiyasi faoliyatini tashkil etadi; sud ekspertining kasb etikasi bo'yicha namunaviy qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; sud ekspertizasini uslubiy ta'minlashning holati yuzasidan ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi hamda sertifikatlashtirishni tashkil etadi; sud-ekspertiza sohasidagi tizimli muammolarni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqadi va ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi; qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin".

Ko'rinish turibdiki, yuqorida islohotlar natijasida kompleks sud ekspertizalarini o'tkazishning umumiyligi (tur, sinf va oilaga oid) uslubiyotini yaratish va ekspertlik amaliyotiga joriy etish bo'yicha ishlar jadal davom etmoqda.

Kompleks ekspertizalar metodika'minotining yana bir dolzarb jihatiga – idoralararo darajada ishlab chiqilgan sud-ekspertiza tadqiqotlariga oid namunaviy kompleks uslubiyotlarning cheklangan miqdoridir.

Amalda, aksariyat hollarda, kompleks ekspertiza tadqiqotlari va ekspertizalarini o'tkazishda, turli xil mutaxassisliklar bo'yicha ekspertiza tadqiqotlarining xususiy uslubiyotlari usullari birligida qo'llaniladi, biroq bu holda ushbu uslubiyotlarni birligida qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar esa inobatga olinmay qoladi.

Ekspertiza uslubiyoti standart maqomiga ega bo'lishi uchun bu uslubiyot shakllanish, sinovdan o'tkazish (aprobatsiya va validatsiya) hamda amaliyotga joriy qilish kabi bosqichlardan o'tishi kerak.

Kompleks ekspertizalar uslubiyotining asosiy qoidalari va bosqichlarini shakllantirishda turli ekspert yoki turli ekspertlik mutaxassisligiga ega bo'lган ekspertlar komissiyasi bu kabi ekspertiza tadqiqotlari va ekspertizalarini o'tkazish amaliyotini o'rganishi, shuningdek, o'quv-uslubiy qo'llanmalarda, yo'riqnomalarda, ilmiy-tadqiqot ishlarida, ilmiy konferensiyalar qarorlarida, ilmiy-amaliy seminarlarda, ilmiy-

metodik kengashlarning qarorlarida berilgan (mavjud bo'lgan) uslubiy tavsiyalarni tahlil qilishi kerak.

Bukabi uslubiyotlar natijalarini sud-ekspertiza muassasalarida sinovdan o'tkazish dastlab Ilmiy yoki ilmiy-metodik kengashlarda (masalan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi RSEMning Ilmiy kengashi, Ichki ishlar vazirligi EKBMning Ekspert-malakaviy komissiyasi, Mudofaa vazirligi MSTPALning Ilmiy-metodik kengashi, Sog'liqni saqlash vazirligi RSTEIAMning Ilmiy-metodik kengashi) amalga oshiriladi, u yerda uslubiyotlar muhokama qilinadi va sertifikatlanadi, so'ngra uning natijalari amaliyotga tatbiq etiladi.

Ushbu kompleks uslubiyotni qo'llash natijalari sinov (aprobatsiya) bosqichidan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng, ular to'g'ridan-to'g'ri ekspertiza bo'linmalari va laboratoriyalari faoliyatiga joriy etilishi kerak.

Bu jarayondagi eng qiyin bosqich – sud-ekspertiza tadqiqotining kompleks uslubiyotini amaliyotga joriy etish bosqichi hisoblanadi. Buning sabablari har xil bo'lishi mumkin, lekin ular asosan tashkiliy xususiyatga ega bo'ladi. Natijada, ishlab chiqilgan, shakllangan va sinovdan o'tgan kompleks ekspertiza uslubiyoti faqat ekspertiza o'tkazishda uslubiy tavsiyalar vazifasini bajaradi.

Sud-ekspertiza tadqiqotlarining yangi kompleks uslublarining vujudga kelishi sudda jinoyat va boshqa ishlarni ko'rib chiqishda isbotlash vositasi sifatida kompleks sud ekspertizalarini o'tkazish samaradorligiga va uning vakolatlarni kengaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib xulosa qilishimiz mumkinki, kompleks sud ekspertizasi rivojlanishining hozirgi bosqichi bu turagi ekspertizalar uslubiy ta'minotining past darajasi bilan belgilanadi, shu sababli, yuqorida ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirish uchun kompleks sud ekspertizalarini tadqiqotlar uslubiyotini sezilarli darajada takomillashtirish zarur.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2022. 1761-m. / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2017 y., 1-son, 1-modda, 13-son, 194-modda, 24-son, 487-modda, 36-son, 943-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son; 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son.
2. Неретина Н.С. Основные закономерности генезиса родов и видов судебных экспертиз // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2016. № 3-2. – С.360-366.
3. Кудряшов Д.А. К вопросу об общем методическом подходе при производстве комплексных судебных экспертиз // Уголовное судопроизводство: проблемы теории и практики. № 3. 2017. – С.46-50.
4. Бессонов А.А. К вопросу о формировании единых экспертных методик // Информационный бюллетень “Вопросы экспертной практики” Специальный выпуск, март 2019. Материалы международной научно-практической конференции “Дискуссионные вопросы теории и практики судебной экспертизы”. – С.57-62.
5. Кудряшов Д.А. Актуальные вопросы производства комплексных судебных экспертиз: методический аспект. Вестник экономической безопасности. 2020;(4): 162-5.

# TOLALI MATERIALLAR VA ULARDAN TAYYORLANGAN BUYUMLAR KRIMINALISTIK EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

*SAMADOVA*

*Farangez Zayniddinovna,*

*Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti  
Sud-tibbiy, psixiatriya, psixologik va  
biologik ekspertizalari ilmiy-tadqiqot  
bo'limi bosh ilmiy xodimi*

*KAMILOVA*

*Malika Xodjakbarovna,*

*Materiallar, ashyolar va buyumlar  
kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi yetakchi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertizasining o'tkazilishi va zamonaviy asbob-uskunalar orqali tolalarning bir-biridan farqini ajrata olish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, tolalar, mikrotolalar, o'zaro ta'sirlashish fakti (O'TF), umumiy bir tur va guruh.

## АННОТАЦИЯ

В статье приведены сведения о проведении судебно-медицинской экспертизы волокнистых материалов и изделий из них и возможности различия волокон друг от друга с использованием современного оборудования.

**Ключевые слова:** волокнистые материалы и изделия из них, волокна, микроволокна, факт контактного взаимодействия (ФКВ), общеродовая и групповая.

## ANNOTATION

This article provides information on the implementation of forensic examination of fibrous materials and articles made from them and the possibilities of distinguishing fibers from each other using modern equipment.

**Key words:** fibrous materials and articles made from them, fact of interaction (OTAF), microparticles, general type, group.

To'qimachilik tolalaridan tayyorlangan mahsulotlar va boshqa tolali materiallar har bir inson turmushining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi esa (kiyim, choyshablar va boshqalar) doimiy (kundalik) foydalaniladigan buyumlar qatoriga kiradi. Tolali materiallardan tayyorlangan mahsulotlar texnikada ham keng qo'llaniladi. Qotillik, zo'r lab nomusga tegish, yo'l-transport hodisalari kabi jinoiy ishlarni tergov qilishda kiyim va tekshirilayotgan hodisa muhitini turli buyum elementlarida qoluvchi to'qimachilik tolalarining qatlamlı mikroizlarini tadqiq qilishda juda muhim o'rinn tutadi.

Maxsus ekspertiza bilimlari asosida tergov qilinayotgan voqeal bilan tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlar va ularning qoldiqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi faktlarni aniqlash tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning kriminalistik ekspertizasining **predmeti** bo'lib hisoblanadi.

Ekspertiza predmeti jinoyat qurollari yoki transport vositalari (TV) qismlarining jabrlanuvchining kiyimi qismlari bilan o'zaro ta'sirlashish fakti (O'TF) hisoblanadi. Bunday hollarda, izhosil qiluvchi obyektlarning yuzasidagi izlar, neft mahsulotlari (NM) va yonilg'i-moylash materiallari (YMM), lok-bo'yoq qoplamlari (LBQ), tuproq va o'simlik qoldiqlarini aks ettiruvchi izlarni ekspertiza tadqiqotlari olingan ma'lumotlardan foydalanilgan holda kompleks tarzda bajariladi.

Jinoyatchi kiyimi tomonidan qoldirilgan (to'siqni oshib o'tish, TVda, boshqa shaxsning kiyimida va h.k.) deb taxmin qilingan izlardagi alohida tolalarni tadqiq qilish jarayonida, jinoyatchining kiyimi qaysi obyektlar bilan ta'sirlashgani haqida axborot olinadi, ya'ni ekspertiza yordamida kiyim predmetlari yoki ikki komplekti (to'plami), yoki ikkita tadqiqot obyektining o'zaro ta'sirlashish fakti (O'TF) aniqlanishi mumkin.

Tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning ekspertizasini o'tkazish chog'ida bajariladigan vazifalar turli-tumandir.

Gumon qilinuvchining kiyimida jabrlanuvchining kiyimi tolalari tarkibiga kiruvchi tolalar bilan bir xil bo'lgan mikrotololarning mavjudligi, shuningdek, ushbu tolalarning lokalizatsiyasi (bir joydan topilishi) gumon qiluvchining taxminini inkor etishga, jabrlanuvchining ko'rsatmalarini tasdiqlashga va shu kabilar uchun foydalanilishi mumkin.

Ekspertlik tadqiqotining **vazifalaridan** biri kiyimlar qismlarining avval bir butunlikka tegishli ekanligini aniqlash hisoblanadi: kiyim predmetining uning to'plami(komplekti)ga (qo'lqoplar – bir juftlikka tegishli ekanligi, kamarning kurtkaga, mato parchasining – muayyan matoga, ipi bilan uzilgan tugmaning – muayyan kiyimga) tegishli ekanligi.

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar ekspertizasining **obyekti** quyidagilar hisoblanadi: iplar, yigirilgan iplar, matolar, kiyim, noto'qima materiallar, arqonlar, tizimcha (kanop ip, yoki to'qilgan), bog'ichlar, yongan kiyim qoldiqlari va shu kabilar.

Hozirgi vaqtida tolali materiallarning kriminalistik ekspertizasi doirasida quyidagilarni aniqlash mumkin:

- to'qimachilik tolalarining umumiy bir tur va guruhga mansubligini;

- tashuvchi predmetlarda aniqlangan mikrotololarning lokalizatsiyasi va uning tekshirilayotgan hodisa vaziyatiga mosligini;

- to'qimachilik tolalari izlari bo'yicha kiyim to'plamining O'TFin;

- qotillik quroli bilan kiyim to'plami O'TF yoki to'qimachilik tolalari mikroizlarining boshqa mikroizlari bilan birgalikdagi (moy, LBM zarralari) TVning O'TFin;

- yong'in natijasida kuygan kiyim predmetlari yoki tolali obyektlarning qolgan qoldiqlariga qarab, ularning dastlabki ko'rinishi va mo'ljallangsan maqsadini;

- mayda qismlar(mato fragmenti, ipi bilan uzilgan tugma)ga qarab butun qism (alohida mato parchasi, kiyim qismi), alohida qismlarga qarab kiyim to'plamini.

Tolali materiallarning kriminalistik ekspertizasi bo'yicha tadqiqotlar uslub va uslubiy tavsiyalarga muvofiq holda o'tkaziladi.

Zamonaviy ilmiy-texnik baza, ya'ni ("Olympus SZX10" rusumli (126 marta kattalashtirilgan, halqali diod lampali yoritkichli)

va "MOTICAM" rusumli yorug'lik mikroskopi (200 marta kattalashtirilgan) stereoskopik mikroskoplari hamda "FOSTER FREEMAN" firmasining "Fx5" kabi tolalarni izlash uskunasi) bilan jihozlangan Markaz tadqiqot obyektlarini buzmasdan, o'zgartirmasdan, alohida olingan yakka tolalarning tadqiqotini muvaffaqiyatli va to'laqonli o'tkazishga imkon beradi. Yuqori sezgir asbob-uskunalarning qo'llanilishi ekspertlar yanada yuqoriroq ilmiy asoslangan darajadagi vazifalarni bajarishiga yordam beradi: ya'ni nafaqat differensial vazifalarni, balki identifikatsion vazifalarni ham yechishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda to'qimachilik tolalari tadqiqotining namunaviy uslubi va sxemasi ishlab chiqilgan. Mazkur sxema asosida, tegishli tasnif tomonidan ko'zda tutilgan, hajmi tadqiqot davomida belgilangan chegaragacha torayuvchi aniq tasniflangan ko'plab bo'yagan to'qimachilik tolalarining bosqichma-bosqich ajralish qoidasi yotadi. Markaz xodimlari tomonidan tolali tabiatga ega bo'lган obyektlarning kompleks ekspertiza tadqiqoti uslublari ishlab chiqilgan. Birinchi bosqichda mazkur uslub tolalar tarkibini aniqlash va ajratishni, ularning ma'lum bir tur(guruh) ga umumiy mansubligini aniqlash maqsadida iz hosil qiluvchi obyektning materiali bilan taqqoslash tadqiqotini ko'zda tutadi. Ekspertiza tadqiqotining yakuniy bosqichida aniqlangan belgilarning baholanishi o'tkaziladi, ya'ni har xil turdag'i (guruhlari) tolalar va boshqa zarralarning tarqalishi, qatlamlı izlarning barqarorligi, aniq predmetlarning o'zaro ta'siri belgilarning aks etishini hisobga holda baholanadi. Obyektlarning o'zaro ta'sirining umumiy va xususiy belgilarini aniqlagan ekspert, tegishli masalani hal etish uchun ularning ahamiyati va yetarlilagini belgilaydi.

Ekspertizaning zamонавиј имкониятларига мувоғиқ holda uni bajarish uchun quyidagi savollarni berish maqsadga muvoғiқ bo'ladi:

—tashuvchi obyektda(masalan,jabrlanuvchilar va gumon qilinuvchilarning kiyimlari, tirnoqlari kesmalar, pichoqlar va jinoyatning boshqa qurollari, TV, mikrotolalar aks ettirilgan dakti-loplyonka) begona mikrotolalarning qoldiqlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ular gumon qilinuvchi yoki jabrlanuvchi kiyimlari tarkibiga kiruvchi tolalar bilan umumiy bir tur va guruhga mansubmi?

— agar gumon qilinuvchi yoki jabrlanuvchi kiyimlarda umumiy tur va guruhga tegishliligi bo'yicha to'qimachilik tolalari mikrotolalarining qoldiqlari ko'rinishidagi o'zaro ta'sir izlari mavjud bo'lsa, unda: kiyimlar (ularning aniq bir shaxslarga tegishliligi ko'rsatiladi) o'zaro aloqada bo'lганми?

— ... aniqlangan qismning butun elementi ish bo'yicha izlanayotgan holatning butun elementi tarkibiga kirganmi (joy yoki tegishliligi ko'rsatiladi)?

— matoning yonishidan hosil bo'lган kulda (olingan joy ko'rsatiladi, pechka yoki tandir) to'qimachilik materiallari, tikuvchilik mahsulotlari, kiyim fragmentlarining qoldiqlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ular qaysi kiyimga tegishli va nima uchun mo'ljallangan?

Kiyimlardiagi begona mikrotolalar tekshiruvda ularning biror-bir obyektda qatlamlanishi lokalizatsiyasi to'g'risidagi savollar ham qo'yilishi mumkin, ammo bunda ashyoviy dalillar qadoqlanishi alohida asosiy qoidalarga muvoғiқ bo'lishi zarur.

O'TF bo'yicha savolni quyidagilarga nisbatan qo'yish tavsiya etilmaydi:

— hodisa sodir bo'lgandan so'ng uzoq vaqtdan keyin olingan kiyim to'plamlariga nisbatan, chunki ular ehtimol yuvilgan bo'lishi yoki kimyoziy tozalashdan o'tgan bo'lishi mumkin;

— qon bilan kuchli ifloslangan, mog'or bosgan kiyimlarga nisbatan;

— gumon qilinuvchi jinoyat sodir etilgan vaqtida qaysi kiyimda bo'lганligi fakti noma'lum bo'lган kiyimlar;

— rangi va tolali tarkibi bir xil bo'lган kiyim to'plamlari (maxsus ish kiyimlari, harbiy kiyimlar);

— oq paxtadan tayyorlangan ichki kiyimlar va viskozali to'shak choyshablari predmetlari (to'shak jildi, yostiq jildi, odeyal jildi).

Ushbu tur ekspertizasi rivojlanishining zamонавиј bosqichida kiyimlarda aniqlangan mikrotolalarning mikrozarralari bo'yicha, begona mikrotolalarni tadqiq qilish davomida tolalar turlarining har biri kiyimning qaysi predmetiga tegishliligi masalasini hal etishning deyarli imkon yo'q. Bu bir qator sabablar bilan tushuntiriladi: Birinchidan, kiyimdagи qavatlangan tolalar turli kiyim predmetlari va tolali obyektlar bilan ko'plab tasodifiy aloqa mobaynida hosil bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, tadqiq qilinayotgan kiyimga o'rganilayotgan hodisadan avval, shu vaqtida yoki undan keyin ham begona mikrotolalarning tushish tartibini (hodisasini) aniqlashning qariyb imkoniy yo'q. Shu tufayli, agar gumon qilinuvchi yoki uning kiyimi bo'lman holatda, jabrlanuvchining kiyimidagi begona mikrotolalarning tur(guruh)ga tegishliligini aniqlash mantiqan noto'g'ri bo'ladi. Begona mikrotolalar mikropreparatlarini uzoq vaqt davomida saqlash esa ularni keyingi taqqoslash (nisbiy) tadqiqotlari uchun yaroqsiz holga keltiradi.

Tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlar tasnifini bilish tergov uchun har bir holatda ulardan qaysi biri ashvoyiy dalil bo'lib xizmat qila olishini aniqlash, ekspertlik tadqiqotining bevosita obyektlarini ajratish, ish bo'yicha izlanayotgan jinoyat hodisasining moddiy holati elementini aniqlashga katta yordam beradi.

Ashvoyiy dalillar olinganda mazkur turdag'i ekspertiza uchun belgilangan maxsus tavsiyalarga amal qilish zarur:

- jabrlanuvchi(shu jumladan, murda)ning kiyimini tergovchi ishni tergov qilishni boshlagan zahoti olishi zarur;
- gumon qilinuvchining kiyimi to'liq to'plamda olinadi;

- daliliy ashylarning olinishi va qadoqlanishi chog'ida jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi kiyimlarining predmetlari bir-biriga tegishiga, shuningdek, ashvoyiy dalilni olish va qadoqlashni amalga oshirayotgan shaxslarning kiyimlariga

tegishiga yo'1 qo'ymaslik lozim. Shuningdek, bitta shaxsga qarashli kiyimning alohida predmetlarining o'zaro bir-biriga tegishining oldini olish zarur;

- kiyimning har bir qismini yaltiroq yuzali zich qog'ozga, kalkaga, sellofan yoki polietilen pylonka yoki paketlarga qadoqlash lozim;

- agar ish holatlari bo'yicha begona mikrotolalarning dastlabki lokalizatsiyasini aniqlash zarur bo'lsa, unda kiyimning har bir predmetini ikki varaq qog'oz orasiga joylab, so'ngra ehtiyyotkorlik bilan qadoqlash zarur;

- tolalarning yo'qolishiga olib keluvchi silkitish, tozalash, yuvish va boshqa harakatlarga yo'1 qo'ymaslik lozim;

- kiyimning olinishi bilan bir vaqtida jabrlanuvchi (shu jumladan, murda), gumon qilinuvchining tirnoqlari namunalari olinishi lozim;

- pichoq va qotillik qurollari tekshiruv va ekspertizaga yo'llash davomida tolali obyektlarga (kiyim, dasturxon, lattalar va h.k.) tegishi mumkin emas;

- tolalar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan predmetlarni (sovuv qurol, TVning ajraluvchi qismlari va boshqalar) shunday qadoqlash lozimki, bunda undagi mavjud bo'lgan begona mikrotolalar tashish vaqtida yo'qolib qolishiga yo'1 qo'ymaslik kerak.

Tolali obyektlarni taqqoslash tadqiqotlari maqsadidagi vazifalarni bajarish davomida barcha ashvoyiy dalillar birinchi navbatda mikrotolalar



ekspertizasiga yo'llanishi zarur, chunki sudtibbiy ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng tolalar yo'qolishi yoki kiyimning taqqoslanuvchi predmetlari bir-biriga tegishi mumkin, bu esa ekspertlar oldiga qo'yilgan vazifaning noto'g'ri bajarilishi va noxolis xulosa chiqarilishiga olib keladi.

Tolali materiallar va kiyimlarning yong'indan qolgan qoldiqlarini olishda ayniqsa alohida ehtiyojkorlik zarur bo'ladi.

Mo'rt obyektlarning mumkin qadar butunligi saqlanishini ta'minlash maqsadida alanga yoki pechka ichidagi kul, yonish qoldiqlarini titkilash, undan kulning alohida qismlarini olish, yonmay qolgan kiyim qismlarini, metall furniturani olish tavsiya etilmaydi. Yonq'indan o'chog'i kurak yoki xokandoz yordamida imkon qadar ehtiyojlik bilan butunligicha olinib, tagi qattiq idishga olib o'tiladi.

Yoqilg'i moylash materiallari (YMM) va neft mahsulotlari (NM) izlarini aniqlash bo'yicha ekspertiza bir vaqtida tayinlanganda, tolali materiallarning yong'indan qolgan qoldiqlari solingen idish gazli faza uchib ketishining oldini olish maqsadida zinch yopiluvchi polietilen paketga joylandi.

Voqealoyini ko'zdan kechirish va ashyoviy dalillarni olish bo'yicha bayonnomalarning nusxalarini bat afsil bayon qilingan holda taqdim qilish tadqiq qilinayotgan obyektlarning kelib chiqishi, saqlanishi va foydalanilishi to'g'risidagi

ma'lumotlar ekspert ekspertizani to'g'ri tashkil qilish va o'tkazish, natijalarni baholash va ishonchli xulosalarni shakllantirishi uchun zarur bo'ladi.

O'TF bo'yicha masalani hal etish davomida jabrlanuvchi yoki gumon qilinuvchi kiyimining jinoyat sodir etilgan vaqtida boshlab ekspertizaga yo'llashga bo'lgan vaqtida saqlanish sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ekspert tekshirish uchun taqdim etilgan kiyimlarning kiyilgani yoki kiyilmaganligi, uning tozalanganligi, yuvilganligi, kimyoviy tozalangani yoki saqlanishda bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi zarur.

Tolali materiallar ekspertizasining samaradorligi yuqoridagi qoidalarga amal qilgan holda ko'p jihatdan tergov organlari xodimlarining tezkor ishlashiga va tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi.

Tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning kriminalistik ekspertizasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni aniqlashtirish zarur bo'lgan hollarda yoki mazkur ekspertizani tayinlashda boshqa qiyinchiliklar, ekspertga topshiriq berish, uni o'tkazish uchun materiallarni taqdim etish tartibi bo'yicha bat afsil maslahatni RSEMda olish mumkin.

Manzil: 100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 46-uy. Telefon: 71 209 11 55.

## ADABIYOTLAR

1. Пучков В.А. Криминалистическое исследование волокнистых материалов и изделий из них. Вып. I, II. – Москва, 1983.
2. Текстильные волокна – источник розыскной и доказательственной информации. Часть III. Иллюстрированное приложение. – Москва: - Берлин, 1982.
3. Назначение криминалистической экспертизы объектов волокнистой природы и подготовка материалов для ее производства. Информационное письмо. – Ташкент, 2006.
4. Мамедова Е.А., Пак А.И. Криминалистическое исследование полиакрилонитрильных волокон, окрашенных катионными красителями различных марок. Методические рекомендации для экспертов. – Ташкент, 2016.
5. Zamonaviy ekspertiza imkoniyatlari. Sud ekspertizaning imkoniyatlari va uni tayinlash to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent.: Adolat, 2009.

## ANNOTATSIYA

**SENATNING IJRO  
HOKIMIYATI FAOLIYATI  
USTIDAN PARLAMENT  
NAZORATINI AMALGA  
OSHIRISHNING  
HUQUQIY ASOSLARI**

**HOTAMOV**  
*Homid Sulaymonovich,  
 Jamoat xavfsizligi universiteti  
 mustaqil tadqiqotchisi*

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarning rivojlanish davri, bosqichlari va tizimi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning tarixiy shart-sharoitlari, parlament nazorati faoliyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari olib berilgan.

**Kalit so'zlar:** fundamental asoslar, chaqiriq, referendum, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, axborot eshitish, parlament so'rovi, senator so'rovi, «o'lik harflar», ma'ruza eshitish, parlament tekshiruvi instituti.

## АННОТАЦИЯ

В статье описаны развитие системы нормативно-правовых документов, связанных с осуществлением парламентского контроля Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан за деятельность исполнительной власти, исторические условия возникновения и принятие нормативных правовых документов, этапы развития парламентского контроля.

**Ключевые слова:** фундаментальные принципы, созыв, референдум, демократические реформы, гражданское общество, информационные слушания, парламентский запрос, сенаторский запрос, «мертвые письма», слушания лекций, институт парламентских расследований.

## ANNOTATION

The article describes the development period, stages and system of regulatory legal documents related to the implementation of parliamentary control of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan over the activities of the executive power, as well as the historical conditions for the adoption of regulatory legal documents, the stages of the historical development of parliamentary control.

**Key words:** fundamental principles, convocation, referendum, democratic reforms, civil society, information hearing, parliamentary inquiry, senatorial inquiry, «dead letters», lecture hearing, parliamentary investigation institute.

Respublikasining O'RQ-284-sonli qonuni bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ushbu o'zgartish va qo'shimchalar demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, davlat hokimiyatining uchta subyekti: davlat boshlig'i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtaсидаги vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, shuningdek, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirish maqsadida kiritilgan<sup>1</sup> bo'lib, ushbu islohot asosida ilk bor O'zbekiston parlament tarixida palatalar tomonidan 2012-yil 4-iyul kuni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlari eshitilib, muhokama qilingan.

Bundan tashqari, ushbu davrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga) qonun (O'zbekiston Respublikasining qonuni, 16.04.2014-yildagi O'RQ-366-son) qabul qilingan bo'lib, u orqali Konstitutsiyada parlament nazoratiga oid ta'sirchan mexanizmlar mustahkamlangan.

Ushbu o'zgartish va qo'shimchalardan ko'zlangan maqsad O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, ushbu davr 2016-yil 11-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni ham qabul qilinganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu davrni Senatning parlament nazorati sohasidagi vakolatlarini aniq amalga oshirish mexanizmlariga bag'ishlangan deb qayd etgan holda shartli ravishda 2011–2017-yillarga ajratish mumkin.

**Uchinchi bosqich** Harakatlar strategiyasi va uni amalga oshirish davrini ya'ni 2017–2023-yillarni qamrab oladi. Jumladan, ushbu davrda 2019-yil 5-martdagi "Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda.

Oliy Majlis Senatining ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning normativ-huquqiy asoslari rivojlanish davri o'zining bosqichma-bosqichligi bilan ajralib turadi.

Xususan, **birinchi bosqich** parlament nazoratining rivojlanish davri fundamental asoslari shakllantirilgan davr sifatida baholanib, uni shartli ravishda 2003-yildan 2010-yilga qadar deb aytish mumkin.

Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Ya'ni ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi XVIII – XX, XXIII boblariga taalluqli hamda kelgusi chaqiriqda O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risida masalalar yuzasidan 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining qarorlari bilan bog'liq.

Referendum qarorlariga muvofiq "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining assosiy prinsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatosi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish uchun asos hisoblanadi.

**Ikkinci bosqich** 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) O'zbekiston

bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-527-sonli qonun bilan Konstitutsianing 79-moddasi 4-bandiga parlament nazorati sohasida Oliy Majlisning vakolatlari kengaytirilgan.

Bundan tashqari, ushbu Konstitutsiyaviy qonun bilan O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi 432-II-sonli konstitutsiyaviy qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi 523-II-sonli qonuniga ham parlament nazorati sohasidagi Senat vakolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha jiddiy o'zgartishlar kiritilgan.

Ushbu davrda qabul qilingan muhim hujjatlardan biri sifatida

2020-yil 10-avgustdagi "Qonun ijodkorligi hamda parlament nazorati jarayonlari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-631-son qonunini alohida ko'rsatib o'tish zarur.

Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi va "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonunlarga hukumat a'zolarining, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish, parlament so'rovi va senator so'rovi, uni amalga oshirish mexanizmlariga oid tartib-taomillar aniq belgilangan.

**To'rtinchi bosqich** 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumini va u asosida qabul qilingan Konstitutsiya va bugungi kunga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Yangi Konstitutsiya normalarida asosiy e'tibor Oliy Majlis palatalarining hukumat faoliyati ustidan, umuman parlament nazorati bo'yicha funksiyalari va ularni amalga oshirish shakllarini aniq belgilashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu davr hali davom etmoqda, umumxalq

muhokamasi asosida qabul qilingan Konstitutsiya normalaridagi Oliy Majlisning parlament nazorati funksiyalarini qonunchilikka tatbiq qilish, amaldagilarini o'zgartirish ishlari davom etmoqda.

Parlamentga davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarini saylash va tayinlash vakolatlarining berilganligi, o'z navbatida parlament tomonidan ushbu subyektlarning ish faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilib borish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu o'rinda yagona xalq suvereniteti g'oyasining tarafdoi J.J. Russoning ta'kidlashicha, "parlament millat va xalq irodasini aks ettiruvchi idora bo'lganligi uchun ham xalq nomidan nazorat-tekshiruv funksiyasini bajaradi"<sup>3</sup>.

Fransuz tadqiqotchisi B.Shantebuning fikricha, "Parlament nazorat funksiyasi orqali o'zining birlamchi funksiyasi hisoblangan qonunchilik funksiyasini ta'minlaydi"<sup>4</sup>. M.Lesaj ham parlament nazoratining ahamiyati masalasida fikr yuritib, qonunni chiqargan organ uning ijrosini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmasa, qonun "o'lik harflar"ga aylanib qolishini ta'kidlaydi<sup>5</sup>. Mamlakatimiz olimlaridan E.X.Xalilov qonunchilik organi faoliyatining aniq maqsadlar qatoriga nazorat funksiyasi orqali qonunchilikdagi kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish maqsadini ham kiritadi<sup>6</sup>.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun esa o'z navbatida mustahkam normativ asosni ishlab chiqish talab qilinadi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan Konstitutsianing 93-moddasida Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlarida parlament nazorati sohasida qo'shimcha vakolatlar nazarda tutildi. Jumladan, Vazirlar

<sup>3</sup> Руссо Ж. Ж. Об общественном договоре, или принципы политического права. – Litres, 2022.

<sup>4</sup> Халилов Э. X Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма. – Т.: Узбекистон, 2001. – С. 215

<sup>5</sup> Лесаж М. Права человека, правовое государство и европейское правовое пространство //Права человека в истории человечества и в современном мире. – 1989. – С. 147.

<sup>6</sup> Халилов Э. X Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма. – Т.: Узбекистон, 2001. – С.214



Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish; O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi milliy ma’ruzani eshitish; parlament tekshiruvini o’tkazish nazarda tutilgan<sup>7</sup>.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada parlament palatalari, jumladan Senat vakolatlari doirasida belgilangan parlament nazoratining yangi shakli bu shubhasiz parlament tekshiruvi instituti sanaladi.

Parlament tekshiruvini o’tkazish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari orasidan tenglik asosida maxsus komissiya tuzilib, u o‘z faoliyatini qonunga muvofiq amalga oshiradi<sup>8</sup>, deb belgilangan.

<sup>7</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

<sup>8</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

Xulosa qilib aytganda, Senatning parlament nazorati – ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish darajasini o‘rganish, qonun hujjatlari qoida-talablarini ijro hokimiyati organlari va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan hayotga tatbiq etish holatini kuzatish, qonunlarni ijro etish jarayonida mavjud to‘siq va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid tegishli tavsiyalar berish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy faoliyatdir.

Ushbu tashkiliy-huquqiy faoliyat mustahkam va amalda yashovchi qonunchilik hujjatlari bilan qo‘llab-quvvatlanmas ekan, samarali parlament nazoratiga asoslangan Oliy Majlisni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Лесаж М. Права человека, правовое государство и европейское правовое пространство // Права человека в истории человечества и в современном мире. – 1989. – С. 147.
2. Руссо Ж. -Ж. Об общественном договоре, или принципы политического права. – Litres, 2022.
3. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2011-yil 19-apreldagi 76 (5243)-soni.
4. Халилов Э. X Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – С.214
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.
6. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

**ANNOTATSIYA**

# **REFERENDUMNING HUQUQIY OQIBATLARI VA DEMOKRATIYANING BOSHQA INSTITUTLARI**

**FARMANOV**

*Zafar Nizomovich,*

*Adliya vazirligi Ijro nazorati va  
murojaatlar bilan ishlash  
boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i*

Mazkur maqolada referendumning konstitutsiyaviy va huquqiy mohiyati obyektiv va subyektiv ma’noda ko‘rib chiqiladi. Referendum xalq tomonidan hokimiyatni amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy shakli bo‘lib, xalqning asosiy huquqi va shunga mos ravishda konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** referendumning konstitutsiyaviy va huquqiy mohiyati, “referendum” institutining obyektiv va subyektiv tomonlari, xalqning referendum huquqining subyekti, siyosiy va ilmiy doiralarda referendum.

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается конституционно-правовая природа референдума в объективном и субъективном смысле. Референдум является конституционно-правовой формой осуществления власти народа и выступает как основное право народа и соответственно как одна из составляющих конституционного строя.

**Ключевые слова:** конституционно-правовая природа референдума, объективные и субъективные аспекты института “референдум”, субъект права народа на референдум, референдум в политических и научных кругах.

**ANNOTATION**

This article examines the constitutional and legal nature of the referendum in an objective and subjective senses. Referendum is a constitutional-legal form of exercise of power by the people, and it appears as a fundamental right of the people and, accordingly, one of the constituent parts of the constitutional system.

**Key words:** constitutional and legal nature of the referendum, objective and subjective aspects of the «referendum» institution, subject of the people’s right to referendum, referendum in political and scientific circles.

Mazkur maqolada referendumning konstitutsiyaviy va huquqiy mohiyati obyektiv va subyektiv ma'noda ko'rib chiqiladi. Referendum xalq tomonidan hokimiyatni amalga oshirishning konstitutsiyaviy-huquqiy shakli bo'lib, xalqning asosiy huquqi va shunga mos ravishda konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Oxirgi holat referendumning obyektiv ahamiyatini ko'rsatadi, bu esa, bir tomondan, xalqning **referendum** o'tkazish huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish choralarini ko'rishni davlatdan talab qilish huquqida ifodalanadi.

**Ikkinci tomonidan**, bu huquqni tartibga solish, himoya qilish va himoya qilishni ta'minlash davlatning mas'uliyati hisoblanadi. **Subyektiv ma'noda** referendum har bir fuqaroning uni tayyorlash va o'tkazish, ovoz berish va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan unda ishtirok etish huquqini belgilaydi. Subyektiv huquq davlat organlari va mansabdar shaxslarning maqomini kafolatlash majburiyatini keltirib chiqaradi. Fuqaroning va ushbu konstitutsiyaviy imkoniyatning egasi bo'lgan shaxs sifatida va ularni amalga oshiruvchi shaxs sifatida.

Maqsad: tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash; "**referendum**" konsepsiyasini ishlab chiqishga ilmiy yondashuvlarning qiyosiy retrospektiv tahlilini berish; demokratiya hodisasi sifatida "**referendum**" institutining obyektiv va subyektiv tomonlari jamiyatda huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari bilan moddiy darajada bog'langanligini ko'rsatadi. Usullari: dialektik metod universal ilmiy vosita sifatida; bilishning umumiyligi ilmiy (tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, tizimli-strukturaviy tahlil) va alohida ilmiy (formal-huquqiy, formal-mantiqiy, struktura-funksional) usullari.

Natijalar: "**referendum**" tushunchasining konstitutsiyaviy mazmuni obyektiv (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 3-moddasi) va subyektiv (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 32-moddasi) jihatlarida belgilanadi; **xalqning referendum huquqining subyekti**

sifatida, birinchidan, referendum jarayonida fuqaroning ishtirokchi sifatidagi asosiy vakolatlarini belgilab berdi; referendumga qo'yilgan masalalar bo'yicha aholi o'rtasida so'rov o'tkazish va ularni umumxalq ovoz berishning (saylov muhokamasi referendumi) majburiy dastlabki bosqichlari sifatida muhokama qilish zarurligi asoslab berilgan. Xulosa: **obyektiv ma'noda referendum** xalqning asosiy huquqi va konstitutsiyaviy huquqiy tuzumning mazmunli tarkibiy qismidir.

Mazkur holatga ko'ra, xalq davlat, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va vakolatli mansabdar shaxslardan referendum o'tkazish huquqini amalga oshirish, shu jumladan, xalqning referendum o'tkazish huquqini tartibga solish uchun choralar ko'rish va shart-sharoit yaratishni talab qilishga haqli. Subyektiv ma'noda referendum har bir huquqqa layoqatli fuqaroning referendumda ishtirok etish huquqining konstitutsiyaviy va huquqiy kafolatlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu huquq davlat hokimiyatini cheklaydi va uni shaxsning ushbu huquqni amalga oshiruvchi subyekt sifatidagi maqomini himoya qilish choralarini ko'rishga majbur qiladi.

**To'g'ridan-to'g'ri demokratiya institutlari orasida referendum** alohida o'rin tutadi. Bu, birinchi navbatda, referendumda qabul qilingan qaror, qoida tariqasida, eng yuqori yuridik kuchga ega ekanligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, aynan mana shu holat, referendum o'tkazish amaliyoti ham referendumda qabul qilingan qarorlar har doim ham jamiyatning tub manfaatlariga mos kelmasligini, ba'zan esa ularga zidligini ko'rsatadi.

Siyosiy va ilmiy doiralarda referendum ikki tomonlama siyosiy va huquqiy vosita: konstruktiv va buzg'unchi vosita sifatida qabul qilinadi. Buyuk rus yozuvchisi Ivan Buninning so'zlariga ko'ra, "xalq daraxtga o'xshaydi: ikona ham, tayoq ham undan olinadi".

Fuqarolarning **referendumda** ishtirok etish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishni tartibga soluvchi samarali qonunchilikni yaratish murakkabligi shu bilan izohlanadi. Rossiya Federatsiyasida nisbatan qisqa tarixiy davr uchun "Rossiya Federatsiyasi referendumi to'g'risida" federal konstitutsiyaviy qonunning ikkita varianti allaqachon qabul qilingan.

Ikkinchisi ekspertlar hamjamiyatida ham, butun aholi orasida qizg'in muhokamalar va noaniq baholarga sabab bo'ldi. Ushbu qonunning alohida qoidalari Rossiya federatsiyasi ronstitutsiyaviy sudida ko'rib chiqilishi kerak.

Xalq tashabbusini amalga oshirish qonun loyihasini parlament deputatlari tashabbusi bilan qabul qilishdan deyarli farq qilmaydi. Qonun loyihasi moddama-modda yoki umumiy tilaklar tarzida (rasmiylashtirilmagan tashabbus) uni ko'rib chiqadigan tegishli vakillik organiga kiritiladi.

Odatda, bunday tashabbus alohida afzalliklarga ega emas, chunki har bir deputat saylovchilarining ma'lum sonini, ba'zan esa xalq tashabbusiga ko'ra qonun loyihasini kiritish uchun zarur bo'lgan imzolardan ham ko'proq ovoz beradi.

Referendumda qabul qilingan qarorlarning xalq tanlovi va umumxalq vetosi tartib-qoidalari ni qo'llashdagi huquqiy oqibatlari masalasi ularning yuridik kuchining vakillik organi – parlament, ta'sis etuvchi organi tomonidan qabul qilingan qarorning yuridik kuchi bilan bog'liqligi muammosi bilan bog'liq majlis yoki boshqa saylangan organ.

Bu muammo, ayniqsa, konstitutsiyani qabul qilish va unga o'zgartirishlar kiritishda ko'zga tashlanadi. Tashqi ko'rinishiga ko'ra, **agar asosiy qonun** referendum yo'li bilan qabul qilinsa, uning normalari ham xuddi shunday o'zgartirilishi kerak; agar konstitutsiya vakillik organi tomonidan tasdiqlansa, unga o'zgartirish kiritish huquqi faqat parlamentga berilishi kerak. Xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligi va fundamental qonunlarga o'zgartirishlar kiritish amaliyoti bu mantiqiy konstruksiyalarga umuman amal qilmaydi, bu borada turli talqinlar mavjud.

Misol uchun, Fransiyaning 1958-yilgi Konstitutsiyasi referendum yo'li bilan qabul qilingan bo'lib, **o'zgartirishlarni** ratifikatsiya qilish ham referendumda, ham parlamentning birgalikdagi palatalarida – Kongressda amalga oshirilishi mumkin. 1947-yilgi Italiyaning amaldagi asosiy qonuni ta'sis assambleyasi tomonidan tasdiqlangan, ammo bu konstitutsiya parlament tomonidan o'zgartirilishi mumkin; ammo, uning 138-moddasi, agar o'zgartirishlar e'lon qilinganidan keyin uch oy ichida parlament palatalaridan biri yoki beshta hududiy kengash a'zolarining beshdan bir qismi referendum





o‘tkazishni talab qilsa, referendum o‘tkazish imkoniyatini belgilaydi.

Agar har bir palatada ikkinchi ovoz berishda qonun ularning a’zolarining uchdan ikki qismi tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, referendum o‘tkazilmaydi. Ta’sis assambleyasi tomonidan qabul qilingan 1976-yilgi Portugaliya Konstitutsiyasiga parlament tomonidan o‘zgarishlar kiritiladi.

Ommaviy veto qo‘llanilishi natijasida vakillik institutidan kelib chiqadigan har qanday aktning bekor qilinishi yetarlicha mantiqiy ko‘rinadi. Ushbu institut qaysidir hududiy birlik saylov korpusi tomonidan tuzilganligi sababli, saylovchilar qabul qilingan aktlar taqdiri haqida o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin. Shu bilan birga, har doim ommaviy veto tartibini qo‘llashda ovoz berish mumkin bo‘lmagan qonunlarning ayrim toifalariga cheklovlar qo‘yiladi.

Ushbu qarorlarning orqaga qaytish kuchi to‘g‘risidagi masala ovoz berish yo‘li bilan

qabul qilingan qarorlarning yuridik kuchi bilan bog‘liq. Asosan, qabul qilingan qaror o‘z ta’sirini kelajakka uzaytiradi, garchi unga orqaga qaytish kuchini ham berish mumkin. Biroq, amaldagi qonunga nisbatan ommabop veto qo‘yish tartibini muvaffaqiyatli qo‘llash natijasida qaror orqaga qaytish kuchiga ega bo‘ladi, deb taxmin qilish qiyin. Misol uchun, agar 1974-yilda Italiyada ovoz berish ajralish to‘g‘risidagi qonunni bekor qilgan bo‘lsa, bu qonun qabul qilingan vaqtidan u bekor qilingan vaqtgacha bo‘lgan barcha ajralishlar avtomatik ravishda bekor qilinadi degani emas.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya institutlarining tarqalishi va ularning xilma-xilligi davlat hokimiyatini amalga oshirishda ma’lum bir demokratlashuvni aks ettiradi. Ushbu demokratiyaning ayrim shakllari (referendum, xalq tashabbusi) saylovchilarga qonun ijodkorligiga faol ta’sir o‘tkazish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 203.
2. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi <https://lex.uz/docs/-4386848>
3. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-81253?ONDATE=14.03.2022%2000>

## ANNOTATSIYA

# **GLOBAL LASHUV SHAROITIDA DESTRUKTIV VA TOTALITAR SEKTALAR TAHDIDLARINING NAMOYON BO'LISHI**

**KURANOV**  
*Umid Muxammadovich,  
 Respublika Ma'naviyat va ma'rifat  
 markazi huzuridagi Ijtimoiy-  
 ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil  
 tadqiqotchisi*

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida destruktiv va totalitar sektalar tahdidlarining namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada dunyo hamjamiyatini destruktiv va totalitar sektalar faoliyati tashvishga solayotgani, sektantlikning ijtimoiy namoyon bo'lishi bir qator muammolarni keltirib chiqarishga zamin yaratayotganligi ilmiy jihatdan yorilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, destruktiv, totalitar, sekta, tahdid, missionerlik, prozelitizm, ekspansiya, manipulyatsiya.

**АННОТАЦИЯ**

В статье научно анализируется угроза деструктивных и тоталитарных сект в условиях глобализации. Также освещено то, что мировое сообщество обеспокоено деятельностью деструктивных и тоталитарных сект, а социальные проявления сектантства создают основу для ряда проблем.

**Ключевые слова:** глобализация, деструктивная, тоталитарная секта, угроза, миссионерская, прозелитизм, экспансия, манипуляция.

**ANNOTATION**

In this article, the threat of destructive and totalitarian sects is scientifically analyzed in the context of globalization. The article also scientifically highlights the fact that the world community is concerned about the activities of destructive and totalitarian sects, and social manifestations of sectarianism create the basis for a number of problems.

**Key words.** globalization, destructive, totalitarian, sect, threat, missionary, proselytism, expansion, manipulation.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda dunyo miqyosida destruktiv va totalitar sektalar faoliyatini murakkab, qo‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, XXI asrda turli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra, destruktiv(buzg‘unchi)vatotalitar(ijtimoiy xavfli) sektalar yanada faol harakat qilishga intilmoqda. Hozir dunyo hamjamiyatini destruktiv va totalitar sektalar faoliyatini tashvishga solayotgani sir emas. Dunyo miqyosida sektantlikning ijtimoiy namoyon bo‘lishi bir qator muammolarni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda.

Destruktiv va totalitar sektalar insonlar ongini nazorat qilishda ekspansiya va manipulyatsiya vositalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Xususan, missionerlik faoliyati bilan faol shug‘illanayotgan sektalar insonlarga psixologik, moliyaviy va jismoniy zarar yetkazishi oqibatida sekta a’zolarining hayotiy faoliyatini doimo nazorat qilishga intiladi. Totalitar sektalar o‘zining yangi a’zolarini sekta ta’limotiga ko‘ra bo‘ysinuvchan, itoatkor insonga aylantirish uchun turli xil usullarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Totalitar sektalar ta’limotida sektantlar yoki sekta yetakchilarining maxsus mansabga ega ekanligi ular jamiyatdagi boshqa insonlarga nisbatan ustun deya ta’kidlanadi. Totalitar sektalar aksariyat hollarda o‘zining yangi a’zolarini tashkilotga jalb etishda tashkilotning asl maqsadlarini yashirgan holda yangi a’zolarni jalb etishda yolg‘on usullarni qo‘llashadi. Totalitar sektalar insonlarning qalbi, ongi va irodasini bo‘ysundirish orqali fuqarolarga dunyo miyosida go‘yoki “baxt-saodat”, “omad”, “tinchlik”ka erishuv yo‘lida, moddiy jihatdan “beg‘araz” yordam ko‘rsatishlarini va’da qiladi. Sektalar odadta moliyaviy jihatdan katta sarmoyaga ega bo‘lib, o‘z pul mablag‘larini asosan insonlarni sektaga jalb etishga sarflashadi. Sektaga jalb qilingan yangi a’zolarga qimmatbaho sovg‘alar, xorijga chiqish uchun “moliyaviy yordam” ko‘rsatish va’da qilinadi. O‘z navbatida, sekta ta’limotida sektantlardan tashkilot faoliyatini rivojlantirish maqsadida “umumiy faoliyat”

uchun moddiy mablag‘lar yig‘ish talab etiladi. Sektaning yangi a’zolari qattiq nazorat ostida bo‘lib, ularning mustaqil fikrlashi va yangi rejalar tuzishi taqiqланади.

Totalitar sektalar ta’siriga tushgan insonlar o‘zligini yo‘qotib, ruhiy tushkunlik oqibatida o‘z yaqinlari hamda real hayotdan uzoqlashadi. Totalitar sektalar faoliyatida sekta a’zolarini doimiy tarzda o‘z yetakchisi va sektantlarning o‘zaro tushunishi birlashtiradi. Sektalarning maqsadi insonning tashqi dunyodan aloqasini uzishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Aksariyat sektalar insonlarni bo‘ysundirishda psixotrop moddalar hamda psixiotexnika vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratadi.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Bugungi kunda ayrim sektalar xalqaro miqyosda nodavlat notijorat tashkilotlar maqomida faoliyat yuritmoqda. Shu o‘rinda, jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan destruktiv va totalitar diniy tashkilotlarning faoliyatida quyidagi buzg‘unchi belgilarini amalga oshiruvchi holatlarga e’tibor qaratish lozim:

- ongni beqaror qilish;
- o‘taketgan moliyaviy talablar (yig‘imlar);
- o‘tmishdan majburiy ravishda uzish;
- jismoniy sog‘liqqa tajovuz qilish;
- bolalarni jalb qilish;
- jamiyatga qarshi fikr bildirish;
- jamoat tartibini buzish;
- jiddiy ayblarga ko‘ra sudga yoki tergovga jalb qilish;
- iqtisodiy faoliyat me’yorlarini buzish (mablag‘larni sir saqlash);
- hokimiyat idoralariga kirishga intilish. Binobarin, destruktiv va totalitar diniy tashkilotlarning faoliyatida mazkur holatlar kuzatilsa, ushbu diniy tashkilotni sekta deya hisoblash mumkin[1].

Shu o‘rinda qayd etish joizki, sektaga nomzodlarni jalb etishda yollovchilar mohirlik bilan yondashadi. Ayniqsa, sektantlar jamiyat hayotida beqaror va noqulay ijtimoiy hamda ruhiy tushkunlik holatida bo‘lgan insonlarga alohida e’tibor qaratadi. Xususan, dam olish maskanlarida (ta’til, sayohat, ko‘ngilochar joylar) bo‘lganlar, oliy o‘quv yurtlari talabalari (asosan birinchi va

oxirgi kurs talabalari), keksa insonlar (nafaqaga chiqqan va uzoq vaqt yolg'izlikda bo'lganlar), sodda va ishonuvchan yoshlar(o'zligini anglash davrida), tushkunlik holati(xastalik, o'lim, o'z yaqinlaridan ajrashish)dagi muhojirlar, qochoqlar, ishsiz, umuman do'stona munosabat, aloqa o'rnatishga ehtiyoji bo'lgan fuqaro bunday e'tiborning obyekti hisoblanadi[2].

Dunyo miqyosida jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga xavf tug'dirayotgan sharqona destruktiv diniy tashkilot sifatida "Transsidental meditatsiya" (TM) tashkilotini qayd etish lozim. Mazkur diniy tashkilotga 1952-yilda AQSHning Kaliforniya shtatida Maxarishi Maxesh Yogi tomonidan asos solingan. Uning asl ismi Maxesh Prasad Varma bo'lib, u 1911-yilda soliq xizmatchisi oilasida dunyoga kelgan. 1942-yili Ollohabod universitetining muhandislik fakultetini tugatgan.TM rivoyatlariga ko'ra, Maxarishi Himolay tog'inining g'orlarida 2 yil davomida o'zining yangi meditatsiya usulini kashf qilgan. Maxarishi o'z usulini Hindistonda keng miqyosda targ'ib etishga harakat qilgan. Ammo kuchli raqobat tufayli maqsadiga erisha olmagan. Shu tariqa Maxarishi o'z faoliyatini yoyish maqsadida Kaliforniyaga boradi. U yerda "Bitlz" guruhi a'zosi Jorj Harrison bilan yaqindan tanishadi. Mazkur uchrashuv kelajakda TM keng miqyosda faoliyat ko'rsatishiga va Maxarishi juda mashhur bo'lishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, uning meditatsiya usullari ancha qimmat bo'lib, uni oddiy talaba yoki chilangar sotib ololmas edi. O'z navbatida, Maxarishi tomonidan "Xalqaro talabalar meditatsiya jamiyatii" tashkiloti tuzilishi G'arbda yoshlarning sharqqa bo'lgan qiziqishini ortirdi. Maxarishi TM din emas, balki "ilmiy" va "psixologik" usul ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, Maxarishi go'yoki talabalarga pullik meditatsiya qilish orqali yaxshi baho olishni, yaxshi ish topishni va'da qilardi. Ammo meditatsiya jarayonida ruhiy tomon inobatga olinmas edi. Bir necha yil o'tib TMda o'qituvchilar soni 6000 taga tashkil etib u yiliga 20 mln AQSH dollari miqdorida daromad keltira boshlagan[3].

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Bugungi kunda, ayrim totalitar sektalar dinni niqob qilishga intilsa, TM tashkiloti esa, aksincha, dindan yiroqligini, bu faqatgina ilmiy meditatsiya ekanligini ta'kidlaydi. Tashkilot rahbari Maxarishi

Yogi o'zining tashkilotini keng targ'ib etishda sektaning biron-bir din bilan o'zaro aloqador emasligini, insonlarni sog'lomlashtirish yo'lida amalga oshirayotgan ilmiy tibbiy usul ekanligini alohida ta'kidlaydi. Tashkilotning meditatsiya jarayonida mijozning qiziqishiga qarab folklyor marosim (Pudja) o'tkazishiga alohida e'tibor qaratiladi[4]. Shu o'rinda, Maxarishining fikriga ko'ra, "bugungi kunda siyosat odamlar taqdirini boshqaradi. Shuning uchun ta'limot birinchi o'rinda siyosatga, keyin esa iqtisodiyotga kirib borishi kerak".

Bugungi kunda buzg'unchi sektalarni ba'zan kultlar deb ularning faoliyatini huquqiy mexanizmlar bilan cheklashadi. Masalan, sayentologiya cherkovining faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Daniyada sayentologiya diniy maqomini yo'qotdi. Kanadada sayentologiya katta jarimaga tortilgan bo'lsa, Italiyada sayentologiya jinoiy tashkilot sifatida tan olinib, uning 29 a'zosi sudlangan. Ispaniyada jinoiy ish qo'zg'atildi. Germaniya va Fransiyada Sayentologiya jinoiy tashkilot sifatida tan olingan[5].

Shu bilan birga Fransiya hukumati tomonidan Lion va Marsel shaharlaridagi sayentologlarning faoliyati o'rganilganda, sekte rahbarlarining tovlamashilik, firibgarlik va qalloblik faoliyatları aniqlangan. Sekta o'z faoliyatida insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlarni uyushtirishi natijasida fuqarolarning o'z joniga qasd qilishi, o'zini-o'zi o'ldirish kabi holatlar ko'r bora kuzatilgan.

Qo'shma Shtatlarda esa, Sayentologiyaga qarshi ayblovlar va sud qarorlari mavjud. Gretsiyada Afina sudi 1997-yilda sayentologiyaning mamlakatdagi faoliyatini taqiqlagan. Sayentologiyaning jinoiy ishlari shu tarzda davom ettirilishi mumkin. 1994, 1996 va 1999-yillarda Yevropa Parlament Assambleyasi mazhablar va yangi diniy oqimlar to'g'risida rezolyutsiyalarini qabul qildi. Hujjatlarda sekte va diniy oqimlar faoliyatidan xavotir bildirilgan va ularga mamlakat oldida turgan xavf-xatarlarni tushuntirishga harakat qilingan.

Yevropa Ittifoqida inson huquqlari buzilishining turli ko'rinishlari mavjud: oiladagi zo'ravonlik, jinsiy oriyentatsiya, odam savdosи, zo'ravonlikka undash, irqchilik, noqonuniy tibbiy xizmatlar. Rossiya Dinshunoslik markazi davlat idoralari va ommaviy axborot vositalari bilan

hamkorlikda yangi diniy oqimlarning ta'lomit va faoliyat haqida ma'lumot beradi, ta'lif bilan shug'ullanadi, adabiyotlar nashr etadi va tarqatadi, ma'ruzalar o'qiydi.

Markaz rahbari ilohiyotshunos A.Dvorkinning fikricha, "sektalardan chiqish yo'li unga qo'shilmaslik, uning ta'siriga tushmaslikdir". Xalqni mazhabchilardan oldindan ogohlantirib, to'g'ri ma'lumot berib, sektaga qayta-qayta da'vat qilish oqibati haqida ogohlantsak, odamlar ularning yolg'on so'zlariga ergashmaydi, deyishadi. Uning tadqiqotiga ko'ra, psixologik jihatdan shaxs asta-sekin sektaga kiradi. Avvalo, har kim o'zining butun umrini adashish, xato deb bilishi va tan olishi kerakki, avval oq bo'lgan bo'lsa, hozir qora, qora – oq, yomon – yaxshi, yaxshi – yomon. Ota-onas, oila, sobiq do'stler do'st emas, bu dushman ekanligini tushunish kerak. Shu tariqa odam ikkinchi bosqichga o'tadi, jamiyatdan ajrala boshlaydi, zaiflashadi, yodlangan ma'lum so'zlarni takrorlaydi, astasekin erkinligini yo'qotadi, itoatkor va so'zsiz bo'lib qoladi. Yakuniy bosqishda u butunlay yangi oqimga berilib ketganidan, qattiq ishlaydi, uyqu va hatto ovqat haqida ham unutishadi. Garchi barsha mazhablar bunday temir qoidaga asoslanmagan bo'lsa-da, ayrim rus olimlari bunday uyushmalar ko'pligini ta'kidlashadi[6].

1995-yil 23-dekabrdagi Fransiyada 16 kishi, ularidan 3 nafari go'daklar xavfli diniy oqimlar dastidan halok bo'lgan edi. Shu va boshqa voqealar munosabati bilan 1999-yil iyun oyida Yevropa parlamenti mazhablar bo'yisha maxsus rezolyutsiya qabul qildi. Unda bir qator sektalarning xavfli faoliyatiga e'tibor qaratildi. Nigeriyalik kardinal Frencis Arinze 1991-yilda yetmish beshta yepiskop konferensiyalari va besh qit'adan kelgan ekspertlarning tadqiqot materiallariga asoslanib, bir qator yangi dinlarni xavfli deb hisobladi. Kardinal Arinze ular nafaqat mamlakat yaxlitligiga putur yetkazishi va odamlarning ongiga ta'sir qilishini, balki ularni oilasidan, pul va mulkidan ham mahrum etishini ta'kidlagan.

Shuningdek, u "yangi" din vakillarining mamlakatni tark etishi taqiqlangani va ular xuddi asirga tushgandek jamiyatdan shetda qoldirilgani, bu sekta a'zolarining ommaviy o'z joniga qasd qilishlariga sabab bo'layotgani haqida dalillar keltirgan.

### Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Rossiya jamiyatidagi xavotirlar 1997-yilda dinlararo va davlat munosabatlarda katta o'zgarishlarga olib keldi. U juda liberal kursdan ma'muriy-tartibga solish yo'naliishiga o'tdi. Agar 1997-yilgacha Rossianing dinlar to'g'risidagi qonunchiligi umumiyl diniy yangilanishni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, endilikda yangi qonun dinlarni "an'anaviy" va "noan'anaviy" deb tasniflaydi va bir qator diniy oqimlarning qonuniylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik ushun zamin yaratadi. Shu tariqa davlatning diniy siyosati sohasida yangi standart vujudga keldi. Qonun xristianlik, islam, buddizm va iudaizm rus xalqining ajralmas tarixiy merosi sifatida hurmat qilinishini tan oldi. Asta-sekin u barcha MDH davlatlari tomonidan qabul qilindi. Sobiq Ittifoq va yangi mustaqil davlatlarning diniy erkinlik to'g'risidagi qonunlari xorijdan kelayotgan diniy oqimlarni cheklash va an'anaviy dinlarni himoya qilishga qaratilgan[7].

Armanistonda Arman Muqaddas Apostol sherkovi milliy cherkov sifatida tan olingan. 2007-yil aprel oyida Armaniston Respublikasida arman cherkovi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, arman cherkovi kasalxonalar, mehribonlik uylari, internatlar, harbiy qismlar va qamoqxonalarga o'z vakilini tayinlash huquqiga ega. Boshqa diniy guruqlar buni faqat davlat ruxsati bilan qilish imkoniga ega edi.

Ozarboyjon qonunchiligidagi ko'ra, "xorijliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar diniy targ'ibot bilan shug'ullanishlari mumkin emas"[8].

Ukraina qonunchiligining 24-moddasiga ko'ra, "missionerlik faoliyati faqat davlat organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi"[9].

Turkmaniston qonunchiligining 20-moddasiga ko'ra, xorijdan kirib kelayotgan diniy adabiyotlarni faqat ilmiy ekspertizadan so'ng tarqatishga ruxsat etiladi. Qonunning 8-moddasiga ko'ra, "oliv diniy ma'lumotga ega Turkmaniston fuqarosi diniy tashkilot rahbari bo'lishi mumkin"[10].

Belarus Respublikasi qonunining 22-moddasiga binoan, "adabiyot va boshqa materiallardan foydalanishga faqat diniy ekspertizadan so'ng ruxsat beriladi. Diniy tashkilot rahbari faqat Belarus Respublikasi fuqarosi bo'lishi mumkin"[11].

2003-yilda "Belarus Respublikasi va Belarus pravoslav cherkovi o'rtasidagi shartnoma

to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun Belarus pravoslav cherkovining belarus xalqining ma’naviy, madaniy va davlat an’analarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyatini hisobga olgan holda qabul qilindi.

Belarus pravoslav cherkovi Belarus davlatini ma’naviy va madaniy an’analarni saqlashning kafolati sifatida tan oladi. Jamoat tartibi, milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni ta’minalash bo‘yisha davlat bilan kelishuvga erishishdan manfaatdor ekanini tan oldi. Davlat va Belarus pravoslav cherkovi o‘rtasidagi kelishuvning asosiy yo‘nalishlari: jamiyatdagi axloqiy muhit, tarbiya va ta’lim, madaniyat, ijodiy faoliyat, tarixiy va madaniy merosni himoya qilish, sog‘liq, xayriya va mehr-oqibat, oila, onani va bolani himoya qilish, mahkumlar bilan ishlash, harbiy xizmatshilarni o‘qitish, ijtimoiy va psixologik ish, atrof-muhitni muhofaza qilish. Kelishuvga ko‘ra, qo‘sma dasturlar qabul qilingan. Belarus pravoslav sherkovi va turli vazirlıklar, shuningdek, yeparxiya va viloyat va tuman ijroiya organlari birgalikda harakat qilish rejalarini tasdiqladilar. Ular milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni ta’minalashda davlat bilan kelishuvga erishishdan manfaatdor ekanini tan oldi. Shunday qilib, bugungi kunda Yevropa va MDHning ko‘pgina davlatlarida totalitar oqimlarga qarshi qonun asosida murosasiz, keskin g‘oyaviy-ma’naviy kurash olib borilmoqda. Aholini totalitar oqimlar ta’siridan asrash asosiy masalalardan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislar “Sayentologiya cherkovi”, “Aum Sinrikyo”, “Krishnashilar”ning dasturiy hujjatlarida o‘zlarining ta’limotiga qarshi chiqqanlarni jisman yo‘q qilish to‘g‘risidagi qoidalar borligini ta’kidlashadi[12]. Shu o‘rinda, sayentologlar sekta manfaatlariga zid keladigan har qanday g‘oyalarga qarshi kurash uslubini qo’llash orqali tashkilot qonunlariga qarshi chiqqanlarga jiddiy choralar ko‘rishi qayd etiladi. Ayniqsa, aksariyat totalitar sektalar shaxsiy manfaatlarini qonundan ustun qo‘yishga intilib, o‘zlarining a’zolari o‘z oldilariga qo‘ylgan maqsadlari “haqqoniy” va “adolatli” ekanligiga ishonsalar-da, ular aldash, firibgarlik orqali insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishadi.

#### Xulosa va takliflar (Conclusion/Resomendations).

O‘rganishlarga ko‘ra, bugungi kunda totalitar

sektalar ta’siriga e’tiqodi sust, siyosiy va diniy bilimlari shakllanmagan yoshlar giriftor bo‘lishi namoyon bo‘lmoqda. Totalitar sektalar o‘zlarining ayyorona “puxta” ishlab chiqqan metodlarini qo’llab iqtidorli, serg‘ayrat va aqlli yoshlarni “ovlash” orqali go‘yoki, ularni “millat gullari”, “mamlakati kelajagi” sifatida e’tirof etadi. Natijada totalitar sektalar ta’siriga tushgan yoshlarning aksariyati oilaviy munosabatlar, jamiyat hayoti va mamlakat manfaatlaridan voz keshish orqali o‘zini ayrim diniy oqimlarga bag‘ishlamoqda.

Sektantlar internet, kompyuter grafikasi, ingliz tili to‘garaklari tashkil etib, yoshlarni o‘ziga jalb etadi. “Internet yoshlarning madaniy va ijtimoiy maslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Uning eng katta afzalliklari – zarur ma’lumot, bilim olish, ijodiy o‘sish, muloqotga kirishish va ish topish ushun maydonni kengaytirish imkoniyati” nihoyatda qulayligidadir.

Missionerlik tashkilotlarida “aql” so‘zi ahmoqona fikrlar va inson ichidagi kuchlarga ma’nodosh sifatida go‘yoki, u insonni Xudo va haqdan uzoqlashtiradi. Sekta doirasida “dunyo” so‘zi oqim faoliyatiga zid bo‘lganligi uchun jaholat deya hisoblanadi. Shu o‘rinda, sekta doirasida o‘rnatilgan axborot nazoratini “ta’minalash” orqali sektantlar faoliyatini o‘z nazoratiga olishga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur omil missionerlik tashkilotlari o‘z saflariga juda ko‘plab insonlarni jalb etish orqali tarafdarlar sonini ko‘paytirishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, zamonaliviy texnologiyalar yordamida inson ruhiyatiga juda kushli ta’sir ko‘rsatish orqali o‘zlarining mafkuraviy g‘oyalari bilan dunyoni zabt etishga harakat qilmoqda. Mazkur holat, “insonlarning ongi va qalbini ekspansiya qilish (zabt etish) orqali ularning ma’naviy dunyosini o‘zgartirib, zombi – manqurt”ga aylanishiga zamin yaratmoqda. Shu o‘rinda, destruktiv va totalitar sektalar ta’siriga tushgan yoshlarda bir qator salbiy holatlar, ya’ni shaxsiyat va intellektual tanazzul, o‘zgalar irodasiga ko‘rko‘rona bo‘ysunish, individuallikning yo‘qolishi, taraqqiyotdan to‘xtash, moddiy yo‘qotishlar kabi holatlar kelib chiqayotganligini anglash lozim.

Dunyo miqyosida missionerlik faoliyati bilan shug‘illanayotgan destruktiv va totalitar sektalar xavfini bartaraf etishda, eng avvalo, ma’naviy-mafkuraviy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish



muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda, mamlakatimizda mazkur harakatlarning oldini olishda aholi o‘rtasida keng ko‘lamli, aniq maqsadga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yisha amaliy natijalarga erishilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “**Yangi tahdidlar**”, **jumladan**, “**ommaviy madaniyat**”, **missionerlik**, **prozelitizm xavfi** va **boqimandalik kayfiyati**

**paydo bo‘layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda”**[13]. Zero, o‘zida yovuz va buzg‘unshi maqsadlarni targ‘ibot etuvchi destruktiv va totalitar sektalarning ta’siridan barchamiz sezgir, ogoh va hushyor bo‘lishni bugungi davr va zamon talab etadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Musayev M. Totalitar sektalarning ta’siri va buzg‘unchilik faoliyati oqibatlari. Ijtimoiy fikr – inson huquqlari jurnali. - T.: 2014. - № 1. – B. 98.
2. Волков Е.Н. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных культурах. // Журнал практического психолога. - М., 1996. № 3.
3. Дворкин А.Л. “Сектоведение” Трансцендентальная медитация понравилась многим, ибо предъявляла мало требований, но обещала большой эффект. Режим доступа: – <http://www.rarlab.com/>.
4. Станкевич Г.В. Религиозный фактор современного политического процесса: дисс. докт. полит. наук. - Пятигорск, 2012. - 417 с.
5. Матецкая А.В. и др. Религиоведение: учеб. пособие. – Ростов-на-Дону, 2009. – Б. 373-375.
6. Зверева В.А. Российское государство и религиозные конфессии: трансформация моделей взаимодействия: Федеральный и региональный уровни: дисс. канд. полит. наук: 23.00.02. - Воронеж, 2006. - 226 с.
7. Иностранцы и лица без гражданства в Азербайджане будут нести уголовную ответственность за религиозную пропаганду. Информационное агентство “Интерфакс-Азербайджан”. – <http://interfax.az/view/658285>.
8. Конституционно-правовые аспекты обеспечения свободы совести в Украине. <https://moluch.ru/archive/70/11921>
9. Закон Туркменистана от 26 марта 2016 года. О свободе вероисповедания и религиозных организациях. [https://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=84971](https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=84971).
10. Закон Республики Беларусь от 17 декабря 1992 года №2054-ХII. О свободе совести и религиозных организациях. [https://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=1854](https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=1854).
11. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Toshkentdagi simpoziumlar saroyida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // “Xalq so‘zi” online, 2016-yil 19-oktabr.

# JAMIYATDA MA’NAVIY HAYOTNI SOG‘LOMLASHTIRISH MEXANIZMLARI

*MEYLIYEV*

*Ulmas Farmonovich,  
O‘zbekiston Milliy universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyat ma’naviy hayoti haqida so‘z yuritilib, jumladan, bugungi globallashuv sharoitida milliy g‘oya va mafkuraga bo‘lgan ehtiyoj, shuningdek, jamiyat hayotiga salbiy ta’sir qilayotgan turli xil ma’naviy xurujlar va mafkuraviy tahdidlar hamda ularga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy muhit, ma’naviy tarbiya, globallashuv, mafkura, g‘oya, milliy g‘oya, millat, jamiyat, mafkuraviy tahdid, ma’naviyat, ma’naviy xuruj, madaniyat, ommaviy madaniyat, tahdid.

## АННОТАЦИЯ

В статье говорится о духовной жизни «сociety», в том числе о необходимости национальной идеи и идеологии в условиях современной глобализации, а также о различных духовных кризисах и идеологических угрозах, негативно влияющих на жизнь общества, и об эффективных механизмах борьбы с ними.

**Ключевые слова:** духовное образование, глобализация, идеология, идея, национальная идея, нация, общество, идеологическая угроза, духовность, традиционная атака, культура, массовая культура, угроза.

## ANNOTATION

This article talks about the spiritual life of “community”, including the need for a national idea and ideology in the context of today’s globalization, as well as various spiritual crises and ideological threats that negatively affect the life of society. and effective mechanisms of combating them are discussed.

**Key words:** spiritual education, globalization, ideology, idea, national idea, nation, society, ideological threat, spirituality, traditional attack, culture, popular culture, science, a threat.

Bugungi global makonda, o‘zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rnini va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas.

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor ularning muammolari birinchilardan bo‘lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markazida bo‘lib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o‘rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir<sup>1</sup>.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil qilindi<sup>2</sup>.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda, shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqaga va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

O‘zbekistondagi taraqqiyotning xarakter-

li xususiyatlaridan biri shiddat bilan kengayib borayotgan globallashuv jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy hayotning yalpi axborotlashuvidan iboratligidir. Qayd qilish lozimki, globallashuv va axborotlashuv o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan dialektik birlikdagi ijtimoiy voqelikdir. Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim, globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Global (fransuzcha, lotincha – yer shari) – insoniyat hayotiga tegishli muhim masalalarning majmuasini, ta’sir doirasini, qo‘llashni ifodalaydi, hozirgi davr ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotining taqdiriga daxldor masalalarning hal etilishi bilan bog‘liq. Global muammolar jamiyatning baracha sohalarini qamrab olgan, unga xos bo‘lgan muammolarning yechimini topish va hal etishda yalpi axborotlashuv, axborot texnologiyalarini rivojlantirish, informatsion madaniyatni shaklantirish va muntazam takomillashtirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari jamiyatning hamma sohalarini egallab, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tobora zamonaviylashuvini, takomillashuvini ta’minlamoqda va fundamental, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng yangi yutuqlaridan unumli foydalangani holda barcha fanlarning muntazam rivojiga shart-sharoit yaratdi. Buning natijasi o‘laroq biotexnologiya, genmuhandisligi(geninjeneriya)ga asoslangan qishloq xo‘jaligi, turli innovatsiyalar, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat va telekommunikatsiya aloqalari va kompyuter texnologiyalari ga asoslangan xizmat ko‘rsatish sohalari vujudga keldi. Hozirgi davrning mazmuni va mohiyati intellektual bilim davri va “bilimga asoslangan” jamiyatdir.

Bugungi kunda yoshlarning aksariyati bo‘sh vaqtlarini, hattoki, ta’lim muassasalarida bo‘lish paytalarini ham internet-klublarda o‘tkazmoqda. Natijada internet ular uchun faqat o‘yinlar olamiga aylanib borayapti. Bunday o‘yinlar bozorlarda kontrafakt disklarda sotilmoqda.

Qolaversa, internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiladigan 9 mingta, erotik mazmundagi 4 mingdan ziyod sayt mavjudligi ko‘pchilikni tashvishga solmoqda.

Kompyuter o‘yinlarining deyarli yarmiga yaqini zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qilmoqda, 42 foiz bola va o‘smlar onlayn tizim orqali tarqatiladigan pornografiya ta’siriga butunlay qaram bo‘lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola millatchilik ruhidagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlashgan<sup>3</sup>.

Ustiga ustak, Yevronyus kanalining telexabarlariga qaraganda, hatto skandinav davlatlarida ksenofobiya va radikalizm bilan bog‘liq yoshlar harakati jonlanib qolgan.

Demak, mafkuralar to‘qnashuvi olamidagi bunday noxush holatlar yangi noan’anaviy muammo – tajovuzkor mafkuralarga qarshi mustaqil pozitsiyani mustahkamlashning yangi davrini ilmiy idrok etish, ommaviy axborot vositalarining geosiyosi darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolining aniq ifodalishini talab etadi. Binobarin, bugungi kunga kelib ayni mafkuraviy ta’sir va tazyiq o‘tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potensiali bo‘lmish milliy mentalitet, madaniyat, odamlarning axloqi va e’tiqodi, mustaqil pozitsiyasini o‘zgartirish qudratiga ega. Bularning barchasi axborot makonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun OAVning siyosiy funksiyalaridan unumli foydalana olayapmizmi, bundan buyon ommaviy kommunikatsiyalarning, ayniqsa, elektron ommaviy kommunikatsiyalarning shiddatli taraqqiyoti inson ongini manipulitsiyalashni qay tariqa davom ettirib boradi, axborot olamidagi raqobatning aniq ilmiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy talqiniga ega bo‘la oldikmi, degan savollarni oldimizga dolzarb qilib qo‘yadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda boshqaruvni liberallashtirish, davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish mavzusiga mutlaqo yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Chunki, davlat va jamiyat oldida ayni ommaviy axborot kommunikatsiyalari taraqqiyotigina siyosiy-g‘oyaviy, ma’naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida ulkan imkoniyatlarni keltirib chiqarish qudratiga ega.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida internet bepoyon axborot maydoniga aylandi. Axborotlashuv jarayonining asosiy subyekti va

harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa’y-harakatlardan ko‘zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an’anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g‘arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o‘rnatishdan iborat<sup>4</sup>.

Shaxsning informatsion madaniyatini shakllantirishning eng ta’sirchan kuchli vositasi bo‘lib, unda ijtimoiy fikr ommaviy tarzda va turli yondashuvda aks ettiriladi, shu ma’noda internet ommda ijtimoiy fikrni shakllantirish, qaror toptirish va informatsion madaniyatini shakllantirish maydoni hisoblanmoqda. Internet inson uchun o‘z ilmiy, mafkuraviy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirishning juda qulay shaklidir. Internet orqali inson shaxs sifatida o‘zini namoyon qildi, ma’naviy dunyosi, ilmiy savyasini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Internetda har bir shaxs ijod qilishi, ilmiy yangilik yaratishi, intellektual imkoniyatlarini namoyon qilishi mumkin.

Internet tufayli shaxs o‘zi istagancha, cheklanmagan holda o‘zining shaxsiy kamoloti haqidada qayg‘uradi va ilmiy-ijodiy faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Internet tizimida shaxs o‘zining aqliy qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun keng shart-sharoitlar mavjud, uning erkin ijodi yuzaga chiqadi. Bu o‘rinda mavjud shart-sharoitlardan ijodiy foydalanish nazarda tutiladi. Bunday shart-sharoitlar axborot olamida endigma o‘z-o‘zini namoyon etib kelayotgan va axborotlarga muntazam ehtiyoj sezadigan yoshlarga zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda internet tarmog‘ida foydali ma’lumotlar bilan bir qatorda tarqatilayotgan buzg‘unchi (diniy ekstremizm, terrorizm, shafqatsizlik, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan) va axloq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan axborotlar, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonun hujjalardida fuqarolarni nomaqbul axborotlardan himoyalashga qaratilgan qat’iy tablablar mustahkamlab qo‘yilgan. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekanligi, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan ax-

<sup>3</sup> Axborot asrida yoshlarning dunyoqarashi. <https://staff.tiame.uz/storage/users/418/presentations/0Jj3MFS10rkhgxDX5isMoeDPNUZjkxUoxOePP4ig.pdf>

<sup>4</sup> Aliyev B., Meliulov A. Axborot xurujlaridan xabardor misiz?. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2015. – B. 13.

borot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno ekanligi belgilab qo'yilgan<sup>5</sup>.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 159-moddasida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish harakatiga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek, pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish harakatlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 189-moddasasi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130-moddasida javobgarliklar belgilangan. Bundan tashqari, zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatish harakatlari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 189-moddasasi 1-bandni va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 130-moddasasi 1-bandni talablariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi<sup>6</sup>.

Qolaversa, Respublikamizning bir qator qonunlarida fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoya qilishga doir talablar mavjud. Jumladan, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasasi talablariga ko'ra, axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi. Mazkur Qonunning 14-moddasasi talablariga ko'ra, qonunga xi洛f ravishda, ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'yilmaydi<sup>7</sup>.

Shuningdek, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008-yil 7-yanvar) O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasasi talablariga ko'ra, pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbazarliklar sodir etilishiga sabab bo'lувchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi<sup>8</sup>.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 130-1-moddasasi. / <https://www.lex.uz/acts/111453>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risidagi Qonuning 7- va 14- moddasasi, 23.03.2020-yil. / <https://lex.uz/acts/52268>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuning 16-moddasasi, 23.03.2020-yil. // <https://www.lex.uz/acts/1297315>

Yurtimizning kelajagi yoshlar qo'lida. Shuning uchun "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi (2016-yil 14-sentabr) O'zbekiston Respublikasi qonunining 5-moddasida ham yoshlarni axloqiy negizlarini buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish – yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida keltirilgan. Ayni paytda, shuni ham ta'kidlash joizki, yuqoridagi qonun hujjalarda ko'rsatib o'tilgan barcha talablar internet tarmog'ida axborotlar tarqatilishiga ham birdek taalluqlidir<sup>9</sup>.

Bundan tashqari, 2014-yil 4-sentabrdada "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga blogerlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qo'shimchalar kiritildi, ya'ni mazkur qonunning 3-moddasida "bloger" atamasiga izoh berilgan bo'lsa, 12-moddasasi 1-bandida blogerga qo'yiladigan talablar belgilandi. Ushbu talablarga muvofiq, veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan, bloger internet jahon axborot tarmog'ida o'z veb-sayti va (yoki) veb-sayt sahifasida O'zbekiston Respublikasining davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga zid keladigan harakatlarni sodir etmasligi belgilab qo'yilgan<sup>10</sup>. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2018-yil 21-maydag'i 173-son buyrug'iga muvofiq "Ma'lumatlar uzatish tarmog'i, shu jumladan internet xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" to'g'risidagi hujjat tasdiqlandi.

Shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq hamda butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-sonli "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda quyidagilar taqiqlangan:

– O'zbekiston Respublikasining mavjud

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunining 5-moddasasi, <https://www.lex.uz/acts/3026246>

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, <https://lex.uz/mobileast/83472>



konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat etish;

- urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish;

- davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor

etish;

- milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek, fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish;

- pornografiyani targ‘ib qilish kabi holatlar<sup>11</sup>.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, <https://lex.uz/mobileact/83472>

## ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>
3. “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021-yildagi 23-son qarori. <https://lex.uz/docs/5234746>
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. – B. 111.
6. Axborot asrida yoshlarning dunyoqarashi. [https://staff.tiame.uz/storage/users/418/presentations/0Jj3MFSI0\\_rkhgxDX5isMoeDPNUZjkxUoxOePP4ig.pdf](https://staff.tiame.uz/storage/users/418/presentations/0Jj3MFSI0_rkhgxDX5isMoeDPNUZjkxUoxOePP4ig.pdf)
8. Aliyev B., Meliquulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz?. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2015. – B.13.
9. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 5953-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 2-mart 2020-yil. / <https://lex.uz/docs/4751561>
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- 11.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 130-1-moddasi. / <https://www.lex.uz/acts/111453>

**ANNOTATSIYA**

Globallashuvning avj olishi bir qator ziddiyatlari vaziyatlarni vujudga keltirdi. Globallashuv ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Dastlab uni G'arb olimlari o'rganganlar va bugun ham o'rganishda davom etmoqdalar. Har qanday jamiyatning ajralmas qismi yoshlar hisoblanadi. Globallashuv davrida avvalambor jamiyatning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Maqolada jamiyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllari aniqlanib tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, xavfsizlik, yoshlar, globallashuv, internet, ijtimoiy tarmoq, siyosiy dunyoqarash, axborot, milliy o'zlik, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, huquqiy ong.

**АННОТАЦИЯ**

Растущая глобализация создала ряд противоречивых ситуаций. Глобализация – противоречивый процесс, впервые был изучен западными учеными и изучается до сих пор. В эпоху глобализации социальные проблемы выходят на первый план. Молодежь является неотъемлемой частью любого общества. Выявляются и анализируются глобальные проблемы общества, реальные процессы и формы глобализации.

**Ключевые слова:** общество, безопасность, молодежь, глобализация, интернет, социальная сеть, политическое мировоззрение, информация, национальная идентичность, политическая культура, правовая культура, правосознание.

**ANNOTATION**

The growth of globalization has created a number of conflict situations. Globalization is a controversial process. Was first studied by Western scientists and is still being studied today. Youth is an integral part of any society. In the era of globalization, social problems come to the fore. Global problems of society, real processes and forms of globalization are identified and analyzed.

**Key words:** society, security, youth, globalization, internet, social network, political outlook, information, national identity, political culture, legal culture, legal consciousness.

**Kirish.** Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda barqaror taraqqiyot yo‘lida o‘zlarining o‘rinlariga ega bo‘lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga inson omili, jumladan, yosh avlodni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Jumladan, O‘zbekiston aholisining deyarli yarmidan ko‘prog’ini yoshlar tashkil etadi.

Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektor, balki siyosiy va ijtimoiy jabhalarda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma’lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Globallashuvning asosi ham aynan shu ma’lumotlarni qabul qilish, o‘zlashtirish, tahrir etish va uzatishdan tashkil topgan.

Bugun “globallashuv” juda keng darajada ommaviylashib ketgan tushunchaga aylandi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki u ta’sir o‘tkazmagan birorta soha qolmadi. Uning moddiy kuch sifatida shakllanishi tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Bugungi kunga kelib insoniyat intellektual salohiyatining yuksak darajada rivojlanishi va uning o‘sib borayotgan moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishlari fan, texnika va texnologiyani zamon talabi darajasida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlar, umuman olganda, butun insoniyatga xizmat qilmoqda.

Globallashuvning avj olishi bir qator ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltirdi. Bu, o‘z navbatida, unga dunyo miqyosida turli qarashlarning shakllanishiga ham olib keldi. Bunday qarashlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga XX asrning 80-yillarda jahon iqtisodiy hayotida sodir bo‘lgan tabiiy integratsion jarayonlarga nisbatan G‘arb olimlarining qarashlarini kiritish mumkin.

Albatta, tabiiy integratsion jarayon uning barcha ishtirokchilarining manfaatlariiga xizmat qilgan. Ammo mamlakatlar iqtisodiy tuzilmasida transmilliy korporatsiyalarning rivojlanib ketishi, ularning katta kuch sifatida maydonga chiqishi tabiiy integratsion jarayonlarda tengsizlikning yuzaga kelishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, dastlab bu jarayonga dunyonи bir butunlikka olib keladigan jarayon sifatida qaralgan va taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazishi haqida fikrlar bildirilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** “Globallashuv” tushunchasi amerikalik olim T.Livittin tomonidan 1983-yilda “Garvard biznes revyu”[1] jurnalida e’lon qilingan maqolada qo‘llanilgan. U bu tushunchani qo‘llash orqali jahon, xususan, taraqqiy topgan mamlakatlarda iqtisodiy sohada yuzaga kelgan o‘zgarishlarni, ularda transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va ularning o‘zaro birlashib bozorlarni egallashi, shu tariqa yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlarni ko‘rsatish maqsadida qo‘llagan. Bu davda Yevropaning bir qator mamlakatlari va AQSHda iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sodir bo‘ldi hamda ularning jahon iqtisodiyotida yetakchiligi ta’minlandi. Eng asosiysi, ular jahon bozorida yagona kuch sifatida mustahkam o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lgan edilar.

Bu jarayonning avj olishi uni ilmiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ham oshirib yubordi. Bu jarayonni birinchilardan bo‘lib Roland Robertson 1985-yildan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rgana boshladi [2]. Roland Robertson globallashuvga taraqqiyotning ma’lum bosqichi, uning tobora rivojlanishi jahonda bir butunlikka olib keluvchi omil sifatida qaradi. Uning bu jarayonni o‘rganishdagi xizmati shunda bo‘ldiki, u globallashuvning taraqqiyot tezlashuviga, iqtisodiyotning markazlashuviga va yutuqlarning ommaviylashuviga olib keluvchi omil ekanligini, shuning uchun uni ilmiy jihatdan o‘rganish, tahlil qilish hamda uning imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini anglab yetdi.

Ana shundan keyingi o‘tgan davrlarda “globallashuv” tushunchasining mazmun-mohiyatini va uning mamlakatlar hamda insonlar hayotidagi o‘rnini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar ortdi, unga nisbatan turli qarashlar,

ziddiyatli fikrlar shakllandi va ular bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Bugungi kunda bu jarayonga bag'ishlangan turli darajadagi ilmiy-nazariy anjumanlar, seminar, treninglar o'tkazib kelinmoqda, maxsus ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo uning ijobiy yoki salbiy jihatlari haqida yagona fikrga kelinmagan. Bu tabiiy hol, chunki vaqt o'tishi bilan globallashuvning yangi qirralari yuzaga chiqmoqda, uning jahon taraqqiyotiga va insoniyat hayotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib bormoqda. Ayni paytda, bu jarayonlarda bir qator ziddiyatlar ham yuzaga kelmoqda. Ularni chuqur o'rjanmasdan turib esa insoniyat barqaror taraqqiy qila olmaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Globallashuv ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Dastlab uni G'arb olimlari o'rganganlar va bugun ham o'rganishda davom etmoqdalar. Agar ular dastlab globallashuvni taraqqiy topgan mamlakatlar iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar orqali o'rganishgae'tiborberganbo'lsalar, bugungikunda uni kompleks holatda tahlil qilib, istiqbolda uning rivojlanishi nimalarga olib kelishi mumkinligini bashorat qilishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglis globallashuv jarayonini taraqqiyotga olib keluvchi, insonlar hayotini yaxshilashning omili sifatida qarab, shunday yozadi: "Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuviga, sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda"[3].

Dunyoning taniqli iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati globallashuvning aniq yo'nalishi haqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflaydi: "Globallashuv deganda, savdoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy globallashuv tushuniladi"[4].

Globallashuvni ko'pchilik olimlarning fikrlaridan farqli o'laroq mafkura sifatida ko'ruchilar ham bor. Jumladan, nemis olimi Ulrix Bek shundaylardan biri hisoblanadi. "Globallashuvni men dunyo bozori siyosiy faoliyatini siqib chiqaruvchi yoki o'rnini

bosuvchi jahon bozori hukmronligi mafkurasi yoki neoliberalizm mafkurasi, deb tushunaman", deb yozadi u[5].

Rus olimi L.Y.Grinin esa "Globallashuv – bu mintaqalar va umuman dunyoning integratsiyalanishuvi va yaqinlashuvining natijasidir"[6], deb hisoblaydi. Yana bir rossiyalik olim Karen Momdjyan "Globallashuv – bu faoliyat emas, bu bizni o'ziga faqat subyekt sifatida, shuningdek, obyekt sifatida bog'lab qo'ygan jarayondir. Globallashuv – bu insonlar qiladigan, bu insonlarda sodir bo'ladigan, ularda sodir etiladigan jarayon"[7], degan fikrni ilgari suradi.

Qozoq olimi A.N.Nisanbayevning fikricha, "Globallashuv jahon hamjamiyati taraqqiyotidagi yetakchi tendensiyalardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga, shuningdek, madaniy tamaddunlar (sivilizatsiyalar) sohasi munosabatlariiga ham ta'sir o'tkazadi"[8]. Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomongan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Bugungi globallashuv jarayonlari davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, jurnalistlar va boshqalar tomonidan turlicha sharhanmoqda. Qanday atalmasin, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganligimiz ko'pchilikka ayon.

**Tahlil va natijalar.** Globallashuv sabab – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shni davlatlar, balki boshqa mintaqqa hududlar bilan bog'liq bo'lmoqda, shu ma'noda "Globallashuv



– bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[9].

Professor S.Otamuratov o‘zining “Globalashuv va millat”[10] asarida globallashuv tushunchasiga insoniyat rivojining yangi sifat bosqichi sifatida qarasa, Ulug‘bek Saidov o‘zining “Globalashuv va madaniyatlararo muloqot”[11] monografiyasida globallashuv davrida davlat va jamiyat qurilishining ma’naviy-axloqiy negizlarini asrash va rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

Globalashuv jarayonlariga nisbatan xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan bildirilayotgan turli-tuman fikrlar va yondashuvlarni umumlashtirgan holda ularni bir nechta guruhga ajratish mumkin:

- globalashuv – tabiiy tarixiy jarayon bo‘lib uni ayrim davlatlar yoki mintaqalar tomonidan chegaralashning imkoniyati mavjud emas;

- globalashuv – rivojlangan davlatlar va transmilliy korporatsiyalar tomonidan uyushtirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy harakatdir;

- globalashuv insoniyat integratsiyasining sifat jihatidan yangi bosqichi bo‘lgan obyektiv voqelik, biroq hozirgi paytda undan o‘z

manfaatlarini amalga oshirishda vosita sifatida foydalanishga intilayotgan kuchlar ham yo‘q emas[12].

Bizningcha, aynan uchinchi yondashuv globallashuv jarayonining hozirgi bosqichini to‘g‘iroq aks ettiradi. Chunki globallashuv tufayli yaratilayotgan qulay “imkoniyatlarni“ anglagan kuchli rivojlangan davlatlar va turli-tuman siyosiy kuchlar mazkur jarayonni o‘zlarining geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga bo‘ysundirishga harakat qilishmoqda.

Globalashuv butun dunyoda ro‘y berayotgan, ortga qaytmaydigan jarayon. Boshqa mamlakatlar qatori biz uchun ham zaruriy. Lekin u bироqlama bo‘imasligi kerak. Globalashuv milliy o‘zlikni yo‘qotish degani emas! Dunyo tamadduni turli xalqlarning o‘ziga xos an’analari, madaniyati, ma’naviy qadriyatları bilan go‘zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sen Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy

ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o'tilgan. Jumladan:

- huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lif va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nis-batan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi;

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexa-nizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi;

- huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtafigi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda[13].

Davlatimiz rahbari o'zining ko'plab ma'ruza va chiqishlarida davlat va jamiyatni taraqqiy ettirish umumjamiyatning ishiga aylanishi kerakligini, buning uchun har bir fuqaro o'zining bu borada qat'iy fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi, fuqaroning shaxsiy manfaati hech qachon jamiyat manfaatidan ustun bo'lmasligi lozimligini ta'kidlab o'tadilar.

Globallashuv sharoitida avj olgan muammolarning yechimi hamkorlikdagi harakatlarni talab qilmoqda. Ushbu integratsion jarayonlar doirasida quyidagi maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi izohlanadi. Bular:

- Xalqaro ijtimoiy-siyosiy muammolar: yadro urushining oldini olish; qurollanish poygasi darajasini pasaytirish; mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni hal qilish: umumjahon xavfsizlik tizimining mustahkamlanishi; xalqlar o'rtasidagi ishonchni takomillashtirish;

- Xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar: kam rivojlanganlik va u bilan bog'liq bo'lgan qashshoqlik hamda madaniy qoloqliknı bartaraf etish; energetik, xomashyo, mahsulot inqirozlarini hal etish yo'llarini qidirish; tinch maqsadlar uchun koinot makonini va jahon okeanini o'zlashtirish; ishlab chiqarish jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;

- Inson muammolari: asosiy huquq, erkinliklariga rioya qilish; inson hayoti uchun muhim bo'lgan sharoitlarni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish, madaniyatni rivojlantirish va saqlash; inson va tabiat, jamiyat, siyosat va xalqaro munosabatlar o'rtafigi muvozanatni uyg'unlashtirish. Jahon hamjamiyati tajribasi insoniyat taqdiriga ta'sir etuvchi muammolarni faqatgina birlashgan holda hal etish mumkinligini ko'rsatyapti[14].

**Xulosa va takliflar.** Hozirgikunda yoshlarning ongiga chetdan kirib kelayotgan har turdag'i axborotlar tez sur'atlarda ta'sir etmoqda, sababi, ayrim yoshlar yengil-yelpi axborotlarga berilib, ularni qabul qilishi ham oson kechadi. Internetning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanib, davlatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o'rmini yanada mustahkamlash va jahonga tanilishi uchun harakat qilishimiz zarur. Demak, biz internetdan umumilliyl manfaatga xizmat qiladigan va uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotlarni tanlab, tahlil qilib foydalansak, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolishning oldini olgan bo'lamiz.

**ADABIYOTLAR**

1. Мировая экономика и международные отношения. – М., 1988. – №1. – С.13.
2. <http://www.word.widewar>
3. Uzbekistan and Central Asia – Центр политических исследований. Информационно-аналитический бюллетень, 2007. IX. – С. 42.
4. Uzbekistan and Central Asia – Центр политических исследований. Информационно-аналитический бюллетень, 2007. IX. – С. 44.
5. Сумерки глобализации: Настольная книга антиглобалиста. Автор-составитель А.Ашкепров. – М.: ООО “ACT”, 2004. – С. 48.
6. Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет // История и суверенитет, 2005. – №1. – С. 8.
7. Нысанбаев А.Н. Гуманистические основы конфессионального диалога и философия взаимопонимания / Материалы международной научно-практической конференции. – Алматы, 2012. – С.13.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 111.
9. Otamurotov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). T.: Yangi asr avlod, 2008.
10. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. – T.: Akademiya, 2008. – B. 86.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli qarori 09.01.2019.
12. Safayev S.S. Tarqatma material. Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari. – T., 2005. – B. 2-3.

## SIYOSIY TIZIMLAR TAHLILI AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA

*QOLQANOV*

*Nuriddin Tashpulatovich,  
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent*

### ANNOTATSIYA

Maqolada siyosiy tizimlar haqida umumiy ma’lumotlar hamda Amerika qo‘shma shtatlari va Fransiya siyosiy tizimlarining umumiy va xususiy tomonlarining ayrim jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** siyosat, siyosiy tizim, konstitutsiya, prezidentlik, parlamentar, siyosiy tizimlar tahlili.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются общие сведения о политических системах и некоторые аспекты общих и частных аспектов политических систем Соединенных Штатов Америки и Франции.

**Ключевые слова:** политика, политическая система, конституция, президентская, парламентская, анализ политических систем.

### ANNATATION

The article analyzes general information about political systems and some aspects of the general and particular aspects of the political systems of the United States of America and France.

**Key words:** politics, political system, constitution, presidential, parliamentary, analysis of political systems.

So‘nggi yillardagi jahonda kechayotgan keng ko‘lamli geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar alohida siyosiy tizimlarning ham, ular o‘rtasidagi munosabatlarning ham o‘zgarishiga olib keldi. Mamlakatimiz siyosiy fanlarida ushbu jarayonlarni ilmiy bilish jarayonida siyosiy tizimlarning ishlashi va rivojlanishi nuqtai nazaridan qiyosiy tahlilga sezilarli qiziqish paydo bo‘ldi. Va agar birinchi holda, asosiy tadqiqot vositasи “siyosiy tizim” toifasining o‘zi bo‘lsa, ikkinchisida - qiyosiy tahlil uni bilish usuli sifatida sifatda ishlaydi. Bu siyosatshunoslardan ma‘lum darajadagi uslubiy kompetentsiyani talab qiladi.

Siyosiy hayotning bosh unsuri – siyosiy tizim bo‘lib, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga aloqador bo‘lgan normalar, tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy institutlarning yig‘indisidir. U siyosiy hayotning xarakteri va mazmuniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Siyosatshunoslikka oid adabiyotlarda siyosiy tizim tushunchasiga siyosiy tizim – siyosatni, jamiyatda hokimiyat va davlat boshqaruvini shakllantirish va amalda ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar tizimidir deya ta’rif berilgan.

Zamonaviy siyosiy dunyo nihoyatda dinamik va o‘zgaruvchan, siyosiy tizimlar doimiy

o‘zgarishlar holatida. Turli mamlakatlarning o‘ziga xos siyosiy tizimlari mavjud. Ushbu tushunchaga ta’rif beradigan bo‘lsak, siyosiy tizim – davlat va jamoat organlari va tashkilotlari majmui, ular orqali mamlakatda siyosiy hokimiyat amalga oshiriladi.

Misol uchun, agar biz Fransiya va Amerika qo‘shma shtatlari (AQSh)ning zamonaviy siyosiy tizimlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda ikkala holatda ham rasmiy ravishda bir xil tuzilmalarni topish mumkin, masalan, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlari, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar, ijro etuvchi hokimiyatlar, sudlar va boshqalar.

Fransiya bo‘linmas, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lib, boshqaruvning respublika shakliga ega. 1958-yilda referendum yo‘li bilan qabul qilingan, o‘zgartirishlar kiritilgan Konstitutsiya amal qiladi. AQSh – prezidentlik boshqaruv shakliga ega federal respublika. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi muddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”<sup>1</sup> deya ta’rif berilgan.

AQSh siyosiy tizimi 1787-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada, shuningdek, Konstitutsiya va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiysi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 4





boshqa qonunlarga kiritilgan o‘zgartirishlarda belgilangan.

Konstitutsiya hukumat hokimiyatini amalgalashirish vakolatini AQSh Federal hukumatiga beradi. AQSh Konstitutsiyasi hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipini belgilaydi, unga ko‘ra federal hukumat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlaridan iborat bo‘lib, bir-biridan alohida ishlaydi. Fransiyada 1958-yildan boshlab boshqaruv shakli yarim prezidentlik respublikasi hisoblanadi. Uning Konstitutsiyasi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etish bilan bog‘liq battafsil me’yoriy hujjatlarni o‘z ichiga oladi, Konstitutsiyaviy Kengashning maqomini belgilaydi, sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlaydi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etish bilan bog‘liq ba’zi qoidalarni o‘z ichiga oladi.

AQSh Prezidenti davlat, hukumat boshlig‘i va qurolli kuchlarning bosh qo‘mondoni hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti to‘rt yillik muddatga saylanadi va bu lavozimni ikki muddatdan ko‘p bo‘lmagan muddatga egallashi mumkin (AQSh Konstitutsiyasiga 22-o‘zgartirishga muvofiq). Prezident va vitse-prezident 538 a‘zodan iborat Saylovchilar kollegiyasining bevosita ishtirokida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Fransiyada president asosiy

shaxs hisoblanadi. Konstitutsiyada prezidentning ustuvorlik prinsipi aniq belgilab qo‘yilgan, u parlament oldida mas‘ul emas, lekin hukumat rahbari ham emas. To‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy saylov huquqi asosida ko‘pchilik ovoz bilan besh yil muddatga saylanadi. AQSh Prezidentining vakolatlari: Amerika Qo‘shma Shtatlari Qurolli Kuchlari Oliy qo‘mondoni, mamlakatning xalqaro maydondagi oliy vakili, federal sudyalarini, shu jumladan, Oliy sud a‘zolarini, elchilarni va ijroiya hokimiyatining yuqori mansabdor shaxslarini tayinlash.

Frantsiya Prezidentining vakolatlari: Oliy qo‘mondoni, xalqaro maydonda mamlakatni vakil qiladi, yuqori darajadagi fuqarolik va harbiy amaldorlarni tayinlaydi.

Oliy qonun chiqaruvchi organi ikki palatali parlament – AQSh Kongressi: AQSh Kongressi Vakillar palatasi va AQSh Senati. Har bir shtatning Senatda ropparosa ikkita vakili (senatorlar) mavjud. Har bir shtatdan Vakillar Palatasida vakillar soni har bir shtat aholisi soniga qarab har 10 yilda aniqlanadi (aholi qancha ko‘p bo‘lsa, vakillar ham shuncha ko‘p bo‘ladi). Har bir shtat aholisi sonidan qat‘i nazar, kamida bitta vakilga ega. Senatorlar olti yillik muddatga saylanadi, vakillar esa har ikki yilda ikki yillik muddatga saylanadi. Senatorlar ham, vakillar ham cheklanmagan miqdorda qayta saylanishi mumkin.

Fransiya parlamenti ikki palatadan – Milliy assambleya va Senatdan iborat. Milliy Majlis deputatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo‘li bilan ko‘pchilik asosda besh yil muddatga saylanadi. Parlamentning yuqori palatasi - Senat ikki bosqichli ovoz berish yo‘li bilan saylanadi va har 3 yilda uchdan biri tomonidan yangilanadi. Senat, quyi palatadan farqli o‘laroq, hukumatni yopib qo‘ya olmaydi. Milliy Assambleya tomonidan qabul qilingan qonunlarga nisbatan Senat vaqtinchalik veto qo‘yish huquqiga ega.

Bu mamlakatlarda saylov natijalariga ko‘ra hukmron partiyalarni o‘zgartirish mexanizmi uzoq vaqt davomida – hech bo‘lma ganda Ikkinci jahon urushi tugaganidan keyingi baracha yillar davomida to‘g‘ri ishlamoqda. Misol tariqasida Fransiya (hukumatni shakllantirishda prezident muhim rol o‘ynaydi) va AQSh (bu yerda prezidentning o‘zi hukumatni tuzadi, garchi u har bir vazirlikka nomzod uchun parlament roziliginini olishi kerak) tajribasini keltirishimiz mumkin.

Fransiyada hukumatga saylovlarda ko‘pchilik ovoz olgan partiya deputatlari orasi-

dan respublika prezidenti tomonidan noma‘lum muddatga tayinlanadigan boshvazir boshchilik qiladi. Prezident va parlament oldida mas‘ul bo‘lgan bosh vazir.

Hukumat faoliyatini boshqaradi va u uchun javobgardir, qonunlarning bajarilishini ta‘minlaydi va mamlakatning mudofaa qobiliyati uchun javobgardir. AQShda bosh vazir lavozimi yo‘q, lekin bosh vazir lavozimiga o‘xshash davlat kotibi lavozimi mavjud. Davlat kotibi prezidentlik vorisligidagi to‘rtinchi shaxsdir. Davlat kotibi Prezident tomonidan tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, siyosiy tizimni o‘rganish siyosat fanida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ahamiyati shundan iboratki, aynan shu yerda jamiyat hayotining turli jabhalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qarorlar qabul qilinadi. Siyosiy tizimni tahlil qilish ijtimoiy voqelik sifatida siyosatning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarini aniq ochish yo‘lidan oldinga siljish imkonini beradi. Bu bizga siyosiy manfaatlar va munosabatlarni amalga oshirish yo‘llarini topish imkonini beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Odilqoriyev X., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. – T.: O‘qituvchi, 2008.
3. Голосов Г.В. Сравнительная политология: учебник / Г. В. Голосов. – 4-е изд., перераб. и доп. – СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2018. – С. 462.
4. Колканов, Н. Т. (2018). Процесс формирования имиджа политического лидера (опыт Узбекистана). Редакционная коллегия, 157.

**“SUD EKSPERTIZA  
SOHASINI  
RIVOJLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY  
USULLARI VA USTUVOR  
YO‘NALISHLARI”**  
*mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya xususida*

**KAYUMOVA  
Ferangiz,  
X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazining  
Xalqaro hamkorlik va  
jamoatchilik bilan aloqalar  
bo‘limi bosh mutaxassisi**

2023-yilning 22-23-sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan Yuristlar malakasini oshirish markazi hamda “Mintaqaviy muloqot” XNNT bilan hamkorlikda “Sud ekspertiza sohasini rivojlantirishning zamonaviy usullari va ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiyaning maqsadi - O'zbekistonda sud ekspertiza faoliyatining bugungi holati va muammolarini muhokama qilish, sohada amalga oshirilgan islohotlarni keng jamoatchilikka, xusan xorijiy hamkorlar e’tiboriga yetkazish hamda xorijiy sud ekspertiza muassasalarida mavjud ilg‘or tajribani O'zbekistonga tadbiq etish, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhokama maydonini yaratish, konferensiya yakunlari bo‘yicha materiallar to‘plamini tayyorlab, ishtirokchi va manfaatdor tashkilotlarga yetkazib berishdan iborat.

Xalqaro konferensiya AQSH, Ozarbayjon, Sloveniya, Qozog‘iston, Armaniston, Xitoyning sud ekspertiza muassasalari xodimlari va soxa mutaxassislari ishtirok etishdi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda Sud ekspertizasida transmilliy almashinuv tizimlari – huquq va maxfiylik sohasidagi so‘nggi tajriba va mavjud muammolar, Sud-tibbiy ekspertizasining tematik tadqiqotlari, Ozarbayjon Respublikasida sud ekspertizasini rivojlantirish istiqbollari, Qozog‘iston Respublikasi davlat sud ekspertizasi to‘g‘risida, Sud-biologik va genetik ekspertiza sohasini rivojlantirishning zamonaviy usullari, Sud ekspertiza faoliyatini rivojlantirish istiqbollari, O'zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari, Sud ekspertiza faoliyatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari, O'zbekiston sud tibbiyotida o‘limdan keyingi radiologik tekshiruvlar istiqbollari, Obyektlarning yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligini mustaqil baholash tizimini ishlab chiqish va erishiladigan samaradorlik,



O'zbekistonda sud siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, MDH ayrim mamlakatlarida jinoyat protsessida sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazish tartibining qiyosiy tahlili, BGI-4 in 1 yordamida sud – genetik ekspertiza samaradorligini oshirish, Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanish samaradorligi, Raqamli kriminalistika: faoliyat turlari, muammo va ehtimoliy yechimlar, Sud-lingvistik ekspertizasi imkoniyatlari orqali amalga oshiriladigan vazifalar, Odam molekular genetik ma'lumotlari asosida populyatsion kelib chiqishini aniqlash mavzulari bo'yicha ma'ruzalar muhokama etilib, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflar bildirildi.

Xususan, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi direktori Akram Xalilov bugungi kunda sud ekspertizasi doimiy va jadal rivojlanayotgan sohalaridan sanalib, u moslashuvchan bo'lishi va hayotimizdagi har qanday yangilik hamda o'zgarishlarga darhol javob berishi kerakligini ta'kidlab, xalqaro tajribalar asosida "Halol" mahsulotlar ekspertizasini, Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO)

ekspertizasini, raqamli kriminalistikaning yangi turlarini, uchuvchisiz, masofadan boshqariluvchi qurilmalar "dronlar", "bulutli xizmatlar", "sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlari" hamda "kriptovalyutalar" bo'yicha tadqiqot turlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib borishni, shuningdek, shunga monand normativ huquqiy bazani takomillashtirishni taklif etdi.

Shuningdek, xorijiy ekspertlar tomonidan hozirgi globallashuv jarayonida sud ekspertiza tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi muassasalar doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolarning talabi va ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida yangi ekspertiza tadqiqotlari, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish hamda sud ekspertlari malakasini yanada oshirish choralarini ko'rishi, o'z faoliyatlarini zamon talablariga mos xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borishi muhim ekanligini ta'kidlashdi.

Konferensiyada muhokamalardan o'tgan materiallar alohida Konferensiya to'plami tayyorlandi va electron tarzda qatnashchilarga va keng omma e'tiboriga taqdim etildi.





